# O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

## ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

**“Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta‘limi” kafedrasi**

**MILLIY G`OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR**
**fani bo‘yicha**

# O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

**Tuzuvchilar:** dotsent N. Alimova
dotsent Sh. Asqarov
assistent R. Haydarov
assistent Sh. Amirxo‘jayev



**Andijon-2013-2014-o‘quv yili**

**Mazkur ma`ruzalar matni Andijon Davlat universiteti Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida 2013 yil "____" ___________son majlisida muhokama etildi va ma`qullandi.**

**Kafedra mudiri: yu.f.n. R. Imamov**

**©Andijon Davlat universiteti**

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
# ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди

№ 5Д-1.09

2011 йил "8" 11

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2011 йил 17 сентябрдаги 392-сон буйруғи билан тасдиқланган

TAJRIBA-SINOV

# МИЛЛИЙ ҒОЯ: АСОСИЙ ТУШУНЧА ВА ТАМОЙИЛЛАР ФАНИДАН НАМУНАВИЙ ДАСТУР

(бакалавр йўналиши учун)

ТОШКЕНТ-2011

Мазкур намунавий дастур Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ўқув-методик бирлашмалари фаолиятини мувофиқлаштирувчи кенгашнинг 2011 йил 9 сентябрдаги 3-сон мажлис баёни билан тажрибавий дастур сифатида маъқулланган.

Ушбу дастур “Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар” фанидан бакалаврнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлари мазмунига қўйиладиган талаблар асосида тайёрланган.

Тажрибавий дастурни келгусида тўлдирилган ва бойитилган ҳолда чоп этиш заруратини ҳисобга олиб, фикр-мулоҳазаларингизни қуйидаги манзилга юборишингизни сўраймиз:

**Тошкент шаҳар, 2-Чимбой кўчаси 96-уй, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги “Маънавий-ахлоқий тарбия” бошқармаси, тел: 246-10-58, 246-10-54.**

Фаннинг ўқув дастури Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида ишлаб чиқилган.

**Тузувчилар:**

Назаров Қ. - фалсафа фанлари доктори, профессор (ДЖҚА)
Саифназаров И. - фалсафа фанлари доктори, профессор (ТДИУ)
Мамашокиров С. - фалсафа фанлари доктори, профессор (ЎзМУ)
Шермуҳамедова Н. - фалсафа фанлари доктори, профессор (ЎзМУ)
Тўйчиев Б. - фалсафа фанлари доктори, профессор (ЎзМУ)
Ўтамуродов А. - фалсафа фанлари номзоди, доцент (ЎзМУ)
Тоғаев Ш. - фалсафа фанлари номзоди, доцент (ЎзМУ)

**Тақризчилар:**

Шермуҳамедов С. - фалсафа фанлари доктори, профессор, ЎзФА академиги (ЎзМУ)
Норқулов Д. - фалсафа фанлари доктори, профессор (ТТА)
Тўраев Ш. - фалсафа фанлари номзоди, доцент (РМҒМИАМ)
Валиев Б. - фалсафа фанлари номзоди, доцент (ТИУ)
Тўхтаев Х. - фалсафа фанлари номзоди, доцент (ЎзМУ)

Фаннинг ўқув дастури Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Илмий-услубий кенгаши томонидан тавсия этилган. (2011 йил 19 августдаги 1-сон баённома)

# КИРИШ

XXI асрда кечаётган глобал интеграция жараёнлари, дунёнинг ғоявий-мафкуравий қиёфасини ўзгартириб, янгича тафаккур услубини тақозо қилмоқда. Шу боис, Ўзбекистонда таълимнинг ижтимоийлашувига алоҳида эътибор берилиб, ўқитилаётган фанларнинг мазмунини замон талабларига мослаштирилиши бўйича ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Бу "Таълим тўғрисидаги" Қонун ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида белгиланган вазифаларни босқичма-босқич амалга ошириш жараёнида ўз ифодасини топмоқда. Хусусан, талаба ёшларимизни Ватан ва миллат манфаатлари йўлида фидоийлик кўрсата оладиган, мустақиллигимизнинг моҳиятини ва қадрини англайдиган, уни ҳар қандай хавф-хатардан асрашни ўзининг муқаддас бурчи деб биладиган, муайян мутахассисликни, касб-ҳунарни чуқур эгаллаган, мустақил, эркин фикрлайдиган, маънавий ва жисмонан баркамол инсонни тарбиялаш учун олий таълим тизимида гуманитар ва ижтимоий фанларнинг дастурларини замон талаблари асосида қайта кўриб чиқишни тақозо қилмоқда. Бу эса ёшларда тарихий воқеликка объектив баҳо бериш ва тўғри хулоса чиқариш малакаларини шаклантиришни талаб қилади. Зеро, Президент Ислом Каримов таъкидлаганидек: “Таълимни тарбиядан, тарбияни эса таълимдан ажратиб бўлмайди - бу шарқона қараш, шарқона ҳаёт фалсафаси ”[1]дир.

Демак, обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт барпо этаётган халқимиз тараққиётининг ғоявий тамойилларини, мамлакатимиз ҳаётида устивор бўлаётган юрт тинчлиги, Ватан равнақи, халқ фаровонлиги ғояларига садоқат туйғуларини шакллантиришга ёрдам берадиган мавзуларни ўрганиш “Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар” фанининг мазмун-моҳиятини белгилайди

Мазкур фан доирасида «Миллий ғоя» ва «Миллий мафкура» тушунчалари, уларнинг мазмун-моҳияти, намоён бўлиш хусусиятлари, халқлар ва давлатлар тақдирига таъсири, ҳозирги замондаги мафкуравий жараёнлар, ёшлар қалби ва онгида бузғунчи ва вайронкор ғояларга нисбатан огоҳлик ва ҳушёрлик хусусиятлари шаклланиши билан боғлиқ масалалар ўрганилади. Миллий ғоялар ва мафкуралар тизими, ”ғоявийлик”, “ғоясизлик”, “мафкуравий фаолият”, “мафкуравий жараёнлар”, “мафкуравий таъсир”, “мафкуравий майдон ва полигонлар”, “мафкуравий инқироз”, “ғоявий бўшлиқ”, “мафкуравий профилактика”, “мафкуравий иммунитет” каби тушунча ва атамаларнинг мазмун-моҳиятини очиб бериш билан боғлиқ масалалар мажмуи ҳам ушбу фаннинг асосий мавзулари доирасига киради.

“Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар” - мустақиллик йилларида ўрганиш имкони очилган янги фанл ар дан биридир. Мазкур фаннинг мақсади эзгу ғоялардан ва соғлом мафкурадан маҳрум бирон бир миллат ва жамиятнинг узоққа бора олмаслигини, ҳар қандай халқ ва давлат ўз тараққиётининг ғоявий-мафкуравий тамойилларини белгилаб олиши зарурлиги ижтимоий жараёнларнинг муқаррар қонунияти эканлигини ёшларнинг қалби ва онгига сингдиришдан иборатдир.

Бу эса келажагимизни яққол тасаввур этиш, жамиятимизнинг ижтимоий-маънавий пойдеворини мустаҳкамлаш, ёт мафкуралар тажовузига қарши тура оладиган, ҳар томонлама баркамол инсонларни вояга етказиш, ғоявий бўшлиқ бўлишига йўл қўймаслик, ва ниҳоят, юртимизнинг юксак тараққиётини таъминлаш учун миллий истиқлол ғоясини чуқур ўрганиш эҳтиёжини юзага келтирди. «Ушбу таълимотни қандай зарурат шакллантирди?» ва «Ундан кўзланаётган мақсад-муддаолар нима?» - деган саволларга

---

[1] Каримов И.А. Юксак маънавият –енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008. –. Б. 62

жавоблар Президентимиз Ислом Каримовнинг кўп йиллик изланишлари, асарларидаги фикр-мулоҳазаларида ўз аксини топди. Аввало, шуни таъкидлаш лозимки, миллий истиқлол ғояси тасодиф эмас, балки ўзига хос фалсафий асоси, илмий-назарий ва тарихий илдизларига эга бўлган яхлит назариядир. Шу маънода, у мамлакатимиз тараққиётининг объектив зарурияти, қонуний ҳосиласи, халқимиз мақсад-муддаоларининг ифодасидир. Бу эса, ўз навбатида, «Мафкура ҳар қандай жамият ҳаётида зарур. Мафкура бўлмаса одам, жамият, давлат ўз йўлини йўқотиши муқаррар» - деган фикрнинг ҳаққонийлигини исботлайди.

Биз ушбу ҳаёт ҳақиқатини ёшлар қалби ва онгига сингдиришимиз лозим. Бу таълим тизими олдига ғоявий тарбияни кучайтиришга доир ўқув дастурлари ва адабиётларнинг янги авлодини яратиш вазифасини қўйди. Мазкур дастурни яратишда таълим тизимининг барча бўғинларида миллий ғояни ўрта мактаб, лицей, коллежларда ўқитишнинг мавжуд дастурлари таҳлил қилиниб, олий таълимда уларнинг такрорланиши бартараф этилди.

“Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар” фанининг қонун-қоидалари, тушунча ва тамойилларини ўргатишда қуйидагиларга алоҳида эътибор бериш зарур:

- мустақиллик биз учун энг олий қадрият, уни асраб-авайлаш эса ҳар биримизнинг муқаддас бурчимиз эканини талабаларнинг қалби ва онгига сингдириш;
- ёшларда ғоялар ўз маъно-моҳиятига кўра бунёдкор ёки вайронкор бўлиши, уларнинг халқлар ва давлатлар тараққиётига таъсири, ҳозирги замоннинг мафкуравий манзараси, бузғунчи ғояларнинг таъсиридан ҳушёр ва огоҳ бўлиш шартлари ва мезонлари ҳақидаги ҳаётий ва ҳаққоний тасаввурларни шакллантириш;
- ўқув машғулотларини олиб боришда талабаларнинг ёши, тафаккури, дунёқараши ва қизиқишларини ҳисобга олиш, таълим-тарбиянинининг илғор, таъсирчан воситаларидан, замонавий ўқитиш технологияси имкониятларидан кенг фойдаланиш;
- айрим тушунчаларни ҳаддан зиёд соддалаштириш, таълимнинг эскича услуб ва тамойилларни қўллаш натижасида фаннинг қадрсизланишига йўл қўймаслик;
- таълим жараёнида тазйиқ ўтказмасдан маърифий асосда иш тутиш, ёшларнинг мустақил ва эркин фикрлаш, баҳс-мунозара юритиш кўникмаларини оширишга эътибор қаратиш.

Булардан ташқари ғоялар фалсафасининг мазмун-моҳиятини тушунтиришда ўқитувчи ва тингловчилар орасида ўзаро ҳамфикрлик ва ҳамкорлик муҳитини шакллантириш, мавзунинг тушунча ва тамойилларини шарҳлашда ҳаётий мисоллар, бугунги дунёда рўй бераётган воқеалар таҳлилидан, матбуот материалларидан кенг фойдаланиш ҳам муҳим аҳамият касб этади.

## Ўқув фанининг мақсади ва вазифалари

**Фанни ўқитишдан мақсад -** талабаларда миллий ғоя ва мафкуранинг мазмун-моҳиятини тушунган ҳолда ижтимоий воқеликка мустақил муносабатини шакллантириш, озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт қуриш ғоясининг ижтимоий-маънавий моҳиятини ёшлар онгига сингдиришдан иборат.

**Фаннинг вазифалари:**

- ёшларнинг ижтимоий фаолиятида муқобил ғоя ва мафкураларга оқилона муносабатни;
- халқ орасида миллий ғояни тарғиб-ташвиқ қилиш малакасини;
- ғоявий мафкуравий жараёнларни таҳлил қилиш, баҳолаш ва уларга мустақил ёндашувни шакллантиришдан иборатдир.

## Фан бўйича билим, кўникма ва малакага қўйиладиган талаблар

“Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар” ўқув фанини ўзлаштириш жараёнида амалга ошириладиган масалалар доирасида бакалавр:

- миллий ғоя ва мафкуранинг мазмун-моҳиятини билиш ва улардан амалиётда фойдаланиш;
- миллий ғоянинг тарихий негизларини, фалсафий асосларини ўрганиш ва уларнинг ривожланиш қонуниятларини билиш;
- ижтимоий-сиёсий жараёнлар ҳақидаги муқобил ғояларни қиёсий таҳлил қилиш ва уларга мустақил муносабат билдириш;
- ғоявий-мафкуравий жараёнларга доир назарий билимларни амалий ҳаётда қўллаш;
- ёшларда маънавий таҳдидларга қарши курашиш кўникмасини шакллантиришдан иборат.

**Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва услубий жиҳатидан узвий кетма - кетлиги**

"Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар" фани фалсафа, тарих, ҳуқуқшунослик, маънавият асослари, сиёсатшунослик, педагогика, психология каби ижтимоий-гуманитар фанлар билан бевосита алоқадор.

**Фаннинг ишлаб чиқаришдаги ўрни**

"Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар" фанини ўрганиш орқали эгалланган билимлар ёшларнинг мафкуравий иммунитетини, сиёсий маданияти, огоҳлигини оширишга, ижтимоий жараёнларни таҳлил қилишга ўргатади.

**Фанни ўқитишда замонавий ахборот ва педагогик технологиялар**

"Миллий ғоя асосий тушунча ва тамойиллар" фанини ўқитиш жараёнида мантиқийлик, тарихийлик, обьективлик тамойилларига амал қилингани ҳолда таълимни замонавий педагогик технологиялар асосида ташкил этиш, ўқув жараёнига ахборот технологияларини жорий этишнинг ноанъанавий усулларидан фойдаланиш, айниқса, "Ақлий ҳужум", "ФСМУ", "Кейс-стадис", "Бумеранг", "Кластер", "Матбуот конференцияси" каби методлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

## Асосий қисм

### "Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар" фанининг предмети, мақсади ва вазифалари

"Миллий ғоя асосий тушунча ва тамойиллар" фанининг предмети: ғоя инсоният тараққиётининг ҳаракатлантирувчи омили, ҳаётий мақсадлар ифодаси. Бунёдкор ва вайронкор, дунёвий ва диний ғоялар, уларнинг мазмуни. Бунёдкор ғояларда гуманистик тенденцияларнинг ифодаси. Ғояда эҳтиёжлар ва манфаатлар мутаносиблиги. Ғоя ва мафкуралар муқобиллигининг йўналишлари. Ғояларнинг интеллектуал асосларини ривожлантириш муаммолари. Ғоялар ривожланишида сиёсий етакчиларнинг роли.

Мафкура тушунчасининг мазмуни. Мафкуранинг элементлари: мўлжал, эмоциялар, хулқ-атвор, уларнинг индивидуал ва жамоавий характери. Мафкуранинг функциялари: интеграциялаштирувчи, йўналтирувчи, таъсирчанлик, тарбиявий, ташкиллаштирувчи, гносеологик, праксиологик, прогностик, баҳолаш (қадриятли), футурологик, ҳимоя қилувчи. Мафкуранинг шакллари: анархия, монархия, тоталитаризм, либерализм, демократия. Либерал ва тоталитар мафкураларнинг зиддияти. Демократияга асосланган мафкуранинг устиворлиги.

Миллий ғоя тушунчаси, унинг тузилиши ва намоён бўлиш хусусиятлари. Миллий ғоянинг умуминсоний мазмуни. Ўзбекистон мустақиллигини мустаҳкамлашда миллий ғоя ва мафкуранинг роли. Президент Ислом Каримов асарлари-миллий ғоя ва мафкуранинг

илмий-услубий асоси. Ўзбекистонда яшаётган турли миллат ва этник бирликларни ягона ғоя атрофида бирлаштиришнинг тарихий зарурияти. Миллий ғояда ўз-ўзини англаш, миллий ғурур ва ифтихорнинг намоён бўлиш хусусиятлари. “Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт қуриш” -миллий мафкуранинг бош ғояси. Уни амалга оширишнинг асосий ғоялари: юрт тинчлиги, Ватан равнақи, халқ фаровонлиги, комил инсон, ижтимоий ҳамкорлик, миллатлараро тотувлик, диний бағрикенглик. Бош ва асосий ғоялар ўртасидаги ўзаро алоқадорлик. Миллий ғоянинг гуманистик характери.

Жамиятдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар таъсирида ғояларнинг дифференциаллашуви. Миллий тараққиёт ғояларининг индивидуал ва ижтимоий кўринишлари. Мафкуравий жараёнларни назарий билиш ва амалий ўзгартириш муаммолари.

Жамиятнинг ижтимоий табақаланиш жараёнига мафкуравий таъсир. Муайян ғояларнинг доминантлашуви ва уларнинг оқибатлари. Мафкуравий жараёнларда демократик тамойилларнинг намоён бўлиши. Ғоя, мафкура ва миллий ғоя тушунчаларининг ижтимоий-сиёсий моҳияти, уларнинг умумийлиги ва фарқлари.

## “Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар” фанининг тарихий илдизлари, шаклланиш босқичлари

Инсоният тарихида ғоя ва мафкуралар намоён бўлишининг асосий босқичлари. Тарихий тараққиёт жараёнида ғоя ва мафкураларнинг ўзгарувчан характери. Президент Ислом Каримов “Юксак маънавият -енгилмас куч” китобида ғоялар тарихи ва фалсафаси, миллий ғоянинг мазмун-моҳияти, шаклланиши ва намоён бўлиши ҳақида.

Мифология, теология ва халқ маънавий-маданий қадриятларида миллий ғоя ва мафкуранинг ифодаланиши. “Авесто” ва Зардуштийликда ғоялар такомили.

Ғарб мамлакатларида илк ғоявий қарашлар ва уларнинг такомил босқичлари. Сократ, Платон, Аристотел, Гераклит, Пифагор ва бошқа мутафаккирларнинг ғоялари ва уларнинг аҳамияти. Афина ва Рим империяси ғоялар тизими ва мафкураси.

Шарқ ва Марказий Осиёда ғояларнинг намоён бўлиши, уларнинг гуманистик моҳияти. Ўрта Осиёда ислом дини ғояларининг ёйилиши. Хоразмий, Фаробий, Беруний, Ибн Сино меросида ғоялар масаласи. Темурийлар даври ғоялари, Амир Темур, Улуғбек, Навоий, Бобурнинг миллий ва умуминсоний ғоялар тўғрисидаги фикрлари.

Ғарб мамлакатларида ғоявий қарашларнинг такомил босқичлари. Европа илк ўрта асрлар ва Ренессанс даври ғоялари. Христианлик ғоялари. Христианликнинг салб юришлари. Томазо Кампанелла, Томас Морнинг “Қуёш шаҳри” ҳақидаги утопик ғояси. Маркс ва Энгелснинг социализм ғояси таназзули. Европада ўрта асрларда умумий макон, миллий мумтозлик, империал, колониал ва миллий тараққиёт йўллари тўғрисидаги ғоялар.

XV-XVII асрлардаги ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар ва XVIII ва XIX асрлардаги янги замон ғояларининг шаклланиши. Ўрта Осиёда XVI-XVIII асрлардаги хонлик ва амирликлар даврида ғоялар тизими. XIX аср охири ва XX асрнинг 90 йилларида шаклланган ғоялар тизими.

Мафкуранинг XIX аср ўрталаридан бошланган такомил босқичлари. Ғоя ва мафкура муаммосига объектив, субъектив, эволюцион ва инқилобий, сиёсий ёндошувлар. XIX аср охири ва XX аср мафкураси, унинг ўзига хос хусусиятлари. Деидеология ва реидеология йўналишлари. XX асрнинг охири - XXI аср бошидаги мафкуравий жараёнлар.

Совет даврида коммунистик партия ғояларининг гегемонлиги ва унинг оқибатлари. Социализм тузумининг ғоявий инқирозида миллий ўз-ўзини англашнинг ўрни. Шўролар даврида мафкуравий қатағоннинг фожиавий оқибатлари. Департация (қувғин) қилинган халқларнинг маънавий-руҳий ҳолати ва уларда миллий ўзликни сақлашнинг тарихий жиҳатлари.

Мустақиллик - миллий ғоя фанининг бош мавзуси. Маънавий жасорат- миллат ғояси ва руҳининг ифодаси.

## Миллий ғоя, ижтимоий тараққиёт ва мафкуравий жараёнларнинг ўзаро боғлиқлиги

Ижтимоий тараққиёт ва тарихий жараёнларнинг миллий ғоялар шаклланиши ҳам да амал қилишига таъсири.

Миллий ғоя халқнинг тарихий тараққиёти асоси. Миллий ғоя ўз-ўзини англашнинг маҳсули. Миллий ғоя моҳиятида халқ манфаатининг ифодаланиши.

Миллий ғоя ва мафкурани ривожлантиришнинг ижтимоий-сиёсий, маънавий, ҳуқуқий омиллари. Ғоя ва мафкураларнинг ижтимоий тараққиётдаги роли. Ижтимоий-сиёсий тузумлар ўзгаришида ғоявий-мафкуравий қарашларнинг аҳамияти. Мафкуравий мерос ва унда ворисийликнинг намоён бўлиши.

Тарихий хотира ғоя ва мафкуранинг ривожланишидаги ижтимоий маънавий омил. Мафкуравий жараёнларнинг ижтимоий онг шаклларидаги инъикоси. Индивидуал онгда мафкурага муносабатнинг тур ли даражалари. Мафкура ва ғояларнинг кундалик воқелик билан узвийлиги. Ахлоқ ва мафкура, дин ва мафкура, санъат ва мафкура мутаносиблиги. Ижтимоий жараёнларнинг йўналишлари: иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий, ахлоқий, эстетик, диний ва бошқа ғояларнинг ўзаро муносабати.

Сиёсат ва мафкуранинг ўзаро алоқадорлиги ва фарқи. Сиёсатнинг мафкуралашиш ва мафкуранинг сиёсатлаштириш оқибатлари. Мафкура амал қилишининг психологик ва ижтимоий-сиёсий механизмлари. Сиёсий ижтимоийлашув ва сиёсий тарбия муаммоси.

Миллий ғояда менталитетнинг намоён бўлиши. Менталитетнинг фикрлаш услуби ва қадриятлар билан боғлиқ элементлари. Миллий ва умуминсоний ғояларнинг индивидуаллиги ва умумийлиги, интеграцияси ва дифференциацияси.

Ўзбекистоннинг мустақил тараққиёти жараёнида янги ғояларнинг такомиллашув жараёни, унда авлодлараро ворислик ва янгиланишнинг намоён бўлиши. Янги ғоялар тизимидаги устувор тамойиллар, уларни амалга оширишнинг долзарб вазифалари. Истиқлолга асосланган янги ғоялар тизимини такомиллаштириш, унинг маънавий таъсирчанлиги ва мафкуравий самарасини ошириш усуллари ва йўллари.

## Ғоявий таҳдидларнинг йўналишлари

XXI асрда мафкуравий муносабатлар кескинлашувининг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий сабаблари. Президент Ислом Каримов мафкуравий таҳдидлар, уларнинг мазмун-моҳияти ва асосий йўналишлари ҳақида. (Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда, хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолотлари асари асосида)

Шовинизм, геноцид, фашизм, неофашизм, неокоммунизм, ирқчилик, диний экстремизм, фундаментализм, терроризм ғояларининг реакцион моҳияти ва уларга қарши курашнинг тарихий зарурияти. Терроризмнинг шакллари: минтақавий ва халқаро терроризмнинг ғоявий-мафкуравий асослари.

Маҳаллийчилик, миллатчилик, уруғ аймоғчилик, коррупцияга қарши кураш мафкуравий мустақиллик кафолоти.

Мафкурадаги мутлоқ жамоавий ва мутлоқ индивидуал ёндашувларнинг салбий оқибатлари. Евроосиё ва Шарқ мафкурасининг хусусиятлари.

Жаҳон молиявий инқирозининг мафкуравий жараёнларга таъсири. XX асрда мафкуравий ҳамкорликнинг аҳамияти, унинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маънавий, ҳуқуқий асослари ҳамда миллий, ҳудудий ва умумбашарий даражалари.

## Мафкуравий тажовуз ва ахборот хавфсизлиги

Мафкуравий тажовуз ва унга қарши миллий хавфсизликни таъминлаш зарурати. Жамиятнинг мафкуравий муқобиллашиш сабаблари. Мафкуравий гегемонизмнинг вужудга келиши. Гегемонизмнинг шакллари. Муқобил мафкуравий қарашларнинг жамият ривожланишига таъсири ва уларни мувофиқлаштириш имкониятлари.

Мафкуравий таҳдиднинг ошкора ва ёпиқ характери. Ахборот хавфсизлиги ва биологик хавфсизликнинг мутаносиблиги. Ахборот коммуникацияларида мафкуравий хуружларнинг намоён бўлиши ва унга қарши ҳимоя (профилактика) воситалари. Интернет мафкуравий хуруж объекти. Виртуал мафкуравий хуружнинг оқибатлари. Ахборот хуружига қарши ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг зарурияти ва аҳамияти. Минтақавий ва глобал ахборот хавфсизлиги.

Ахборот хавфсизлигининг локал ва глобал аҳамияти. Ахборот хавфсизлигининг ижтимоий маданий мерос билан боғлиқлиги ва унинг янги воқеликка мутаносиблиги. Геосиёсий манфаатлар ахборот хавфсизлиги омили. Биосиёсатда ахборот хуружларига ирсий муносабатнинг намоён бўлиши.

## Мафкуравий фаолият - миллий ғояни амалга ошириш воситаси

“Мафкуравий муносабатлар” тушунчаси, унинг мазмун -моҳияти ва намоён бўлиш хусусиятлари. Миллий ғоянинг ижтимоий субъектлар орасидаги ҳамкорлик ва ҳамжиҳатликни мустаҳкамлашдаги аҳамияти.

Мафкуравий фаолият” тушунчаси, унинг мазмун-моҳияти ва намоён бўлиш хусусиятлари. “Ҳар қандай мафкуравий фаолият-муайян ғояни амалга ошириш жараёнидир” тамойили - идеологик аксиома. Мафкуравий фаолият тизими, унинг элементлари. Мафкуравий фаолиятни ташкил қилишнинг усуллари ва йўллари. Ғоядан мафкурага, ундан амалий фаолиятга томон бориш диалектикаси. Мафкуравий фаолият мақсадли ва мўлжалли ҳаракат сифатида. Мафкуравий фаолиятда индивидуализм ва ижтимоийликнинг намоён бўлиши. Формализм, компаниябозлик, қоғозбозлик кабиларнинг маънавий-мафкуравий оқибатлари.

Бунёдкор ғояларни амалга оширишга қаратилган мафкуравий фаолият тамойиллари: яратувчанлик, гуманизм, плюрализм, толерантлик, эзгулик томон ҳаракат. Вайронкор ғоялар асосидаги бузғунчилик, ақидапарастлик, экстремизм ва терроризмга мойиллик каби мафкуравий фаолият тамойилларига қарши курашнинг зарурлиги.

Мафкуравий фаолиятни амалга оширишнинг замонавий технологиялари. Оммавий ахборот воситалари, интернет ва бошқа ахборот воситаларининг мафкуравий фаолиятдаги ўрни.

Мафкуравий фаолиятда миллий ғояни аҳоли онгига сингдириш, Юрт тинчлиги, Ватан равнақи, халқ фаровонлиги ғояларининг намоён бўлиши.

## Глобаллашув жараёнида мафкуравий иммунитетни шакллантириш вазифалари

Ҳозирги даврда дунёнинг мафкуравий манзараси. Мафкуравий муносабатларнинг технологик ва интеллектуал асослари.

Мафкуравий таҳдидларга қарши кураш усуллари ва воситалари**.** Шўро сиёсий мафкурасининг расмий андозаларидан, унинг шиорлари ва рамзларидан воз кечилишининг объектив сабаблари**.** “Оммавий маданият”нинг оқибатларига нисбатан иммунитетни шакллантиришнинг зарурияти.

Президент Ислом Каримов “Мафкуравий майдон” тушунчасининг шаклланиш ва намоён бўлиш хусусиятлари тўғрисида. Турли кўлам ва манзарага эга бўлган мафкуравий майдонларда хилма- хил ғоя ва мафкуралар тўқнашуви, зиддияти ва ўзаро ҳамкорлигининг акс этиши. Мафкуравий майдонни ташкил этувчи омиллар, воситалар ва

ғоявий манбалар. Мафкуравий майдонлардаги ғоявий таъсир ва акс таъсир жараёнлари, уларга хос хусусиятларни аниқлаш имкониятлари.

“Мафкуравий полигон” тушунчаси, унинг намоён бўлиш хусусиятлари. Мафкуравий полигонларнинг заҳираси, таъсир кўрсатиш усуллари ва воситалари. Мафкуравий полигонларнинг ядро полигонларидан хавфлилик сабаблари. Мафкуравий полигонларнинг ғоявий хуружи ва уларнинг асл мақсад-муддаоларини аниқлаш усуллари.

Мафкуравий полигон ва мафкуравий профилактиканинг ижтимоий сиёсий зарурияти. Мафкуравий жараёнларнинг миллий тараққиётга ижобий ва салбий таъсири. Ўзбекистондаги ижтимоий-сиёсий жараёнларни кескинлаштиришнинг ғоявий мақсадлари.

Мафкуравий жараёнларнинг миллат менталитетига, сиёсий онгига, диний эътиқодига, ижтимоий руҳиятига маънавий-маданий савиясига таъсири.

Мафкуравий иммунитетни шакллантириш омиллари. Билим халқ маънавиятида мафкуравий иммунитетни шакллантиришнинг назарий асоси. Билимни амалиётда қўллаш малакаларини ривожлантириш воситалари. Индивидуал онгда ғоя ва мафкурага муносабатни шакллантиришда ижтимоий муҳитнинг роли ва унинг интеллектуал асослари. Мафкуравий иммунитет ва сиёсий маданият мутаносиблиги. Мафкуравий иммунитетда ақл теранлиги ва хулқ атворнинг намоён бўлиши.

Мамлакатдаги иқтисодий барқарорликнинг мафкуравий иммунитетни шакллантиришдаги ўрни**.** Сиёсий ҳушёрлик ва сиёсий маданият мафкуравий иммунитетнинг муҳим омили. Ташқи сиёсий воқеликка нисбатан мафкуравий иммунитетни шакллантиришнинг ўзига хос жиҳатлари. Ўзбекистон халқаро мавқеини мустаҳкамлашнинг мафкуравий, ижтимоий тарихий аҳамияти ва зарурияти

**Жамият барқарорлигини таъминлашнинг ижтимоий-ғоявий асослари**

Жамият барқарорлигини таъминлашда иқтисодий-сиёсий, ижтимоий - маънавий омилларнинг муштараклиги.

Миллий ғоянинг этносиёсат ва этномаданият ривожига таъсири. Ўзбекистонда миллий сиёсатнинг амалга оширилиши ва унда этник бирликлар манфаатлари ҳимоя қилинишининг ҳуқуқий ва ижтимоий асослари. Ўзбекистонда яшаётган этник бирликлар тафаккурида миллий ғояга садоқатни шакллантиришнинг объектив ва субъектив омиллари. Мамлакатда миллатлараро (тотувлик), ҳамкорлик, ва динлараро бағрикенглик, (толерантлик) - ижтимоий барқарорликни таъминлаш шарти, унинг сиёсий ва қонуний-ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлашда давлатнинг бош ислоҳотчилик роли. "Ўзбекистон - ягона ватан" ғояси барқарорликни таъминлашнинг назарий асоси.

Ўзбекистонда миллий маданий марказларнинг ташкил қилиниши миллатлараро барқарорликни таъминлаш воситаси. Маданий мулоқот кўп миллатли аҳоли орасидаги барқарорлик омили. Тил маданий мулоқот ва барқарорликнинг муҳим воситаси.

Ўзбекистонда расмий тан олинган диний конфессиялар фаолиятининг миллатлараро тотувликни таъминлашдаги роли. 2007 йилда “Тошкент -ислом маданияти пойтахти” деб эълон қилинишининг тарихий аҳамияти.

Тошкент Ислом университети ва Тошкент Ислом институтининг аҳоли онгида динга муносабатни шакллантиришдаги роли.

Ўзбекистоннинг халқаро ҳамжамиятга интеграциялашуви ва сиёсий мавқеи мустаҳкамланишида миллатлараро ва динлараро толерантликни мустаҳкамлаш тажрибаларининг демократик характери ва халқаро аҳамияти.

Мустақиллик ва ҳуқуқ, демократия ва ошкоралик - миллий ўз-ўзини англаш, ахлоқий янгиланиш, миллий маънавий тикланишнинг асоси. “Бу муқаддас ватанда азиздир инсон ”, “Буюк ва муқаддассан мустақил Ватан” ғояларининг ижтимоий маънавий аҳамияти.

Дунё мамлакатларида яшовчи этник бирликларнинг миллий ўзлигини англаши учун яратилаётган шарт шароитларнинг мафкуравий аҳамияти. Баъзи мамлакатларда миллат ва элатлар камситилишининг оқибатлари.

Айрим МДҲ давлатларида сиёсий институтлар ва лидерларга халқ ишончи йўқолишининг сабаблари. Дунё мамлакаталаридаги беқарорлик сабаблари. Беқарорлик ҳукмрон мамлакатларда қочоқларнинг аҳволи.

Дунёда тинчлик ўрнатишда барқарор демократик тараққиёт, эркинлик, ижтимоий-сиёсий ҳамкорлик, миллий ва диний тотувлик ғояларининг устувор аҳамияти.

**Тафаккур ўзгариши ва маънавий янгиланишда миллий ғоянинг роли**

Бозор муносабатларига ўтишнинг инсон тафаккурига таъсири. Тафаккурга жамият, мактаб, оила ва тарбияни амалга оширувчи бошқа омиллар таъсирининг ўзаро нисбати. Миллий ғоянинг тафаккур консерватизмини бартараф қилишдаги ўрни.

Тараққиётнинг миллий моделлари ва уларнинг мазмуни. “Ўзбек модели”-эволюцион тараққиёт ғоясининг гуманистик характери. Ижтимоий онг ва тафаккур янгиланишига миллий тараққиёт моделининг ижобий таъсири.

Миллий ғоя қонун устиворлигига асосланган демократик давлат ва эркин фуқаролик жамияти барпо этишнинг асосий омили. Давлат бошқарувини демократлаштириш ва жамият ҳаётини модернизациялашнинг ғоявий асослари. “Кучли давлатдан - кучли фуқаролик жамияти сари” тамойили, унинг барча соҳалардаги маънавий янгиланиш ва тафаккур ўзгаришидаги ўрни ва аҳамияти.

Миллий ғоя ва маънавий ҳаёт. Истиқлол йилларида маънавий тикланиш ва юксалиш соҳасидаги ислоҳотлар жараёни. Президент Ислом Каримовнинг “Юксак маънавият - енгилмас куч” асарининг янги дунёқараш ва замонавий тафаккурни шакллантиришдаги аҳамияти. Юксак маънавиятни шакллантирадиган асосий мезонлар.

Миллий ўзликни англаш ва маънавий юксалишнинг стратегик ва тактик вазифалари. Президент Ислом Каримов асарлари - миллий маънавий тараққиёт ғоясининг концептуал асоси ва уларнинг аҳамияти. Мафкуравий муносабатларда миллий ва умуминсоний манфаатлар бирлигини таъминлаш имкониятлари.

Президент Ислом Каримовнинг “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида” китобининг тафаккур янгиланишига таъсири. Миллий ғоя-маънавий янгиланишнинг назарий ва амалий асоси. Баркамол авлод тарбиясида мафкуранинг таъсирчанлик ролини ошириш вазифалари.

**Миллий ғояни ривожлантиришнинг институционал тизими**

Дунёнинг элитар мафкуравий тизими. Ғоявий таълим-тарбия ва тарғибот-ташвиқот ишларига комплекс-системали ёндашиш тамойиллари.

“Мафкуравий тарбия” тушунчаси, унинг мазмуни ва намоён бўлиш хусусиятлари. “Мафкуравий таъсир”, “мафкуравий тарбия” ва “мафкуравий профилактика” тушунчаларининг ўзаро алоқадорлиги. “Юксак маънавият -енгилмас куч” асарида маънавий тарбия, эзгу ғояларга ишонч ва садоқатни тарбиялаш масалалари. Мафкуравий тарбия тизими, унинг субъекти ва объекти.

Мафкуравий тарбиянинг йўналишлари ва ижтимоий функциялари. Ғоя ва мафкуралар соҳасидаги плюрализм ва толерантликни тарбиялаш. Ижтимоий субъектлар, турли қатламлар, партияляраро муносабатлар уйғунлигини сақлаш, ижтимоий барқарорликни мустаҳкамлашда мафкуравий тарбиянинг аҳамияти.

Таълим-тарбия тизимида миллий ғояни ривожлантириш имкониятлари. Миллий ғояни инсон онги ва қалбига сингдиришнинг янги педагогик-дидактик технологиясини такомиллаштириш вазифалари. Таълим-тарбия тизимида адабиёт, санъат, оммавий ахборот воситалари, маънавий-маданий ва маърифий муассасалар фаолиятларини мувофиқлаштиришнинг устувор йўналишлари.

Ижтимоий институтларнинг анъанавий, индивидуал, жамоавий мафкуравий функциялари. Миллий ғояни ривожлантиришда оммавий ва сиёсий ташкилотлар, оила, маҳалла, нодавлат-нотижорат ташкилотларнинг ролини оширишнинг аҳамияти.

Ғоя ҳақидаги тасаввурларнинг интеллектуал фаоллик даражалари, унда сиёсий воқеликнинг мантиқий изчил ва асосли манзарасини яратиш мўлжаллари. Сиёсий хаёл, сиёсий тасаввурларни қайта ишлаш ва ижодий ўзгартириш йўллари.

Миллий ғоя ва мафкурани тарғиб-ташвиқ қилишда мутахассислар роли ва масъулияти. Миллий ғояни оммага трансформация қилишда кадрлар корпусини шакллантиришнинг зарурияти.

Кадрларнинг салоҳиятини оширишда "Ўзбекистон Республикаси Таълим тўғрисидаги Қонуни" ва "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури", “Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” да белгиланган вазифаларни амалиётга тадбиқ этишнинг аҳамияти.

**Семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар**

Семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича кафедра профессор-ўқитувчилари томонидан кўрсатма ва тавсиялар ишлаб чиқилади. Унда дарслик ва услубий қўлланмалар асосида билимларни мустаҳкамлашга эришиш, тарқатма материаллардан фойдаланиш, илмий мақолалар ва тезисларни чоп этиш орқали талабалар билимини ошириш, мавзулар бўйича кўргазмали ўқув воситаларини тайёрлаш тавсия этилади.

**Семинар машғулотлари учун тавсия этилаётган тахминий мавзулар**:

“Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар” фанининг предмети, мақсади ва вазифалари. Фаннинг тарихий илдизлари, шаклланиши ва такомиллашиш омиллари. Миллий ғоя, ижтимоий тараққиёт ва мафкуравий жараёнларнинг ўзаро боғлиқлиги. Ғоявий таҳдидларнинг йўналишлари, Мафкуравий тажовуз ва ахборот хавфсизлиги. Ижтимоий сиёсий муносабатларнинг глобаллашуви жараёнида мафкуравий иммунитет. Жамият барқарорлигини таъминлашнинг ижтимоий ғоявий асослари. Тафаккур ўзгариши ва маънавий янгиланишда миллий ғоянинг роли. Миллий ғояни ривожлантиришнинг институционал тизими.

**Мустақил ишларни ташкил этишнинг шакли ва мазмуни:**

Мустақил таълимнинг турли хил шакллари мавжуд бўлиб, бунда асосий эътибор талабанинг берилган мавзулар (амалий масалалар, топшириқлар ва кейс-стадилар)ни мустақил равишда, яъни аудиториядан ташқарида бажариши, ўқиб ўрганиши ва шу йўналиш бўйича билим ва кўникмаларини чуқурлаштиришига қаратилади. Талаба мустақил ишни тайёрлашда муайян фаннинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги шакллардан фойдаланиш тавсия этилади:

- дарслик ёки ўқув қўлланмалар бўйича фанлар боблари ва мавзуларини ўрганиш;
- тарқатма материаллар бўйича маърузалар қисмини ўзлаштириш;
- мустақил ишлар, кейс-стадилар билан ишлаш;
- махсус ёки илмий адабиётлар (монографиялар, мақолалар) бўйича фанлар бўлимлари ёки мавзулари устида ишлаш;
- фанга оид статистик маълумотларни ўрганиш, уларни таҳлил қилиш;
- талабанинг ўқув-илмий-тадқиқот ишларини бажариш билан боғлиқ бўлган фанлар бўлимлари ёки мавзуларни чуқур ўрганиш;
- фаол ва муаммоли ўқитиш услубидан фойдаланиладиган ўқув машғулотлари;
- масофавий (дистанцион) таълим.

“Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар” фанидан талабаларнинг мустақил ишларини реферат, семинар, маъруза тайёрлаш, Президент асарларини конспектлаштириш ва бошқа шаклларда ташкил этилиши тавсия этилади. Мустақил иш мавзуларини белгилашда маъруза ва семинар машғулотлари мавзуларини тўлдиришга ҳаракат қилиниши лозим.

**Тавсия этилаётган тахминий мустақил иш мавзулари:**

1. Миллий ўз -ўзини англашнинг этномаданият ривожига таъсири.
2. Ахборот хавфсизлигини таъминлаш барқарор тараққиёт омили.
3. Иқтисодий барқарорлик маънавий- маданий камолот омили.
4. Таълим ва тарбия миллий мафкурани англаш воситаси.
5. Нодавлат нотижорат ташкилотларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётдаги аҳамияти.
6. Сиёсий хаёл ва сиёсий ҳаёт уйғунлиги.
7. Сиёсий менталитет моделлари.
8. Сиёсий менталитет ва сиёсий жараёнлар диалектикаси.
9. Мафкуравий тарбия йўналишлари ва функциялари.
10. Бунёдкор ғояларнинг гуманистик характери.

**Дастурнинг информацион-услубий таъминоти**

“Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар” фанини ўқитишда замонавий (хусусан интерфаол) методлар, ахборот коммуникация (медиатаълим, амалий дастур пакетлари, презентацион, электрон-дидактик) технологияларининг қўлланиши назарда тутилади. Фанни ўқитишда электрон дарсликдан, мавзуга оид теледисклардан ва бошқа кўргазмали қуроллардан фойдаланилади.

**Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати**

**Раҳбарий адабиётлар:**


1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон, 2011.
2. Давлат тили ҳақида (янги таҳрири). Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. - Т.: Ўзбекистон, 1997. - 22 б.
3. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. - Т.: Шарқ, 1997. - 63 б.
4. Таълим тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. - Т.: Ўзбекистон, 1989. – 30 б.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - 364 б.
6. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - 380 б.
7. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - 366 б.
8. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4- жилд.-Т. :Ўзбекистон, 1996.-349 б.
9. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. 5-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1997. -384 б.
10. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Тошкент : Шарқ, 1998. - 31 б.
11. Каримов И.А Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. 6-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1998. - 429 б.
12. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1999. - 410 б.
13. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. 8-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2000. - 528 б.

14. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. 9-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2001. - 432 б.

15. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашамиз. 10-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2002. - 432 б.

16. Каримов И.А. Биз танлаган йўл демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11- жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2003. - 320 б.

17. Каримов И.А. Тинчлик ва ҳавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. 12 - жилд. Т.: "Ўзбекистон" 2004.-400 б.

18. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч кимга, ҳеч қачон қарам бўлмайди. 13-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2005.-448 б.

19. Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва ҳалқимиз ҳаёт даражасини ошириш - барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. 15-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2007.-318 б.

20. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. 16-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2008.-366 б.

21. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш - бизнинг олий мақсадимиз. 17-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2009.-280 б.

22. Каримов И.А. Жахон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари . 18 -жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2010. -280 б.

23. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008. - 176 б.

24. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шаротида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2009. - 56 б.

25. Каримов И.А. Энг асосий мезон - ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. - Т.: Ўзбекистон, 2009. - Б.24.

26. Каримов И.А. Асосий вазифамиз - Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтириш. -Т.: Ўзбекистон, 2010

27. Каримов И.А. Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон. -Тошкент: Ўзбекистон, 2010.

28. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010.

29. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. - Т.: Ўзбекистон, 2011. -370 б.

**Дарслик ва ўқув қўлланмалар:**

1. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. -Т.:Ўзбекистон, 2000.

2. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. (ўқув қўлланма). Назаров Қ тарҳирири остида. Т.: Янги аср авлоди, 2002

3. Миллий истиқлол ғояси (Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик). Эршашев И таҳрири остида. -Т.: Академия, 2005.

4. Мамашокиров С, Тоғаев Ш. Эркин ва фаровон ҳаёт қурилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. -Т.: Маънавият, 2007.

5. Миллий истиқлол ғояси: назария ва амалиёт. -Т.: Ижод дунёси, 2002.

6. Назаров Қ. Миллий истиқлол ғоясининг асосий мақсад ва вазифалари. - Т.: Янги аср авлоди, 2001.

7. Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси .- Т.: Академия, 2011.

8. Тўраев Ш. Демократик жараёнлар ва миллий ғоя. -Т.: Маънавият, 2008.

9. Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. - Т.: Ўзбекистон, 2004.

**Қўшимча адабиётлар:**


1. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Назаров Қ. таҳрири остида. -Т.: Маънавият, 2009.
2. Абилов Ў. Миллий ғоя: маънавий омиллар. Т.: Маънавият, 1999.
3. Бегматов А. Маънавият фалсафаси ёхуд Ислом Каримов асарларида янги фалсафий тизимнинг яратилиши. -Т.: 2000 йил.
4. Гафарли М.М. Касаев А.Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик - тараққиёт омили. -Т.: Ўзбекистон, 2000.
5. Исломов З.М. Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага. -Т.: 2002.
6. Мамашокиров С. ва бошқалар. Ўзбекистонда янги жамият қурилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. (Ўқув-услубий қўлланма). -Т.: 2004.
7. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. Назаров Қ таҳрири остида. -Т.: Академия нашриёти. 2007.
8. Миллий истиқлол ғоясини халқимиз онгига сингдириш омиллари ва воситалари. -Т.: 2002.
9. Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдизлари. -Т.: 2002.
10. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. (Қисқа изоҳли тажрибавий луғат) -Т.: Янги аср авлоди, 2002.
11. Мустақиллик мафкураси ва Ўзбекистонда демократик жамият қуришнинг иқтисодий, ижтимоий ва маънавий негизлари. -Т.: Университет, 2001.
12. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. Хоназаров Қ таҳрири остида. -Т.: Шарқ, 2000.
13. Мусаев Ф. Демократик жамият қуришнинг фалсафий асослари.-Т.: 2008.
14. Ортиқов М., Усмонов М. Ғоя ва мафкура. -Т.:Янги аср авлоди, 2001.
15. Отамуродов С, Мамашокиров С. Марказий Осиёда мафкуравий жараёнлар.-Т.: 2001.
16. Отамурадов С. Глобаллашув ва миллат. -Т.: 2008.
17. Туйчиев Б. Политическая культура и демократизации общества. -Т.:НУУз, 2010.
18. Фалсафа: қомусий луғат. Назаров Қ таҳрири остида. -Т.: Шарқ, 2004.
19. Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавият. -Т. Маънавият, 2002.
20. Қаххорова Ш. Глобал маънавият - глобаллашувнинг ғоявий асоси. -Т.:Тафаккур, 2009.
21. Қуронов М. Мафкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. -Т.: Академия, 2008.


**Электрон таълим ресурслари:**


1. “Халқ сўзи” газетаси –www info XS. Uz.
2. “Туркистон” газетаси - www turk iston sarkor. uz.
3. “Маърифат” журнали - www ma’rifat - inform.
4. “Жамият ва бошқарув” журнали - www rzult academy fre enet uz .
5. “Мозийдан садо” журнали - www moziy dostlink. Net
6. www. Ziyo net.uz.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

**Ro’yhatga olindi.**
**№ _________________**
**201__ “__” __________**

**“Tasdiqlayman”**
**O’quv ishlari bo’yicha prorektor:**
**________t.f.n. dots. M. To’rayev**
**“____” __________2013 - yil**

# “MILLIY G‘OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANINING ISHCHI O’QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 100000 – Gumanitar soha
600000 – Xizmatlar sohasi

**Ta’lim sohasi:** 11000 – Pedagogika
12000 – Gumanitar fanlar
13000 – Matematika
14000 – Tabiiy fanlar
63000 – Atrof - muhit muhofazasi

**Ta’lim yo`nalishi:** 5110700 – Informatika o’qitish metodikasi
5110800 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
5110900 – Pedagogika va psixologiya
5111000 – Kasb ta’limi (Informatika va axborot texnologiyalari)
5111100 – Musiqa ta’limi
5111300 – Ona tili adabiyot (Qirg’iz tili va adabiyoti)
5111300 – Ona tili adabiyot (Rus tili va adabiyoti o’zga tilli guruhlarda)
5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo’yicha)
5111600 – Milliy g`oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi
5111700 – Boshlang`ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish
5111800 – Maktabgacha ta’lim
5112000 – Jismoniy madaniyat
5112100 – Mehnat ta’limi
5120100 – Filologiya va tillarni o’qitish (o’zbek tili)
5130100 – Matematika
5140100 – Biologiya (Turlar bo’yicha)
5140200 – Fizika
5140500 – Kimyo
5140600 – Geografiya
5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (Tarmoqlar bo’yicha)

**Andijon - 2013**

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Alimova N. – ADU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi " kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi;

Asqarov Sh. – ADU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi " kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi;

Haydarov R.– ADU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi " kafedrasi assistenti.

Amirxo'jayev Sh. – ADU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi " kafedrasi assistenti.

**Taqrizchilar:**

Madumarov T. – ADU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi " kafedrasi dotsenti, yuridik fanlari nomzodi.

Asqarov S. – ADU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi " kafedrasi katta o'qituvchisi.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi " kafedrasining 2013 yil "26" avgustdagi "1" – son yig'ilshida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri: __________yu.f.n. Imamov R.**

Fanning ishchi o'quv dasturi Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti kengashining 2013 yil 27 avgustdagi 1 – son majlisida muhokama etildi va ma'qullandi.

**Fakultet kengashi raisi: _____________ dotsent Rasulov B.**

**Kelishildi: O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i: _____ dotsent Abdullayev Q.**

# K I R I SH

XXI asrda kechayotgan global integratsiya jarayonlari, dunyoning g‘oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o‘zgartirib, yangicha tafakkur uslubini taqozo qilmoqda. Shu bois, O‘zbekistonda ta’limning ijtimoiylashuviga alohida e’tibor berilib, o‘qitilayotgan fanlarning mazmunini zamon talablariga moslashtirilishi bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu "Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonida o‘z ifodasini topmoqda. Xususan, talaba yoshlarimizni Vatan va millat manfaatlari yo‘lida fidoiylik ko‘rsata oladigan, mustaqilligimizning mohiyatini va qadrini anglaydigan, uni har qanday xavf-xatardan asrashni o‘zining muqaddas burchi deb biladigan, muayyan mutaxassislikni, kasb-hunarni chuqur egallagan, mustaqil, erkin fikrlaydigan, ma’naviy va jismonan barkamol insonni tarbiyalash uchun oliy ta’lim tizimida gumanitar va ijtimoiy fanlarning dasturlarini zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo qilmoqda. Bu esa yoshlarda tarixiy voqelikka obyektiv baho berish va to‘g‘ri xulosa chiqarish malakalarini shaklantirishni talab qiladi. Zero, Prezident Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi ”dir.

Demak, obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etayotgan xalqimiz taraqqiyotining g‘oyaviy tamoyillarini, mamlakatimiz hayotida ustivor bo‘layotgan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g‘oyalariga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishga yordam beradigan mavzularni o‘rganish “Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining mazmun-mohiyatini belgilaydi

Mazkur fan doirasida «Milliy g‘oya» va «Milliy mafkura» tushunchalari, ularning mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish xususiyatlari, xalqlar va davlatlar taqdiriga ta’siri, hozirgi zamondagi mafkuraviy jarayonlar, yoshlar qalbi va ongida buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalarga nisbatan ogohlik va hushyorlik xususiyatlari shakllanishi bilan bog‘liq masalalar o‘rganiladi. Milliy g‘oyalar va mafkuralar tizimi, ”g‘oyaviylik”, “g‘oyasizlik”, “mafkuraviy faoliyat”, “mafkuraviy jarayonlar”, “mafkuraviy ta’sir”, “mafkuraviy maydon va poligonlar”, “mafkuraviy inqiroz”, “g‘oyaviy bo‘shliq”, “mafkuraviy profilaktika”, “mafkuraviy immunitet” kabi tushuncha va atamalarning mazmun-mohiyatini ochib berish bilan bog‘liq masalalar majmui ham ushbu fanning asosiy mavzulari doirasiga kiradi.

“Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” - mustaqillik yillarida o‘rganish imkoni ochilgan yangi fanl ar dan biridir. Mazkur fanning maqsadi ezgu g‘oyalardan va sog‘lom mafkuradan mahrum biron bir millat va jamiyatning uzoqqa bora olmasligini, har qanday xalq va davlat o‘z taraqqiyotining g‘oyaviy-mafkuraviy tamoyillarini belgilab olishi zarurligi ijtimoiy jarayonlarning muqarrar qonuniyati ekanligini yoshlarning qalbi va ongiga singdirishdan iboratdir.

Bu esa kelajagimizni yaqqol tasavvur etish, jamiyatimizning ijtimoiy-ma’naviy poydevorini mustahkamlash, yot mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish, g‘oyaviy bo‘shliq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, va nihoyat, yurtimizning yuksak taraqqiyotini ta’minlash uchun milliy istiqlol g‘oyasini chuqur o‘rganish ehtiyojini yuzaga keltirdi. «Ushbu ta’limotni qanday zarurat shakllantirdi?» va «Undan

ko‘zlanayotgan maqsad-muddaolar nima?» - degan savollarga javoblar Prezidentimiz Islom Karimovning ko‘p yillik izlanishlari, asarlaridagi fikr-mulohazalarida o‘z aksini topdi. Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, milliy istiqlol g‘oyasi tasodif emas, balki o‘ziga xos falsafiy asosi, ilmiy-nazariy va tarixiy ildizlariga ega bo‘lgan yaxlit nazariyadir. Shu ma’noda, u mamlakatimiz taraqqiyotining obyektiv zaruriyati, qonuniy hosilasi, xalqimiz maqsad-muddaolarining ifodasidir. Bu esa, o‘z navbatida, «Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar» - degan fikrning haqqoniyligini isbotlaydi.

Biz ushbu hayot haqiqatini yoshlar qalbi va ongiga singdirishimiz lozim. Bu ta’lim tizimi oldiga g‘oyaviy tarbiyani kuchaytirishga doir o‘quv dasturlari va adabiyotlarning yangi avlodini yaratish vazifasini qo‘ydi. Mazkur dasturni yaratishda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida milliy g‘oyani o‘rta maktab, litsey, kollejlarda o‘qitishning mavjud dasturlari tahlil qilinib, oliy ta’limda ularning takrorlanishi bartaraf etildi.

“Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining qonun-qoidalari, tushuncha va tamoyillarini o‘rgatishda quyidagilarga alohida e’tibor berish zarur:

mustaqillik biz uchun eng oliy qadriyat, uni asrab-avaylash esa har birimizning muqaddas burchimiz ekanini talabalarning qalbi va ongiga singdirish;

yoshlarda g‘oyalar o‘z ma’no-mohiyatiga ko‘ra bunyodkor yoki vayronkor bo‘lishi, ularning xalqlar va davlatlar taraqqiyotiga ta’siri, hozirgi zamonning mafkuraviy manzarasi, buzg‘unchi g‘oyalarning ta’siridan hushyor va ogoh bo‘lish shartlari va mezonlari haqidagi hayotiy va haqqoniy tasavvurlarni shakllantirish;

o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda talabalarning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini hisobga olish, ta’lim-tarbiyanining ilg‘or, ta’sirchan vositalaridan, zamonaviy o‘qitish texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish;

ayrim tushunchalarni haddan ziyod soddalashtirish, ta’limning eskicha uslub va tamoyillarni qo‘llash natijasida fanning qadrsizlanishiga yo‘l qo‘ymaslik;

ta’lim jarayonida tazyiq o‘tkazmasdan ma’rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin fikrlash, bahs-munozara yuritish ko‘nikmalarini oshirishga e’tibor qaratish.

Bulardan tashqari g‘oyalar falsafasining mazmun-mohiyatini tushuntirishda o‘qituvchi va tinglovchilar orasida o‘zaro hamfikrlik va hamkorlik muhitini shakllantirish, mavzuning tushuncha va tamoyillarini sharhlashda hayotiy misollar, bugungi dunyoda ro‘y berayotgan voqealar tahlilidan, matbuot materiallaridan keng foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

**Fanni o‘qitishdan maqsad** - talabalarda milliy g‘oya va mafkuraning mazmun-mohiyatini tushungan holda ijtimoiy voqelikka mustaqil munosabatini shakllantirish, ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish g‘oyasining ijtimoiy-ma’naviy mohiyatini yoshlar ongiga singdirishdan iborat.

**Fanning vazifalari:**

- yoshlarning ijtimoiy faoliyatida muqobil g‘oya va mafkuralarga

oqilona munosabatni;
- xalq orasida milliy g‘oyani targ‘ib-tashviq qilish malakasini;
- g‘oyaviy mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilish, baholash va ularga mustaqil yondashuvni shakllantirishdan iboratdir.

**Fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakaga qo‘yiladigan talablar**

“Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

milliy g‘oya va mafkuraning mazmun-mohiyatini bilish va ulardan amaliyotda foydalanish;

milliy g‘oyaning tarixiy negizlarini, falsafiy asoslarini o‘rganish va ularning rivojlanish qonuniyatlarini bilish;

- ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqidagi muqobil g‘oyalarni qiyosiy tahlil qilish va ularga mustaqil munosabat bildirish;
- g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarga doir nazariy bilimlarni amaliy hayotda qo‘llash;
- yoshlarda ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

## Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatidan uzviy ketma - ketligi

“Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani falsafa, tarix, huquqshunoslik, ma’naviyat asoslari, siyosatshunoslik, pedagogika, psixologiya kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bevosita aloqador.

## Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

“Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanini o‘rganish orqali egallangan bilimlar yoshlarning mafkuraviy immunitetini, siyosiy madaniyati, ogohligini oshirishga, ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishga o‘rgatadi.

## Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” fanini o‘qitish jarayonida mantiqiylik, tarixiylik, obektivlik tamoyillariga amal qilingani holda ta’limni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etishning noan’anaviy usullaridan foydalanish, ayniqsa, “Aqliy hujum”, “FSMU”, “Keys-stadis”, “Bumerang”, “Klaster”, “Matbuot konferensiyasi” kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg‘ulotlar mustaqillik yillarida qad tiklagan obidalar, ta’mirlangan ziyoratgohlar, muzeylarga tashrif uyushtirish, ma’naviy meros va ma’naviy hayot bilan bog‘liq joylarga, tabiat qo‘yniga chiqish shaklida tashkil etiladi.

## Fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning " Milliy g'oya asosiy tushuncha va tamoyillar" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhimdir.

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, didaktik - tarqatma materiallar, internet materiallari, elektron materiallar, ko'rgazmali qurollar hamda har bir darsga tegishli yangi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ta'lim jarayonini optimallashtirish uchun omil bo'ladigan pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Dars jarayonida ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalardan **("Aqliy hujum", "Venna diagrammasi", "T-chizma", "Erkin yozish", "Bir-biridan so'rash" "Klaster" metodi, "Bumerang", "Tarozi" texnologiyasi va boshqalar)** tanlab olish imkoniyatidan foydalaniladi.

Bundan tashqari pedagogik jarayon natijalarini xolisona baholashda test usuli, reyting tizimi, talabaning bilim va ko'nikmalarini egallash jarayonini nazorat etish usullaridan foydalaniladi.

Pedagogik texnologiyalar asosida yaratilgan fanga oid o'quv uslubiy majmualar tayyorlanadi.

**"Milliy g'oya asosiy tushuncha va tamoyillar"** fanini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni

ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash** - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

**O'qitishning usullari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O'qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O'qitish vositalari:** o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar. Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

**"Milliy g'oya asosiy tushuncha va tamoyillar**" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi fanga oid saytlrdan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

**"Milliy g'oya asosiy tushuncha va tamoyillar" fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:**

| № | Mavzular nomi | Ajratilgan soat | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | ja`mi | ma`ruza | amaliy | laborat. | seminar | mustaqil ta'lim |
| 1 | "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari | 6 | 2 | | | 2 | 2 |
| 2 | "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari | 6 | 2 | | | 2 | 2 |
| 3 | Milliy g'oya, ijtimoiy taraqqiyot va mafkuraviy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi | 8 | 2 | | | 2 | 4 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4 | G‘oyaviy tahdidlarning yo‘nalishlari | 6 | 2 | | | 2 | 2 |
| 5 | Mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi. | 6 | 2 | | | 2 | 2 |
| 6 | Mafkuraviy faoliyat - milliy g‘oyani amalga oshirish vositasi | 6 | 2 | | | 2 | 2 |
| 7 | Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shaklantirish vazifalari. Jamiyat barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-g‘oyaviy asoslari | 8 | 2 | | | 2 | 4 |
| 8 | Tafakkur o‘zgarishi va ma’naviy yangilanishda milliy g‘oyaning roli | 6 | 1 | | | 2 | 4 |
| 9 | Milliy g‘oyani rivojlantirishning institutsional tizimi | 8 | 1 | | | 2 | 4 |
| | **Jami:** | **60** | **16** | | | **18** | **26** |

## Asosiy qism
## Ma’ruza mashg’ulotlari

**“Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.** “Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining predmeti: g‘oya insoniyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi omili, hayotiy maqsadlar ifodasi. Bunyodkor va vayronkor, dunyoviy va diniy g‘oyalar, ularning mazmuni. Bunyodkor g‘oyalarda gumanistik tendensiyalarning ifodasi. G‘oyada ehtiyojlar va manfaatlar mutanosibligi. G‘oya va mafkuralar muqobilligining yo‘nalishlari. G‘oyalarning intellektual asoslarini rivojlantirish muammolari. G‘oyalar rivojlanishida siyosiy yetakchilarning roli.

Mafkura tushunchasining mazmuni. Mafkuraning elementlari: mo‘ljal, emotsiyalar, xulq-atvor, ularning individual va jamoaviy xarakteri. Mafkuraning funksiyalari: integratsiyalashtiruvchi, yo‘naltiruvchi, ta’sirchanlik, tarbiyaviy, tashkillashtiruvchi, gnoseologik, praksiologik, prognostik, baholash (qadriyatli), futurologik, himoya qiluvchi. Mafkuraning shakllari: anarxiya, monarxiya, totalitarizm, liberalizm, demokratiya. Liberal va totalitar mafkuralarning ziddiyati. Demokratiyaga asoslangan mafkuraning ustivorligi.

Milliy g‘oya tushunchasi, uning tuzilishi va namoyon bo‘lish xususiyatlari. Milliy g‘oyaning umuminsoniy mazmuni. O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g‘oya va mafkuraning roli. Prezident Islom Karimov asarlari-milliy g‘oya va mafkuraning ilmiy-uslubiy asosi. O‘zbekistonda yashayotgan turli millat va etnik birliklarni yagona g‘oya atrofida birlashtirishning tarixiy zaruriyati. Milliy g‘oyada o‘z-o‘zini anglash, milliy g‘urur va iftixorning namoyon bo‘lish xususiyatlari. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish” -milliy mafkuraning bosh g‘oyasi. Uni amalga oshirishning asosiy g‘oyalari: yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik. Bosh va asosiy g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik. Milliy g‘oyaning gumanistik xarakteri.

Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta’sirida g‘oyalarning differensiallashuvi. Milliy taraqqiyot g‘oyalarining individual va ijtimoiy ko‘rinishlari. Mafkuraviy jarayonlarni nazariy bilish va amaliy o‘zgartirish

muammolari.

Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanish jarayoniga mafkuraviy ta’sir. Muayyan g‘oyalarning dominantlashuvi va ularning oqibatlari. Mafkuraviy jarayonlarda demokratik tamoyillarning namoyon bo‘lishi. G‘oya, mafkura va milliy g‘oya tushunchalarining ijtimoiy-siyosiy mohiyati, ularning umumiyligi va farqlari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish, klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar A1. A3. A6., D1. D2.D6., Q1. Q2. Q3. Q9. Q11., E3.E9.

**“Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari.** Insoniyat tarixida g‘oya va mafkuralar namoyon bo‘lishining asosiy bosqichlari. Tarixiy taraqqiyot jarayonida g‘oya va mafkuralarning o‘zgaruvchan xarakteri. Prezident Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat -engilmas kuch” kitobida g‘oyalar tarixi va falsafasi, milliy g‘oyaning mazmun-mohiyati, shakllanishi va namoyon bo‘lishi haqida.

Mifologiya, teologiya va xalq ma’naviy-madaniy qadriyatlarida milliy g‘oya va mafkuraning ifodalanishi. “Avesto” va Zardushtiylikda g‘oyalar takomili.

G‘arb mamlakatlarida ilk g‘oyaviy qarashlar va ularning takomil bosqichlari. Sokrat, Platon, Aristotel, Geraklit, Pifagor va boshqa mutafakkirlarning g‘oyalari va ularning ahamiyati. Afina va Rim imperiyasi g‘oyalar tizimi va mafkurasi.

Sharq va Markaziy Osiyoda g‘oyalarning namoyon bo‘lishi, ularning gumanistik mohiyati. O‘rta Osiyoda islom dini g‘oyalarining yoyilishi. Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino merosida g‘oyalar masalasi. Temuriylar davri g‘oyalari, Amir Temur, Ulug‘bek, Navoiy, Boburning milliy va umuminsoniy g‘oyalar to‘g‘risidagi fikrlari.

G‘arb mamlakatlarida g‘oyaviy qarashlarning takomil bosqichlari. Yevropa ilk o‘rta asrlar va Renessans davri g‘oyalari. Xristianlik g‘oyalari. Xristianlikning salb yurishlari. Tomazo Kampanella, Tomas Morning “Quyosh shahri” haqidagi utopik g‘oyasi. Marks va Engelsning sotsializm g‘oyasi tanazzuli. Yevropada o‘rta asrlarda umumiy makon, milliy mumtozlik, imperial, kolonial va milliy taraqqiyot yo‘llari to‘g‘risidagi g‘oyalar.

XV-XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar va XVIII va XIX asrlardagi yangi zamon g‘oyalarining shakllanishi. O‘rta Osiyoda XVI-XVIII asrlardagi xonlik va amirliklar davrida g‘oyalar tizimi. XIX asr oxiri va XX asrning 90-yillarida shakllangan g‘oyalar tizimi.

Mafkuraning XIX asr o‘rtalaridan boshlangan takomil bosqichlari. G‘oya va mafkura muammosiga obyektiv, subyektiv, evolutsion va inqilobiy, siyosiy yondoshuvlar. XIX asr oxiri va XX asr mafkurasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari. Deideologiya va reideologiya yo‘nalishlari. XX asrning oxiri - XXI asr boshidagi mafkuraviy jarayonlar.

Sovet davrida kommunistik partiya g‘oyalarining gegemonligi va uning oqibatlari. Sotsializm tuzumining g‘oyaviy inqirozida milliy o‘z-o‘zini anglashning o‘rni. Sho‘rolar davrida mafkuraviy qatag‘onning fojiaviy oqibatlari. Departatsiya (quvg‘in) qilingan xalqlarning ma’naviy-ruhiy holati va ularda milliy o‘zlikni saqlashning tarixiy jihatlari.

Mustaqillik - milliy g‘oya fanining bosh mavzusi. Ma’naviy jasorat- millat g‘oyasi va ruhining ifodasi.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish, klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar A1. A2. A3. A6. A7.A8., D1. D2. D4. D6. D7, Q1. Q2. Q3. Q9. Q11.,E1. E3.E9.

**Milliy g‘oya, ijtimoiy taraqqiyot va mafkuraviy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi.** Ijtimoiy taraqqiyot va tarixiy jarayonlarning milliy g‘oyalar shakllanishi ham da amal qilishiga ta’siri.

Milliy g‘oya xalqning tarixiy taraqqiyoti asosi. Milliy g‘oya o‘z-o‘zini anglashning mahsuli. Milliy g‘oya mohiyatida xalq manfaatining ifodalanishi.

Milliy g‘oya va mafkurani rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, huquqiy omillari. G‘oya va mafkuralarning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli. Ijtimoiy-siyosiy tuzumlar o‘zgarishida g‘oyaviy-mafkuraviy qarashlarning ahamiyati. Mafkuraviy meros va unda vorisiylikning namoyon bo‘lishi.

Tarixiy xotira g‘oya va mafkuraning rivojlanishidagi ijtimoiy ma’naviy omil. Mafkuraviy jarayonlarning ijtimoiy ong shakllaridagi in’ikosi. Individual ongda mafkuraga munosabatning tur li darajalari. Mafkura va g‘oyalarning kundalik voqelik bilan uzviyligi. Axloq va mafkura, din va mafkura, san’at va mafkura mutanosibligi. Ijtimoiy jarayonlarning yo‘nalishlari: iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqa g‘oyalarning o‘zaro munosabati.

Siyosat va mafkuraning o‘zaro aloqadorligi va farqi. Siyosatning mafkuralashish va mafkuraning siyosatlashtirish oqibatlari. Mafkura amal qilishining psixologik va ijtimoiy-siyosiy mexanizmlari. Siyosiy ijtimoiylashuv va siyosiy tarbiya muammosi.

Milliy g‘oyada mentalitetning namoyon bo‘lishi. Mentalitetning fikrlash uslubi va qadriyatlar bilan bog‘liq elementlari. Milliy va umuminsoniy g‘oyalarning individualligi va umumiyligi, integratsiyasi va differensiatsiyasi.

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti jarayonida yangi g‘oyalarning takomillashuv jarayoni, unda avlodlararo vorislik va yangilanishning namoyon bo‘lishi. Yangi g‘oyalar tizimidagi ustuvor tamoyillar, ularni amalga oshirishning dolzarb vazifalari. Istiqlolga asoslangan yangi g‘oyalar tizimini takomillashtirish, uning ma’naviy ta’sirchanligi va mafkuraviy samarasini oshirish usullari va yo‘llari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish, klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar: A1.A2. A3.A4. A6., D1. D2.D5.D6., Q1. Q2. Q3. Q9. Q11.,E1. E3.E4.E9.

**G‘oyaviy tahdidlarning yo‘nalishlari.** XXI asrda mafkuraviy munosabatlar keskinlashuvining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sabablari. Prezident Islom Karimov mafkuraviy tahdidlar, ularning mazmun-mohiyati va asosiy yo‘nalishlari haqida. (O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari asari asosida)

Shovinizm, genotsid, fashizm, neofashizm, neokommunizm, irqchilik, diniy ekstremizm, fundamentalizm, terrorizm g‘oyalarining reaksion mohiyati va ularga qarshi kurashning tarixiy zaruriyati. Terrorizmning shakllari: mintaqaviy va xalqaro terrorizmning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslari.

Mahalliychilik, millatchilik, urug‘ aymog‘chilik, korrupsiyaga qarshi kurash mafkuraviy mustaqillik kafoloti.

Mafkuradagi mutloq jamoaviy va mutloq individual yondashuvlarning salbiy oqibatlari. Yevroosiyo va Sharq mafkurasining xususiyatlari.

Jahon moliyaviy inqirozining mafkuraviy jarayonlarga ta’siri. XX asrda mafkuraviy hamkorlikning ahamiyati, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy asoslari hamda milliy, hududiy va umumbashariy darajalari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish , klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar: A1.A2. A3.A4. A6., D1. D2.D5.D6., Q1. Q2. Q3. Q9. Q11.,E1. E3.E4.E9.

**Mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi.** Mafkuraviy tajovuz va unga qarshi milliy xavfsizlikni ta’minlash zarurati. Jamiyatning mafkuraviy muqobillashish sabablari. Mafkuraviy gegemonizmning vujudga kelishi. Gegemonizmning shakllari. Muqobil mafkuraviy qarashlarning jamiyat rivojlanishiga ta’siri va ularni muvofiqlashtirish imkoniyatlari.

Mafkuraviy tahdidning oshkora va yopiq xarakteri. Axborot xavfsizligi va biologik xavfsizlikning mutanosibligi. Axborot kommunikatsiyalarida mafkuraviy xurujlarning namoyon bo‘lishi va unga qarshi himoya (profilaktika) vositalari. Internet mafkuraviy xuruj obyekti. Virtual mafkuraviy xurujning oqibatlari. Axborot xurujiga qarshi axborot xavfsizligini ta’minlashning zaruriyati va ahamiyati. Mintaqaviy va global axborot xavfsizligi.

Axborot xavfsizligining lokal va global ahamiyati. Axborot xavfsizligining ijtimoiy madaniy meros bilan bog‘liqligi va uning yangi voqelikka mutanosibligi. Geosiyosiy manfaatlar axborot xavfsizligi omili. Biosiyosatda axborot xurujlariga irsiy munosabatning namoyon bo‘lishi.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish , klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar: A1.A2. A3.A4. A6., D1. D2.D5.D6., Q1. Q2. Q3. Q9. Q11.,E1. E3.E4.E9.

**Mafkuraviy faoliyat - milliy g‘oyani amalga oshirish vositasi.** “Mafkuraviy munosabatlar” tushunchasi, uning mazmun -mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlari. Milliy g‘oyaning ijtimoiy subyektlar orasidagi hamkorlik va hamjihatlikni mustahkamlashdagi ahamiyati.

Mafkuraviy faoliyat” tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlari. “Har qanday mafkuraviy faoliyat-muayyan g‘oyani amalga oshirish jarayonidir” tamoyili - ideologik aksioma. Mafkuraviy faoliyat tizimi, uning elementlari. Mafkuraviy faoliyatni tashkil qilishning usullari va yo‘llari. G‘oyadan mafkuraga, undan amaliy faoliyatga tomon borish dialektikasi.

Mafkuraviy faoliyat maqsadli va mo‘ljalli harakat sifatida. Mafkuraviy faoliyatda individualizm va ijtimoiylikning namoyon bo‘lishi. Formalizm, kompaniyabozlik, qog‘ozbozlik kabilarning ma’naviy-mafkuraviy oqibatlari.

Bunyodkor g‘oyalarni amalga oshirishga qaratilgan mafkuraviy faoliyat tamoyillari: yaratuvchanlik, gumanizm, plyuralizm, tolerantlik, ezgulik tomon harakat. Vayronkor g‘oyalar asosidagi buzg‘unchilik, aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmga moyillik kabi mafkuraviy faoliyat tamoyillariga qarshi kurashning zarurligi.

Mafkuraviy faoliyatni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari. Ommaviy axborot vositalari, internet va boshqa axborot vositalarining mafkuraviy faoliyatdagi o‘rni.

Mafkuraviy faoliyatda milliy g‘oyani aholi ongiga singdirish, Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g‘oyalarining namoyon bo‘lishi.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish , klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar: A1.A2. A3. A6., D1. D2.D3.D6.D7., Q1. Q2. Q3.Q7. Q9. Q11.,E1. E3.E5.E9.

**Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shaklantirish vazifalari. Jamiyat barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-g‘oyaviy asoslari**. Hozirgi davrda dunyoning mafkuraviy manzarasi. Mafkuraviy munosabatlarning texnologik va intellektual asoslari.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash usullari va vositalari. Sho‘ro siyosiy mafkurasining rasmiy andozalaridan, uning shiorlari va ramzlaridan voz kechilishining obyektiv sabablari. “Ommaviy madaniyat”ning oqibatlariga nisbatan immunitetni shakllantirishning zaruriyati.

Prezident Islom Karimov “Mafkuraviy maydon” tushunchasining shakllanish va namoyon bo‘lish xususiyatlari to‘g‘risida. Turli ko‘lam va manzaraga ega bo‘lgan mafkuraviy maydonlarda xilma- xil g‘oya va mafkuralar to‘qnashuvi, ziddiyati va o‘zaro hamkorligining aks etishi.

“Mafkuraviy poligon” tushunchasi, uning namoyon bo‘lish xususiyatlari. Mafkuraviy poligonlarning zahirasi, ta’sir ko‘rsatish usullari va vositalari. Mafkuraviy poligonlarning yadro poligonlaridan xavflilik sabablari. Mafkuraviy poligonlarning g‘oyaviy xuruji va ularning asl maqsad-muddaolarini aniqlash usullari.

Mafkuraviy poligon va mafkuraviy profilaktikaning ijtimoiy siyosiy zaruriyati. Mafkuraviy jarayonlarning milliy taraqqiyotga ijobiy va salbiy ta’siri. O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni keskinlashtirishning g‘oyaviy maqsadlari.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari. Bilim xalq ma’naviyatida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning nazariy asosi. Bilimni amaliyotda qo‘llash malakalarini rivojlantirish vositalari. Individual ongda g‘oya va mafkuraga munosabatni shakllantirishda ijtimoiy muhitning roli va uning intellektual asoslari. Mafkuraviy immunitet va siyosiy madaniyat mutanosibligi. Mafkuraviy

immunitetda aql teranligi va xulq atvorning namoyon boʻlishi.

Mamlakatdagiiqtisodiy barqarorlikning mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi oʻrni. Siyosiy hushyorlik va siyosiy madaniyat mafkuraviy immunitetning muhim omili. Tashqi siyosiy voqelikka nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishning oʻziga xos jihatlari. Oʻzbekiston xalqaro mavqeini mustahkamlashning mafkuraviy, ijtimoiy tarixiy ahamiyati va zaruriyati

Oʻzbekistonda rasmiy tan olingan diniy konfessiyalar faoliyatining millatlararo totuvlikni ta’minlashdagi roli. 2007-yilda "Toshkent -islom madaniyati poytaxti" deb e’lon qilinishining tarixiy ahamiyati.

Oʻzbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi va siyosiy mavqei mustahkamlanishida millatlararo va dinlararo tolerantlikni mustahkamlash tajribalarining demokratik xarakteri va xalqaro ahamiyati.

Dunyo mamlakatlarida yashovchi etnik birliklarning milliy oʻzligini anglashi uchun yaratilayotgan shart sharoitlarning mafkuraviy ahamiyati. Ba’zi mamlakatlarda millat va elatlar kamsitilishining oqibatlari.

Ayrim MDH davlatlarida siyosiy institutlar va liderlarga xalq ishonchi yoʻqolishining sabablari. Dunyo mamlakatalaridagi beqarorlik sabablari. Beqarorlik hukmron mamlakatlarda qochoqlarning ahvoli.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish , klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar A1. A3. A6., D1. D2.D6., Q1. Q2. Q3. Q9. Q11., E3.E9.

**Tafakkur oʻzgarishi va ma’naviy yangilanishda milliy gʻoyaning roli.** Bozor munosabatlariga oʻtishning inson tafakkuriga ta’siri. Tafakkurga jamiyat, maktab, oila va tarbiyani amalga oshiruvchi boshqa omillar ta’sirining oʻzaro nisbati. Milliy gʻoyaning tafakkur konservatizmini bartaraf qilishdagi oʻrni.

Taraqqiyotning milliy modellari va ularning mazmuni. "Oʻzbek modeli"- evolutsion taraqqiyot gʻoyasining gumanistik xarakteri. Ijtimoiy ong va tafakkur yangilanishiga milliy taraqqiyot modelining ijobiy ta’siri.

Milliy gʻoya qonun ustivorligiga asoslangan demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy omili. Davlat boshqaruvini demokratlashtirish va jamiyat hayotini modernizatsiyalashning gʻoyaviy asoslari. "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili, uning barcha sohalardagi ma’naviy yangilanish va tafakkur oʻzgarishidagi oʻrni va ahamiyati.

Milliy oʻzlikni anglash va ma’naviy yuksalishning strategik va taktik vazifalari. Prezident Islom Karimov asarlari - milliy ma’naviy taraqqiyot gʻoyasining konseptual asosi va ularning ahamiyati. Mafkuraviy munosabatlarda milliy va umuminsoniy manfaatlar birligini ta’minlash imkoniyatlari.

Prezident Islom Karimovning "Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobining tafakkur yangilanishiga ta’siri. Milliy gʻoya-ma’naviy yangilanishning nazariy va amaliy asosi. Barkamol avlod tarbiyasida mafkuraning ta’sirchanlik rolini oshirish vazifalari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish , klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar: A1, A3, Q1, Q2, Q6, Q7, Q9.

**Milliy g‘oyani rivojlantirishning institutsional tizimi.** Dunyoning elitar mafkuraviy tizimi. G‘oyaviy ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlariga kompleks-sistemali yondashish tamoyillari.

“Mafkuraviy tarbiya” tushunchasi, uning mazmuni va namoyon bo‘lish xususiyatlari. “Mafkuraviy ta’sir”, “mafkuraviy tarbiya” va “mafkuraviy profilaktika” tushunchalarining o‘zaro aloqadorligi. “Yuksak ma’naviyat -engilmas kuch” asarida ma’naviy tarbiya, ezgu g‘oyalarga ishonch va sadoqatni tarbiyalash masalalari. Mafkuraviy tarbiya tizimi, uning subyekti va obyekti.

Mafkuraviy tarbiyaning yo‘nalishlari va ijtimoiy funksiyalari. G‘oya va mafkuralar sohasidagi plyuralizm va tolerantlikni tarbiyalash. Ijtimoiy subyektlar, turli qatlamlar, partiyalararo munosabatlar uyg‘unligini saqlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati.

Ta’lim-tarbiya tizimida milliy g‘oyani rivojlantirish imkoniyatlari. Milliy g‘oyani inson ongi va qalbiga singdirishning yangi pedagogik-didaktik texnologiyasini takomillashtirish vazifalari. Ta’lim-tarbiya tizimida adabiyot, san’at, ommaviy axborot vositalari, ma’naviy-madaniy va ma’rifiy muassasalar faoliyatlarini muvofiqlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.

Ijtimoiy institutlarning an’anaviy, individual, jamoaviy mafkuraviy funksiyalari. Milliy g‘oyani rivojlantirishda ommaviy va siyosiy tashkilotlar, oila, mahalla, nodavlat-notijorat tashkilotlarning rolini oshirishning ahamiyati.

G‘oya haqidagi tasavvurlarning intellektual faollik darajalari, unda siyosiy voqelikning mantiqiy izchil va asosli manzarasini yaratish mo‘ljallari. Siyosiy xayol, siyosiy tasavvurlarni qayta ishlash va ijodiy o‘zgartirish yo‘llari.

Milliy g‘oya va mafkurani targ‘ib-tashviq qilishda mutaxassislar roli va mas’uliyati. Milliy g‘oyani ommaga transformatsiya qilishda kadrlar korpusini shakllantirishning zaruriyati.

Kadrlarning salohiyatini oshirishda "O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” da belgilangan vazifalarni amaliyotga tadbiq etishning ahamiyati.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish***,** *klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar: A1.A2. A3. A6., D1. D2.D3.D5.D6.D7., Q1. Q2. Q3.Q7. Q9. Q11.,E1. E3.E5.E9

**"Milliy g'oya asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi.**

| № | Ma'ruza mavzulari | soat |
|---|---|---|
| | **I bo`lim. "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari** | |
| 1.1 | "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari | 2 |
| | **II bo`lim. "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari** | |
| 2.1 | "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari | 2 |
| | **III bo`lim. Milliy g'oya, ijtimoiy taraqqiyot va mafkuraviy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi** | |
| 3.1 | Milliy g'oya, ijtimoiy taraqqiyot va mafkuraviy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi | 2 |
| | **IV bo`lim. G'oyaviy tahdidlarning yo'nalishlari** | |
| 4.1 | G'oyaviy tahdidlarning yo'nalishlari | 2 |
| | **V bo`lim. Mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi** | |
| 5.1 | Mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi | 2 |
| | **VI bo`lim. Mafkuraviy faoliyat - milliy g'oyani amalga oshirish vositasi.** | |
| 6.1 | Mafkuraviy faoliyat - milliy g'oyani amalga oshirish vositasi | 2 |
| | **VII bo`lim. Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shaklantirish vazifalari. Jamiyat barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-g'oyaviy asoslari** | |
| 7.1 | Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shaklantirish vazifalari. Jamiyat barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-g'oyaviy asoslari | 2 |
| | **VIII bo`lim. Tafakkur o'zgarishi va ma'naviy yangilanishda milliy g'oyaning roli.** | |
| 8.1 | Tafakkur o'zgarishi va ma'naviy yangilanishda milliy g'oyaning roli. | 1 |
| | **IX bo`lim. Milliy g'oyani rivojlantirishning institutsional tizimi.** | |
| 9.1 | Milliy g'oyani rivojlantirishning institutsional tizimi. | 1 |
| | **Jami:** | **16** |

## Seminar mashg`ulotlari mavzulari

**"Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.** "Milliy g'oya asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining predmeti: g'oya insoniyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi omili, hayotiy maqsadlar ifodasi. Bunyodkor va vayronkor, dunyoviy va diniy g'oyalar, ularning mazmuni. G'oyada ehtiyojlar va manfaatlar mutanosibligi. G'oya va mafkuralar

muqobilligining yo‘nalishlari.

Milliy g‘oya tushunchasi, uning tuzilishi va namoyon bo‘lish xususiyatlari. Prezident Islom Karimov asarlari-milliy g‘oya va mafkuraning ilmiy-uslubiy asosi. O‘zbekistonda yashayotgan turli millat va etnik birliklarni yagona g‘oya atrofida birlashtirishning tarixiy zaruriyati. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish” -milliy mafkuraning bosh g‘oyasi.

Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta’sirida g‘oyalarning differensiallashuvi. Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanish jarayoniga mafkuraviy ta’sir.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish , klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar A1. A3. A6., D1. D2.D6., Q1. Q2. Q3. Q9. Q11., E3.E9.

**“Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari.** Insoniyat tarixida g‘oya va mafkuralar namoyon bo‘lishining asosiy bosqichlari. Prezident Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch” kitobida g‘oyalar tarixi va falsafasi, milliy g‘oyaning mazmun-mohiyati, shakllanishi va namoyon bo‘lishi haqida.

Mifologiya, teologiya va xalq ma’naviy-madaniy qadriyatlarida milliy g‘oya va mafkuraning ifodalanishi. “Avesto” va Zardushtiylikda g‘oyalar takomili.

G‘arb mamlakatlarida ilk g‘oyaviy qarashlar va ularning takomil bosqichlari. Sharq va Markaziy Osiyoda g‘oyalarning namoyon bo‘lishi, ularning gumanistik mohiyati. G‘arb mamlakatlarida g‘oyaviy qarashlarning takomil bosqichlari.

XV-XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar va XVIII va XIX asrlardagi yangi zamon g‘oyalarining shakllanishi. O‘rta Osiyoda XVI-XVIII asrlardagi xonlik va amirliklar davrida g‘oyalar tizimi. XIX asr oxiri va XX asrning 90-yillarida shakllangan g‘oyalar tizimi.

XIX asr oxiri va XX asr mafkurasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari. Deideologiya va reideologiya yo‘nalishlari. XX asrning oxiri - XXI asr boshidagi mafkuraviy jarayonlar. Sovet davrida kommunistik partiya g‘oyalarining gegemonligi va uning oqibatlari.

Mustaqillik - milliy g‘oya fanining bosh mavzusi. Ma’naviy jasorat- millat g‘oyasi va ruhining ifodasi.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish , klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar A1. A2. A3. A6. A7.A8., D1. D2. D4. D6. D7, Q1. Q2. Q3. Q9. Q11.,E1. E3.E9.

**Milliy g‘oya, ijtimoiy taraqqiyot va mafkuraviy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi.** Ijtimoiy taraqqiyot va tarixiy jarayonlarning milliy g‘oyalar shakllanishi ham da amal qilishiga ta’siri.

Milliy g‘oya xalqning tarixiy taraqqiyoti asosi. Milliy g‘oya va mafkurani rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, huquqiy omillari. G‘oya va mafkuralarning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli. Ijtimoiy-siyosiy tuzumlar o‘zgarishida g‘oyaviy-mafkuraviy qarashlarning ahamiyati. Tarixiy xotira g‘oya va mafkuraning rivojlanishidagi ijtimoiy ma’naviy omil

Siyosat va mafkuraning o‘zaro aloqadorligi va farqi. Milliy g‘oyada mentalitetning namoyon bo‘lishi. Mentalitetning fikrlash uslubi va qadriyatlar bilan bog‘liq elementlari. O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti jarayonida yangi g‘oyalarning takomillashuv jarayoni, unda avlodlararo vorislik va yangilanishning namoyon bo‘lishi.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish , klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar: A1.A2. A3.A4. A6., D1. D2.D5.D6., Q1. Q2. Q3. Q9. Q11.,E1. E3.E4.E9.

**G‘oyaviy tahdidlarning yo‘nalishlari.** XXI asrda mafkuraviy munosabatlar keskinlashuvining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sabablari. Prezident Islom Karimov mafkuraviy tahdidlar, ularning mazmun-mohiyati va asosiy yo‘nalishlari haqida. (O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari asari asosida)

Shovinizm, genotsid, fashizm, neofashizm, neokommunizm, irqchilik, diniy ekstremizm, fundamentalizm, terrorizm g‘oyalarining reaksion mohiyati va ularga qarshi kurashning tarixiy zaruriyati. Mahalliychilik, millatchilik, urug‘ aymog‘chilik, korrupsiyaga qarshi kurash mafkuraviy mustaqillik kafoloti.

Mafkuradagi mutloq jamoaviy va mutloq individual yondashuvlarning salbiy oqibatlari. Jahon moliyaviy inqirozining mafkuraviy jarayonlarga ta’siri.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish , klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar: A1.A2. A3.A4. A6., D1. D2.D5.D6., Q1. Q2. Q3. Q9. Q11.,E1. E3.E4.E9.

**Mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi.** Mafkuraviy tajovuz va unga qarshi milliy xavfsizlikni ta’minlash zarurati. Mafkuraviy tahdidning oshkora va yopiq xarakteri. Axborot xavfsizligi va biologik xavfsizlikning mutanosibligi. Axborot kommunikatsiyalarida mafkuraviy xurujlarning namoyon bo‘lishi va unga qarshi himoya (profilaktika) vositalari. Internet mafkuraviy xuruj obyekti. Virtual mafkuraviy xurujning oqibatlari.

Axborot xavfsizligining lokal va global ahamiyati. Geosiyosiy manfaatlar axborot xavfsizligi omili. Biosiyosatda axborot xurujlariga irsiy munosabatning namoyon bo‘lishi.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish , klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar: A1.A2. A3.A4. A6., D1. D2.D5.D6., Q1. Q2. Q3. Q9. Q11.,E1. E3.E4.E9.

**Mafkuraviy faoliyat - milliy g‘oyani amalga oshirish vositasi.** “Mafkuraviy munosabatlar” tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlari. Mafkuraviy faoliyat” tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlari. “Har qanday mafkuraviy faoliyat-muayyan g‘oyani amalga oshirish jarayonidir” tamoyili - ideologik aksioma. Formalizm, kompaniyabozlik, qog‘ozbozlik kabilarning ma’naviy-mafkuraviy oqibatlari.

Bunyodkor g‘oyalarni amalga oshirishga qaratilgan mafkuraviy faoliyat tamoyillari. Vayronkor g‘oyalar asosidagi buzg‘unchilik, aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmga moyillik kabi mafkuraviy faoliyat tamoyillariga qarshi kurashning zarurligi. Mafkuraviy faoliyatni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari.

Mafkuraviy faoliyatda milliy g‘oyani aholi ongiga singdirish, Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g‘oyalarining namoyon bo‘lishi.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish , klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar: A1.A2. A3. A6., D1. D2.D3.D6.D7., Q1. Q2. Q3.Q7. Q9. Q11.,E1. E3.E5.E9.

**Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shaklantirish vazifalari. Jamiyat barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-g‘oyaviy asoslari**. Hozirgi davrda dunyoning mafkuraviy manzarasi. Mafkuraviy munosabatlarning texnologik va intellektual asoslari. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash usullari va vositalari. Prezident Islom Karimov “Mafkuraviy maydon” tushunchasining shakllanish va namoyon bo‘lish xususiyatlari to‘g‘risida.

“Mafkuraviy poligon” tushunchasi, uning namoyon bo‘lish xususiyatlari. Mafkuraviy poligon va mafkuraviy profilaktikaning ijtimoiy siyosiy zaruriyati. Mafkuraviy jarayonlarning milliy taraqqiyotga ijobiy va salbiy ta’siri.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari. Mafkuraviy immunitetda aql teranligi va xulq atvorning namoyon bo‘lishi.

O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi va siyosiy mavqei mustahkamlanishida millatlararo va dinlararo tolerantlikni mustahkamlash tajribalarining demokratik xarakteri va xalqaro ahamiyati.

Ayrim MDH davlatlarida siyosiy institutlar va liderlarga xalq ishonchi yo‘qolishining sabablari. Dunyo mamlakatalaridagi beqarorlik sabablari. Beqarorlik hukmron mamlakatlarda qochoqlarning ahvoli.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish , klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar A1. A3. A6., D1. D2.D6., Q1. Q2. Q3. Q9. Q11., E3.E9.

**Tafakkur o‘zgarishi va ma’naviy yangilanishda milliy g‘oyaning roli.** Bozor munosabatlariga o‘tishning inson tafakkuriga ta’siri. Taraqqiyotning milliy modellari va ularning mazmuni. “O‘zbek modeli”-evolutsion taraqqiyot g‘oyasining gumanistik xarakteri. Milliy g‘oya qonun ustivorligiga asoslangan demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy omili. Davlat boshqaruvini demokratlashtirish va jamiyat hayotini modernizatsiyalashning g‘oyaviy asoslari.

Milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy yuksalishning strategik va taktik vazifalari. Prezident Islom Karimov asarlari - milliy ma’naviy taraqqiyot g‘oyasining konseptual asosi va ularning ahamiyati.

Prezident Islom Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobining tafakkur yangilanishiga ta’siri. Milliy g‘oya-ma’naviy yangilanishning nazariy va amaliy asosi. Barkamol avlod tarbiyasida mafkuraning ta’sirchanlik rolini oshirish vazifalari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish , klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar: A1, A3, Q1, Q2, Q6, Q7, Q9.

**Milliy g‘oyani rivojlantirishning institutsional tizimi.** Dunyoning elitar mafkuraviy tizimi. G‘oyaviy ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlariga kompleks-sistemali yondashish tamoyillari.

Kadrlarning salohiyatini oshirishda "O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” da belgilangan vazifalarni amaliyotga tadbiq etishning ahamiyati.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Aqliy hujum, venn diagrammasi, erkin yozish, klaster, bir-biridan so’rash*

Adabiyotlar: A1.A2. A3. A6., D1. D2.D3.D5.D6.D7., Q1. Q2. Q3.Q7. Q9. Q11.,E1. E3.E5.E9

**“Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo’yicha seminar mashg’ulotlarining kalendar tematik rejasi.**

| № | Seminar mashg’ulotlari mavzulari | soat |
|---|---|---|
| | **I bo`lim. “Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari** | |
| 1.1 | “Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari | 2 |
| | **II bo`lim. “Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari** | |
| 2.1 | “Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari | 2 |
| | **III bo`lim. Milliy g‘oya, ijtimoiy taraqqiyot va mafkuraviy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi** | |
| 3.1 | Milliy g‘oya, ijtimoiy taraqqiyot va mafkuraviy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi | 2 |
| | **IV bo`lim. G‘oyaviy tahdidlarning yo‘nalishlari** | |
| 4.1 | G‘oyaviy tahdidlarning yo‘nalishlari | 2 |
| | **V bo`lim. Mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi** | |
| 5.1 | Mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| | **VI bo`lim. Mafkuraviy faoliyat - milliy g‘oyani amalga oshirish vositasi.** | |
| 6.1 | Mafkuraviy faoliyat - milliy g‘oyani amalga oshirish vositasi | 2 |
| | **VII bo`lim. Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shaklantirish vazifalari. Jamiyat barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-g‘oyaviy asoslari** | |
| 7.1 | Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shaklantirish vazifalari. Jamiyat barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-g‘oyaviy asoslari | 2 |
| | **VIII bo`lim. Tafakkur o‘zgarishi va ma’naviy yangilanishda milliy g‘oyaning roli.** | |
| 8.1 | Tafakkur o‘zgarishi va ma’naviy yangilanishda milliy g‘oyaning roli. | 2 |
| | **IX bo`lim. Milliy g‘oyani rivojlantirishning institutsional tizimi.** | |
| 9.1 | Milliy g‘oyani rivojlantirishning institutsional tizimi. | 2 |
| | **Jami:** | **18** |

## “Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” fanidan mustaqil ta’limini tashkil etishning shakli va mazmuni

“Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” bo‘yicha talabaning mustaqil ta’limi shu fanni o‘rganish jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to‘la ta’minlangan.

Talabalar auditoriya mashg‘ulotlarida professor-o‘qituvchilarning ma’ruzasini tinglaydilar, mavzu buyicha kerakli ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uyga vazifa sifatida berilgan mavzu bo‘yicha konspekt tayyorlaydilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o‘rganish maqsadida qo‘shimcha adabiyotlarni o‘qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo‘yicha testlar yechadi. Mustaqil ta’lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uy vazifalarini bajarish, qo‘shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o‘rganish, kerakli ma’lumotlarni izlash va ularni topish yo‘llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma’lumotlar to‘plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to‘garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta’limsiz o‘quv faoliyati samarali bo‘lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma’ruza darslarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 9 ta katta mavzu ko‘rinishida shakllantirilgan.

## Talabalar mustaqil ta’limining mazmuni va hajmi

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | Berilgan topshiriqlar | Bajar. Muddat. | Hajmi (soatda) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | **“Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari** | **Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Ijodiy izlanish.** | **2- hafta** | **2** |
| 2 | **“Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari** | **Adabiyotlardan konspekt qilish. Prezident asarlarini mustaqil o‘qish.** | **3-hafta** | **2** |
| 3 | **Milliy g‘oya, ijtimoiy taraqqiyot va mafkuraviy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi** | **Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.** | **4-5-haftalar** | **4** |
| 4 | **G‘oyaviy tahdidlarning yo‘nalishlari** | **Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Internet manbalari bilan ishlash** | **6-hafta** | **2** |
| 5 | **Mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi** | **Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Test mashg‘ulotlari o‘tkazish** | **7-hafta** | **2** |
| 6 | **Mafkuraviy faoliyat - milliy g‘oyani amalga oshirish vositasi** | **Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.** | **8-hafta** | **2** |
| 7 | **Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shaklantirish vazifalari. Jamiyat barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-g‘oyaviy asoslari** | **Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat va internet materillari asosida ishlash** | **9-10-haftalar** | **4** |
| 8 | **Tafakkur o‘zgarishi va ma’naviy yangilanishda milliy g‘oyaning roli** | **Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.** | **11-12-haftalar** | **4** |
| 9 | **Milliy g‘oyani rivojlantirishning institutsional tizimi** | **Adabiyotlardan konspekt qilish. Prezident asarlarini mustaqil o‘qish.** | **13-14-haftalar** | **4** |
| | **Jami** | | | **26** |

## Fanning o'quv yuklamasi

| № | Mashg`ulot turi | Ajratilgan soat | |
|---|---|---|---|
| | | 7- semestr | Jami |
| 1 | Ma'ruza | 16 | 16 |
| 2 | Amaliyot | - | - |
| 3 | Laboratoriya | - | - |
| 4 | Seminar | 18 | 18 |
| 5 | Mustaqil ta`lim | 26 | 26 |
| | Jami: | 60 | 60 |

<table>
<tr><th rowspan="4">Umumiy soat</th><th rowspan="4">ma'ruza</th><th rowspan="4">seminar</th><th rowspan="4">Mustaqil ta`lim</th><th colspan="12">70 ball</th><th>30 bal</th></tr>
<tr><th colspan="6">Joriy baholash</th><th colspan="6">Oraliq baholash</th><th>Ya.b.</th></tr>
<tr><th colspan="3">Seminar</th><th colspan="3">Mustaqil ta`lim</th><th colspan="3">Ma'ruza</th><th colspan="3">Mustaqil ta`lim</th><th rowspan="2">Turi</th></tr>
<tr><th>Soni</th><th>Ball</th><th>Jami</th><th>Soni</th><th>Ball</th><th>Jami</th><th>Soni</th><th>Ball</th><th>Jami</th><th>Soni</th><th>Ball</th><th>Jami</th></tr>
<tr><td>60</td><td>16</td><td>18</td><td>26</td><td>1</td><td>25</td><td>25</td><td>1</td><td>10</td><td>10</td><td>1</td><td>25</td><td>25</td><td>1</td><td>10</td><td>10</td><td>yozma ish</td></tr>
</table>

## NAZORAT TURLARINI O`TKAZISH TARTIBI

**1. Joriy nazoratni o`tkazish tartibi**:

Ushbu nazorat turi auditoriyada akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida quyidagi shakllarda o`tkaziladi:

- uy vazifalarini tekshirish;
- amaliy mashg`ulotlarni tekshirish;
- test sinovlari o`tkazish;
- nazorat ishlarini o`tkazish;
- og`zaki so`rov;

**2. Oraliq nazoratni o`tkazish tartibi:**

Ushbu nazorat turi auditoriyada  potok yoki akademik guruhdagi barcha talabalar ishtirokida quyidagi shakllarda o`tkaziladi:

- kollokvium;
- og`zaki so`rov;
- test sinovlari o`tkazish;
- yozma ish.

**3. Yakuniy nazoratni o`tkazish tartibi:**

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida “Yozma ish”  tartibida o`tkaziladi. Jami variantlar soni 50 ta. Har bir variant 3 ta savoldan iborat.

## “Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni

“Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

**joriy nazorat (JN)** – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat 1 marta o’tkaziladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;

**oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat shakli (yozma, og‘zaki, kollokvium, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilandi;

**yakuniy nazorat (YaN)** – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o‘tkaziladi.

**ON** o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o‘tkaziladi.

Universitet rektorining  buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o‘tkaziladi.

43. 42. Jamiyat mafkuraviy immunitetini kuchaytirishning samarali usul va usullari.
44. 43. Ma’naviyatni qudratli kuchga aylantirish vositalari.
45. 44. Inson qalbiga yo‘l ta’lim – tarbiyadan boshlanadi.
46. 45. Mamlakatimizda ma’naviy tiklanish va yangilanish jarayonlarida adabiyot hamda san’atning o‘rni.
47. 46. Eng buyuk jasorat – bu ma’naviy jasorat. Ma’naviy jasorat qahramonlikdir.
48. 47. «Millatlararo totuvlik tushunchasining ma`no mazmuni»
49. 48. Diniy bag`rikenglik tushunchasining ma`no mazmuni
50. 49. Yoshlar qatlamining milliy g`oya va qadriyatlarga munosabati
51. 50. Yoshlarning o`zligini anglashi va yod g`oyolarga munosabati
52.

# “MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANIDAN

# ADABIYOTLAR RO‘YXATI

**Foydalaniladigan asosiy adabiyotlar va o’quv qo’llanmalar ro’yxati**

**Asosiy adabiyotlar**


1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон, 2011.
2. Давлат тили ҳақида (янги таҳрири). Ўзбекистон Республикасининг Қонуни Т.: Ўзбекистон, 1997. - 22 б.
3. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. - Т.: Шарқ, 1997. - 63 б.
4. Таълим тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. - Т.: Ўзбекистон, 1989. – 30 б.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - 364 б.
6. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - 380 б.
7. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - 366 б.
8. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4- жилд.-Т. :Ўзбекистон, 1996.-349 б.
9. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. 5-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1997. -384 б.
10. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Тошкент : Шарқ, 1998. - 31 б.

11. Каримов И.А Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. 6-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1998. - 429 б.
12. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1999. - 410 б.
13. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. 8-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2000. - 528 б.
14. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. 9-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2001. - 432 б.
15. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашамиз. 10-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2002. - 432 б.
16. Каримов И.А. Биз танлаган йўл демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11- жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2003. - 320 б.
17. Каримов И.А. Тинчлик ва ҳавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. 12 - жилд. Т.: "Ўзбекистон" 2004.- 400 б.
18. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч кимга, ҳеч қачон қарам бўлмайди. 13-жилд. Т.: Ўзбекистон, 2005.-448 б.
19. Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва ҳалқимиз ҳаёт даражасини ошириш - барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. 15-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2007.-318 б.
20. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. 16-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2008.-366 б.
21. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш - бизнинг олий мақсадимиз. 17-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2009.-280 б.
22. Каримов И.А. Жахон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари . 18 -жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2010. -280 б.
23. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008. - 176 б.
24. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2009. - 56 б.
25. Каримов И.А. Энг асосий мезон - ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. - Т.: Ўзбекистон, 2009. - Б.24.
26. Каримов И.А. Асосий вазифамиз - Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтириш. -Т.: Ўзбекистон, 2010
27. Каримов И.А. Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон. -Тошкент: Ўзбекистон, 2010.
28. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010.

29. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. - Т.: Ўзбекистон, 2011. -370 б.

## Darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1.Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. -Т.:Ўзбекистон, 2000.
2.Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. (ўқув қўлланма). Назаров Қ тарҳирири остида. Т.: Янги аср авлоди, 2002
3.Миллий истиқлол ғояси (Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик). Эршашев И таҳрири остида. -Т.: Академия, 2005.
4.Мамашокиров С, Тоғаев Ш. Эркин ва фаровон ҳаёт қурилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. -Т.: Маънавият, 2007.
5.Миллий истиқлол ғояси: назария ва амалиёт. -Т.: Ижод дунёси, 2002.
6.Назаров Қ. Миллий истиқлол ғоясининг асосий мақсад ва вазифалари. - Т.: Янги аср авлоди, 2001.
7.Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси .- Т.: Академия, 2011.
8.Тўраев Ш. Демократик жараёнлар ва миллий ғоя. -Т.: Маънавият, 2008.
9.Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. - Т.: Ўзбекистон, 2004.

## Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Назаров Қ. таҳрири остида. -Т.: Маънавият, 2009.
2. Абилов Ў. Миллий ғоя: маънавий омиллар. Т.: Маънавият, 1999.
3. Бегматов А. Маънавият фалсафаси ёхуд Ислом Каримов асарларида янги фалсафий тизимнинг яратилиши. -Т.: 2000 йил.
4. Гафарли М.М. Касаев А.Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик - тараққиёт омили. -Т.: Ўзбекистон, 2000.
5. Исломов З.М. Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага. -Т.: 2002.
6. Мамашокиров С. ва бошқалар. Ўзбекистонда янги жамият қурилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. (Ўқув-услубий қўлланма). -Т.: 2004.
7. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. Назаров Қ таҳрири остида. -Т.: Академия нашриёти. 2007.
8. Миллий истиқлол ғоясини халқимиз онгига сингдириш омиллари ва воситалари. -Т.: 2002.
9. Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдизлари. -Т.: 2002.
10. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. (Қисқа изоҳли тажрибавий луғат) -Т.: Янги аср авлоди, 2002.
11. Мустақиллик мафкураси ва Ўзбекистонда демократик жамият қуришнинг

иқтисодий, ижтимоий ва маънавий негизлари. -Т.: Университет, 2001.
12. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. Хоназаров Қ таҳрири остида. -Т.: Шарқ, 2000.
13. Мусаев Ф. Демократик жамият қуришнинг фалсафий асослари.-Т.: 2008.
14. Ортиқов М., Усмонов М. Ғоя ва мафкура. -Т.:Янги аср авлоди, 2001.
15. Отамуродов С, Мамашокиров С. Марказий Осиёда мафкуравий жараёнлар.-Т.: 2001.
16. Отамурадов С. Глобаллашув ва миллат. -Т.: 2008.
17. Туйчиев Б. Политическая культура и демократизации обшества. -Т.:НУУз, 2010.
18. Фалсафа: қомусий луғат. Назаров Қ таҳрири остида. -Т.: Шарқ, 2004.
19. Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавият. -Т. Маънавият, 2002.
20. Қаҳҳорова Ш. Глобал маънавият - глобаллашувнинг ғоявий асоси. -Т.:Тафаккур, 2009.
21. Қуронов М. Мафкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. -Т.: Академия, 2008.

**Elektron ta'lim resurslari**

1. “Халқ сўзи” газетаси –www info XS. Uz.
2. “Туркистон” газетаси - www turk iston sarkor. uz.
3. “Маърифат” журнали - www ma’rifat - inform.
4. “Жамият ва бошқарув” журнали - www rzult academy fre enet uz .
5. “Мозийдан садо” журнали - www moziy dostlink. Net
6. www. Ziyo net.uz.

# “MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANIDAN

# TAYANCH KONSPEKT

## “MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANIDAN TAYANCH KONSPEKT

1.
2. Aholining turli qatlamlarini g‘oyaviy qurollantirish omillari. **Tayanch iboralar:** mehnat jamoasi, korxona, davlat, nodavlat tashkilotlar, rahbar, siyosiy partiyalar.
3.
4. Aqida va aqidaparastlik mafkurasi. **Tayanch iboralar:** dinni o‘zgarishsiz, aslidagidek saqlash, zo‘ravonlik, yovuzlik, hokimiyat, dogmatizm, cheklanganlik.
5.
6. Aqidaparastlarning ma’naviyatga qarshi kurash olib borishlarining tub sabablari. **Tayanch iboralar:** ma’naviy qashshoq, bilimsiz, nodon, sotsial tayanch, manfaat, cheklanganlik.
7.
8. Aqidaparastlikning keng tarqalgan ko‘rinishlari. **Tayanch iboralar:** fashizm, kommunizm, diniy fundamentalizm, ekstremizm.
9.
10. «Bo‘lib tashla va hukumronlik qil» tamoyilini amalga oshirish uchun urinishlar. **Tayanch iboralar:** ijtimoiy parokandalik, ziddiyatlarni yuzaga keltirish, noto‘g‘ri tasavvurni xosil qilish, g‘arazli maqsadlar.
11.
12. Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz. **Tayanch iboralar:** jamiyat, davlat, tuzum, demokratiya, huquq, bozor iqtisodiyoti, fuqarolik jamiyati.

13.
14. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat qurishning siyosiy sohasidagi asosiy vazifalari. **Tayanch iboralar:** demokratiyalash, samarali davlat tizimi, fuqarolik jamiyati, saylovlar, ikki palatali parlament.
15.
16. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat qurishning ijtimoiy sohadagi vazifalari. **Tayanch iboralar:** kuchli ijtimoiy siyosat, islohotlarni chuqurlashtirish, himoyalash, ilm-fan, ta’lim, sog‘lom avlod.
17.
18. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat qurishning iqtisodiy sohadagi vazifalari. **Tayanch iboralar:** erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, sub’ektlarning mustaqilligi, to‘siqlarni olib tashlash, munosib hayot, turmush.
19.
20. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat qurishning ma’naviy sohasidagi vazifalari. **Tayanch iboralar:** ma’naviy qadriyat, fan-texnika, ong, milliy mustaqillik, soxtalashtirishga yo‘l qo‘ymaslik, barkamol avlod.
21.
22. Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish iqtisodiyotning muhim shartidir. **Tayanch iboralar:** xususiy sektor, kichik va o‘rta biznes, tadbirkorlik, investitsion muhit, investor.
23.
24. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. **Tayanch iboralar:** ikki qutbli dunyo, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, g‘oyaviy qarama-qarshilik, globallashuv, gegemonlik.
25.
26. Bugungi kunda milliy mafkurani hayotiy ehtiyoj darajasiga ko‘tarishga undayotgan omillar. (I.A.Karimovning «Fidokor» gazetasi muhbiri savollariga javoblari asosida). **Tayanch iboralar:** yot g‘oyalar, g‘arazli kuchlar, mafkuraviy boylik, mafkuraviy immunitet, tarbiya.
27.
28. Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilikning hozirgi ko‘rinishlari. **Tayanch iboralar:** mumtozlik, mensimaslik, aql o‘rgatish, orqaga qaytarish, gegemonlik.
29.
30. «Vatan tuyg‘usi» tushunchasi. **Tayanch iboralar:** - yuksak e’tiqod, sadoqat, tarixni o‘rganish, hurmat, fidoyilik.
31.
32. Vayronkor g‘oya va mafkuralar, ularning mohiyati va xususiyatlari. **Tayanch iboralar:** tanazzul, vayronlik, inqiroz, parokandalik, ekstrelizm, terrorizm.
33.
34. Vayronkor g‘oya va mafkuralarning namoyon bo‘lish shakllari. **Tayanch iboralar:** buyuk davlatchilik, millatchilik, irqchilik, terrorchilik, shovinizm, bolshevizm, fashizm.
35.
36. Vatan ravnaqi g‘oyasi, uning mohiyati va mazmuni. **Tayanch iboralar:** muqaddas makon, vatanparvarlik, Vatan ravnaqi, ilm-fan, madaniyat, san’at.
37.
38. Geosiyosiy maqsadlar va mafkuraviy siyosat. **Tayanch iboralar:** mavqeni kuchaytirish, inson ongi uchun kurash, mafkuraviy ta’sir, gegemonlik, iqtisodiy manfaat.
39.

40. Globallashuvning salbiy oqibatlari va ularga qarshi kurash masalalari. **Tayanch iboralar:** qurollanish, ongni zaharlash, ta’sir o‘tkazish, mafkuraviy jarayonlarni teran anglash, shovinizm, gegemonlik, qashshoqlik.
41.
42. «Dunyoviylik» degan tushuncha nimani ifoda etadi. **Tayanch iboralar:** xurfikrlik, ilm-fan, xudosizlikka asoslanmagani, xilma-xil tarixiy qadriyatlar, umummilliy taraqqiyot.
43.
44. Diniy bag‘rikenglik g‘oyasi. **Tayanch iboralar:** xamkor, hamjihat yashash, ezgulik, xalollik, poklik, diniy konfessiya, vijdon erkinligi.
45.
46. Diniy ekstremizmni mafkuraviy qurolsizlantirish usullari va yo‘llari. **Tayanch iboralar:** milliy o‘zlikni anglash, dinning madaniy qadriyatlari, ta’lim, tashviqot, tartibot, hayot darajasi.
47. Diniy-mifologik tipdagi mafkuralar va ularning asosiy belgilari. **Tayanch iboralar:** totemizm, animizm, fetishizm, bolshevizm, marksizm-leninizm.
48.
49. Dunyoviy va diniy g‘oyalar mushtarakligi va ularning farqi. **Tayanch iboralar:** dunyoviy jamiyat, hamjixatlik, barqarorlik, bag‘rikenglik, ilf-fan, din.
50.
51. Dunyoni bo‘lib olishga urinayotgan mafkuralarga asos bo‘layotgan omillar. **Tayanch iboralar:** buyuk davlatchilik, etnik birlik, birlik, diniy mansublik, sobiq ittifoq.
52.
53. Yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash. **Tayanch iboralar:** oila, g‘oyaviy tarbiya, mahalla, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim.
54.
55. Jahon maydonlarini mafkuraviy bo‘lib olish maqsadlari. **Tayanch iboralar:** mafkuraviy tobe etish, qaram qilish, ta’sir o‘tkazish, gegemonlik, iqtisodiy manfaat.
56.
57. Jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo‘lib olishga urinishlar. **Tayanch iboralar:** shovinizm, panislamizm, pansovetizm, xalifalik, gegemonlik.
58.
59. Jahon xamjamiyatining xalqaro terrorizm xavfiga qarshi jipslashuvi. **Tayanch iboralar:** jahon hamjamiyati, BMT, mamlakatlar, umuminsoniyat manfaatlari, tor doiradagi manfaatlar.
60.
61. Jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlari rolining keskin kuchayishi - «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» tamoyilini joriy etishdir. **Tayanch iboralar:** davlatning iqtisodiy sohaga aralashuvini cheklash, o‘z-o‘zini boshqarish, nazorat funksiyalari, mahalla instituti, jamoat birlashmalari, ijtimoiy jamg‘armalar, notijorat tashkilotlar, xayriya faoliyati.
62.
63. Jamiyat va sivilizatsiyalar rivojiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan nazariya, ta’limot va mafkuralar. **Tayanch iboralar:** Avesto, falsafa, mustaqillik mafkurasi, din, tabiatshunoslik, ilm-fan.
64.
65. Jamiyat rivoji va bunyodkor g‘oyalar: **Tayanch iboralar:** insonni ulug‘lash, yurtni birlashtirish, obod Vatan, erkin va farovon hayot, jamiyat manfaati.
66.
67. Jamiyatni rivojlantirishning Milliy modeli. **Tayanch iboralar:** iqtisodiyot ustivorligi, qonun ustunligi, davlat, bosqichma-bosqich, ijtimoiy siyosat.

68.
69. Zamonaviy axborot maydonidagi o‘zgarishlarning mafkuraviy ta’siri. **Tayanch iboralar:** axborotlarni tez tarqalishi, inson ongiga xuruji, adabiyotlar, texnik vositalar, o‘zga mafkuralar tarqalishi.
70.
71. I.A.Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida...» asarida buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik xavfi haqida. **Tayanch iboralar:** qarama-qarshilik, xalqaro huquq, suverenitet, aloqalarni chegaralash, axborot, ishonchsizlik, zo‘rlab qabul qildirish.
72.
73. I.A.Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida...» asarida mafkura masalalari. **Tayanch iboralar:** uzlikni anglash, mafkuraviy aqidaparastlik, ekstremizm, fundamentalizm, xalqaro terrorizm.
74.
75. I.A.Karimovning milliy mafkura va g‘oya masalasidagi ilmiy konsepsiyasi. **Tayanch iboralar:** erkin fuqaro, ongli, mustaqil fikr, komil inson, milliy qadriyat.
76.
77. Ijtimoiy hamkorlik g‘oyasi, uning asosiy jihati va namoyon bo‘lish xususiyatlari. **Tayanch iboralar:** yagona Vatan, hamkorlik, fikrlar xilma-xilligi, totuvlik, barqarorlik, ijtimoiy bag‘rikenglik.
78.
79. Ijtimoiy siyosiy sohadagi tahdidlar va ularni hal qilishda mafkuraning roli. **Tayanch iboralar:** mintaqaviy, diniy, etnik, milliy, siyosiy, xalqaro.
80.
81. Ijtimoiy, siyosiy, ilmiy g‘oyalar va ularning insoniyat rivojiga ta’siri. **Tayanch iboralar:** farovonlik, taraqqiyot, barkamollik, falsafa, inqilob, evolyutsiya.
82.
83. Ijtimoiy-tarixiy omillar asosida dunyoni bo‘lib olishga urinayotgan mafkuralar. **Tayanch iboralar:** buyuk davlatchilik gegemonizmi, diniy mansublik, etnik birlik, sobiq ittifoq, madaniy birlik.
84.
85. Immunitet tushunchasining mazmun va mohiyati. **Tayanch iboralar:** Organizm ichki muayyanligini saqlash, turli ta’sirlardan infeksiyalardan saqlash, himoya qilish, kasalliklarga berilmaslik.
86.
87. Inson huquqlari va erkinliklarini, so‘z va matbuot erkinligini, oshkoralikni ta’minlash - demokratik tamoyillarning amaliy ifodasidir. **Tayanch iboralar:** ommaviy axborot, matbuot, radio-televidenie, «to‘rtinchi hokimiyat» jamoatchilik fikri, siyosiy, faollik, ko‘ppartiyaviylik, demokratik parlamentarizm.
88.
89. Inson omili - islohotlarimizning bosh yo‘nalishidir. **Tayanch iboralar:** ijtimoiy infratuzilma, ta’lim, sog‘liqni saqlash, demografik va milliy xususiyatlar, ma’naviyat, axloq-odob, ma’rifat, din, xalq farovonligi, o‘zbek modeli.
90.
91. Insoniyat tarixi, taraqqiyoti yoki tanazzulida g‘oya va mafkuralarning o‘rni hamda ahamiyati. **Tayanch iboralar:** rivojlanish, yuksalish, barqarorlik, inqiroz, parokandalik.
92.
93. Islom dini va falsafasining hayotbaxsh ta’siri. **Tayanch iboralar:** davlat boshqaruvi, turmush tarzi, an’ana, ahloqiy mezon, qadriyat.
94.

95. Islom dunyosida xalqaro terrorizmning qoralanish sabablari. **Tayanch iboralar:** Islom dunyosi, Islom davlatlari, Islom mafkurasi, yaqin sharq mojarosi, manfaatlar zidligi.
96.
97. Istiqlol mafkurasi nimalarga asoslanishi kerak. **Tayanch iboralar:** qadriyatlarga, tafakkurga, manfaatlarga, maqsadlarga, falsafa, fan, texnika.
98.
99. Istiqlol mafkurasining asosiy vazifalari. **Tayanch iboralar:** mustahkamlash, raqobatbardosh mahsulot, do‘stlik, hamkorlik, inson oliy qadriyat, barqarorlik, rivojlanish.
100.
101. Istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyasi. **Tayanch iboralar:** ozod va obod Vatan, mustaqillik, rivojlanish, farovon hayot, erkinlik.
102. Istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillari. **Tayanch iboralar:** mustaqilligi, daxlsizlik, yaxlitlik, demokratiya, qonun ustuvorligi.
103.
104. Istiqlol mafkurasining O‘zbekistonda bosib o‘tgan yo‘li. **Tayanch iboralar:** o‘tmish bosqinlari, chorizm, «Qizil imperiya», kommunizm, sotsializm, ateizm.
105.
106. Istiqlol nimalarga asoslanadi va uning mazmun-mohiyati nimalardan iborat. **Tayanch iboralar:** o‘zaro hurmat, bir-birini tan olish, umuminsoniy qadriyatlar, buyuk maqsad, erkinlik, fan-texnika rivoji.
107.
108. Komil inson g‘oyasi, uning mohiyati va mazmuni. **Tayanch iboralar:** barkamollik, ezgulik, yuksak ma’naviyat, ta’lim-tarbiya, jismonan baquvvatlik.
109.
110. Kommunistik istibdod mafkurasi. **Tayanch iboralar:** mutelik, loqaydlik, milliy maxdudlik, ateizm, totalitarizm.
111.
112. Mamlakatda ijtimoiy muhofaza siyosatining bugungi xolati (I.Karimovning «Sog‘lom xalq, sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi» O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi asosida). **Tayanch iboralar:** Ijtimoiy muxofaza, ijtimoiy ta’minot, davlat byudjeti, mehr va muruvvat, xususiy mulk, erkin faoliyat va h.k.
113.
114. Mamlakatimizda davlatning din bilan munosabatlari mazmun va mohiyatini belgilovchi tamoyillar. **Tayanch iboralar:** diniy tuyg‘uni hurmat qilish, e’tiqod qilish yoki qilmaslik, huquqlarni teng kafolatlash, qonun ustuvorligi, vijdod erkinligi.
115.
116. Mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash - taraqqiyotimizning asosiy shartidir. **Tayanch iboralar:** millatlararo va dinlararo totuvlik, korrupsiya, millatchilik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik.
117.
118. Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillar. **Tayanch iboralar:** Integratsiya, mustaqil davlatlar hamkorligi, terrorizmga qarshi barcha kurash, «Turkiston», «6+2» guruhi.
119.
120. Mafkura - muayyan maqsadga qaratilgan g‘oyalar tizimidir. **Tayanch iboralar:** e’tiqod, fikr, qarashlar tizimi, g‘oya, maqsad, mafkura.
121.

122. Mafkura qanday maqsadlar va ustuvor g‘oyalarga asoslanadi. (I.A.Karimovning «Fidokor» gazetasi muhbiri savollariga javoblari asosida). **Tayanch iboralar:** siyosat, davlat qurilishi, iqtisodiy asos, ma’naviy va axloqiy qadriyatlar, xalq manfaati.
123.
124. Mafkura masalasida bunyodkorlik nimadan boshlanishi kerak. **Tayanch iboralar:** tafakkur, dunyoqarash, milliy ong, tarbiya, ta’lim.
125.
126. Mafkura tizimida yetakchi o‘rinni egallovchi komponentlar. **Tayanch iboralar:** nazariyalar, ma’lumotlar, qadriyatlar, normalar, qarashlar.
127.
128. Mafkuraviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslikning asosi nima? (I.A.Karimovning «Kamolot» tashabbuskor guruxi oldida so‘zlagan nutqi asosida). **Tayanch iboralar:** ilm-fan, kasb-hunar, sog‘lom turmush, bunyodkorlik.
129.
130. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi. **Tayanch iboralar:** kashfiyotlar, universal texnologiyalar, axborotlar, ilm-fan, texnika.
131.
132. Mafkuraviy immunitet tizimining mezonlari. **Tayanch iboralar:** bilish, baholar, qadriyatlar, profilaktika, ma’rifat.
133.
134. Mafkuraviy poligon tushunchasining mohiyati va mazmuni. **Tayanch iboralar:** serqirra, inson ongi, qalbi, sinash maydoni, o‘zga xudud, zabt etish, kurash, ta’sir.
135.
136. Mafkuraviy tarbiya samaradorligini baholash mezonlari. **Tayanch iboralar:** siyosiy bilimdonlik, ijtimoiy faollik, oila mustahkamligi, matbuotga ehtiyoj, sog‘lom ma’naviy muhit.
137.
138. Mafkuraviy tarbiya tushunchasi. **Tayanch iboralar:** ko‘pqutbli dunyo, tarbiya, milliy va xorijiy tajribalar, ta’lim, fan.
139.
140. Mafkuraviy xavf-xatarning oldini olish uchun kurashning zarurligi. **Tayanch iboralar:** - mafkuraviy vaziyat, kurash, profilaktika, immunitet, ta’lim, ma’rifiy.
141.
142. Mafkuraviy egoizm va shovinizm ko‘rinishlari, ularga qarshi kurashning zarurligi. **Tayanch iboralar:** shaxsiy manfaat, millatni boshqalardan ustun qo‘yish, mutlaqlashtirish, milliy biqiqlik.
143.
144. Mafkuraga xos xususiyatlar. **Tayanch iboralar:** ijtimoiy borliq, qarashlarni tizimga solinganligi, asoslangan bo‘lishi, manfaatni ifoda etish.
145.
146. Mafkuralar xilma-xilligi. **Tayanch iboralar:** fikrlar, takliflar, maqbul yo‘lni topish, rang-baranglik, plyuralizm, demokratiya.
147.
148. Mafkuralarning asosiy maqsadlari. **Tayanch iboralar:** ishontirish, birlashtirish, tarbiyalash, yo‘naltirish, harakat dasturi.
149.
150. Mafkuralarning namoyon bo‘lish shakllari. **Tayanch iboralar:** siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, falsafiy.
151.
152. Mafkuralarning o‘ziga xos xususiyatlari. **Tayanch iboralar:** bilim, baho berish, dastur, yo‘nalish, manfaat.

153.
154. Mafkuralarning tarixiy shakllari. **Tayanch iboralar:** totemizm, fetishizm, buddizm, xristianlik, islom, shovinizm, kommunizm.
155.
156. Mafkurani yoshlar ongiga singdirishda ta'lim-tarbiyaning vazifalari. **Tayanch iboralar:** uzluksiz ta'lim, bilimlarni chuqurlashtirish, mafkuraviy tarbiya, yoshlar psixologiyasi, zamonaviy pedagogik texnologiya.
157.
158. Mafkurani shakllantirishda madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalarning roli. **Tayanch iboralar:** kutubxona, klub, madaniyat uylari, davra suhbatlari, anjuman.
159.
160. Mafkurani shakllantirishda siyosiy arbobning fazilatlari va uning ahamiyati. **Tayanch iboralar:** teran anglash, yangilash, rivojlantirish, boyitish, irodalik, fidoyilik.
161.
162. Mafkuraning jamiyat hayotidagi funksiyalari. **Tayanch iboralar:** baholash, tarbiyaviy, birlashtirish.
163.
164. Mafkuraning kuchi-kudrati nimada. **Tayanch iboralar:** birlashtirish, ruhlantirish, bunyodkorlik, yorqin kayfiyat, maqsadga yo'naltirish.
165.
166. Mafkurasizlik nimaga olib keladi va uning salbiy oqibatlari. **Tayanch iboralar:** e'tiqodsizlik, andishasizlik, o'zligini anglamaslik, parokandalik, beqarorlik.
167.
168. Ma'naviyat va mafkuraning hamoxangligini ta'minlovchi tayanch nuqta. **Tayanch iboralar:** ma'naviyat va ma'rifat markazi, milliy mafkura markazi, milliy-madaniy markazlar, OAV.
169.
170. Ma'naviyat sohasida mustaqil O'zbekiston oldida turgan vazifalar. **Tayanch iboralar:** - boyitish, mustahkamlash, targ'ib etish, tadqiqot olib borish, ilm fan rivoji.
171.
172. Millatlararo totuvlik g'oyasi. **Tayanch iboralar:** polietnik, monoetnik, milliy qadriyatlar, totuvlik, hamjixatlik, milliy bag'rikenglik.
173.
174. Millatparastlik va uning O'zbekistonga tahdidi. **Tayanch iboralar:** -tenglikni inkor etish, bir millatni yuqori qo'yish, imtiyoz yaratish, o'zgalarni mensinmaslik, inqiroz.
175.
176. Milliy istiqlol va ma'naviy meros. **Tayanch iboralar:** ruxiy ozuqa, hayotiy tayanch, o'tmish yutug'i, ma'naviy ozuqa, meros, taraqqiyot.
177.
178. Milliy g'oyaning bosh maqsadi. **Tayanch iboralar:** ozod, obod Vatan, farovon, erkin hayot, maqsad, manfaat.
179.
180. Milliy istiqlol mafkurasi ozuqa olayotgan umuminsoniy qadriyatlar. **Tayanch iboralar:** qonun, huquq, totuvlik, bag'rikenglik, umuminsoniy madaniyat.
181.
182. Milliy istiqlol mafkurasi tushunchasi, uning mohiyati, mazmuni. **Tayanch iboralar:** uzlukni anglash, bunyodkorlik saloxiyati, tanlangan yo'l, ma'naviy ko'prik, taraqqiyot.
183.

184. Milliy istiqlol mafkurasiga bo‘lgan talab va ehtiyojning mohiyati. **Tayanch iboralar:** nisbiy mustaqil, ijtimoiy turmush, moddiy sharoitlar, bog‘liqlik, taraqqiyot.

185.

186. Milliy istiqlol mafkurasiga xos bo‘lgan tuyg‘u va tushunchalar (I.A.Karimov asarlari asosida). **Tayanch iboralar:** Vatan, til, qadriyat, oila, mahalla, millat, madaniyat.

187.

188. Milliy istiqlol mafkurasida umumxalq manfaatlarining ifodalanishi. **Tayanch iboralar:** mustaqillik, barqarorlik, farovonlik, tinchlik, adolatlilik.

189.

190. Milliy istiqlol mafkurasini inson ongiga yetkazish vositalari. **Tayanch iboralar:** ta’lim muassasa, adabiyot, san’at, sport, oila, ommaviy axborot vositalari.

191.

192. Milliy istiqlol mafkurasining asosi. **Tayanch iboralar:** qomus, qadriyat, adolatlilik, Vatan, erkinlik, farovonlik.

193.

194. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy belgilari. **Tayanch iboralar:** o‘zlikni anglatuvchi kuch, bunyodkorlik salohiyati, to‘g‘rilikni anglatuvchi omil, ma’naviy ko‘prik, birlashtirish.

195.

196. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadi. **Tayanch iboralar:** erkin tafakkur, dunyoqarash, yagona Vatan, sadoqat, komil inson, munosib hayot.

197.

198. Milliy istiqlol mafkurasining mohiyati. **Tayanch iboralar:** g‘oya, bilim, qarash, e’tiqod.

199.

200. Milliy istiqlol mafkurasining nazariy asoslari. (I.A.Karimov asarlari asosida). **Tayanch iboralar:** ishlar taxlili, siyosiy hayotga tavsif, mafkuraning mazmun-mohiyati, o‘zagi, maqsadi.

# “MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANIDAN

# MA‘RUZALAR MATNI

## 1-Mavzu: “Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

**REJA:**

1. **“Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining predmeti.**
2. **Ushbu fanning maqsadi va vazifalari.**
3. **Milliy g`oyani o`rganishning asosiy usullari va maqsadi.**

Hurmatli talaba, har qanday fanning muayyan bilimlar tizimi sifatidagi o`ziga xos mavzulari, tushunchalari, qonun va kategoriyalari bo`ladi. Biz o`rganishga kirishayotgan «Milliy g`oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani ham bundan mustasno emas. Uning ham o`z predmeti, qonun va kategoriyalari, maqsad va vazifalari bor.

Bu fan avvalo ushbu ta`limotning tarixiy manbalari, ilmiy, falsafiy, dunyoviy, diniy ildizlari, asosiy tamoyillari, nazariya sifatida namoyon bo`lishi, o`ziga xos shakllanish qonuniyatlari va xususiyatlarini bosqichma-bosqich o`rganishni nazarda tutadi. Bu o`z navbatida, ushubu tushunchalarning mazmunini, ularning bunyodkorlik va vayronkorlik xususiyatlari, insoniyat taraqqiyoti uchun ijobiy va salbiy ahamiyat kasb etishi, istiqlol g`oyasining bunyodkorlik mohiyati, mustaqillikning eng muqaddas qadriyat ekani, uni asrab-avaylash har birimizning olijanob burchimiz ekanini anglashga yordam beradi.

Milliy g`oyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini talabalar ongiga eng ta`sirchan yo`llar va samarali usullar bilan singdirish muhim vazifa hisoblanadi.

Yurtboshimiz Islom Karimov milliy istiqlol g`oyasi va mafkurasining maqsadi haqida fikr yuritib, uni shunday ta`riflagan: «Xalqni buyuk kelajak va ulug`vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat`iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo ma`suliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an`analarimizga munosib bo`lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da`vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir». «Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» T. «O`zbekiston», 2000 yil. 7 bet.

Yurtboshimiz Islom Karimov milliy istiqlol g`oyasi va mafkurasining maqsadi haqida fikr yuritib, uni shunday ta`riflagan: «Xalqni buyuk kelajak va ulug`vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va

dinidan qat`iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo ma`suliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an`analarimizga munosib bo`lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da`vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir. ». «Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» T. «O`zbekiston», 2000 yil. 7 bet.

«Milliy g`oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanining asosiy vazifasi esa o`z tizimidagi bilim va tushunchalarning barchasini pedagogik tamoyillar asosida, ma`rifiy yo`llar bilan talabalar ongiga singdirish. Shu asosda ularda yangicha dunyoqarash va mafkuraviy immunitet asoslarini, mustaqil fikrlash ko`nikmalarini shakllantirish, yosh avlod ongida g`oviy bo`shliq vujudga kelishiga yo`l qo`ymaslikdan iboratdir.

Mustaqillik yillarida to`plangan tajriba va ijtimoiy hayot rivoji aslida inson, jamiyat g`oya va mafkurasiz yashay olmasligini ko`rsatdi. Zotan, odamzot o`zining ruhi va shuuridagi ko`pdan-ko`p savollarga javob bo`ladigan, uni doimiy faoliyatiga undab turadigan hayotbaxsh g`oyaga hamisha ehtiyoj sezib yashaydi. Chunki tabiatda, jamiyatda bo`shliq bo`lmagani kabi inson qalbi va ongida ham bo`shliq bo`lmaydi. Jamiyat hayotida sog`lom g`oya ustivor bo`lib turmasa, odamlarning qalbi va ongini yot, zararli g`oyalar egallab, halqning turmush tarzini izdan chiqaradi. Xuddi dunyoning boyligi turli kuchlar o`rtasida talash bo`lganidek, insonlarning qalbi va ongini egallab, ularni o`z qo`lidagi qurolga aylantirish maqsadi ham jahonda har xil tajovuzkor oqim va ta`limotlarni o`zaro kurashga undashi, ayniqsa, bugungi kunda yaqqol namoyon bo`lmoqda. Prezidentimiz milliy istiqlol g`oyasining vazifasi haqida to`xtalib shunday degan edi: «Men milliy istiqlol g`oyasi bugun tez sur`atlar bilan o`zgarayotgan dunyoda o`zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o`sib kelayotgan avlodga etkazishga xizmat qilmog`i zarur, deb bilaman» (o`sha kitob, o`sha bet)

Bu orzu-umidlar va intilishlarni amalga oshirish ushbu fanni o`qitishda bir qator talablarga ahamiyat berishni zaruratga aylantiradi.

Mazkur tavsiyalarga amal qilish ushbu fanning mohiyati, tushunchalari, tamoyil va xususiyatlarini atroflicha ochib berishga xizmat qiladi. Bu fan o`qituvchisi amaliy mashg`ulotlar olib borishda o`ta ma`suliyat, alohida kuyinchaklik bilan yondoshib, har bir mashg`ulotni yuqori saviyada olib boradilar degan umiddamiz.

Prezidentimiz bugungi taraqqiyotning mana shunday o`ziga xos qonuniyatlarini teran his etib, buyuk maqsadlar bilan yashayotgan halqimizning intilishlariga mos keladigan milliy istiqlol g`oyasi to`g`risidagi ta`limotni yaratdi. 2001 yil 18 yanvarda «Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» ni mamlakatimiz ta`lim tizimiga yangi fan sifatida jory etish to`g`risida farmoyish

chiqardi. Bugungi kunda ta`lim muassasalarida keng o`rganilayotgan fan shu tariqa yuzaga keldi.

Prezidentimiz milliy g`oyaning vazifasi haqida to`xtalib shunday degan edi: «Men milliy istiqlol g`oyasi bugun tez sur`atlar bilan o`zgarayotgan dunyoda o`zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o`sib kelayotgan avlodga etkazishga xizmat qilmog`i zarur, deb bilaman» (o`sha kitob, o`sha bet).

Bu orzu-umidlar va intilishlarni amalga oshirish ushbu fanni o`qitishda bir qator talablarga ahamiyat berishni zaruratga aylantiradi.

Mazkur tavsiyalarga amal qilish ushbu fanning mohiyati, tushunchalari, tamoyil va xususiyatlarini atroflicha ochib berishga xizmat qiladi. Bu fan o`qituvchisi amaliy mashg`ulotlar olib borishda o`ta ma`suliyat, alohida kuyinchaklik bilan yondoshib, har bir mashg`ulotni yuqori saviyada olib boradilar degan umiddamiz.

«Milliy g`oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanini mazmun-mohiyatini bilib olishda «Siyosatshunoslik» (Politologiya), Tadqiqotshunoslik (Sotsiologiya) kabi fanlar orqali beriladigan bilimlar qo`l keladi. Komil insonni tarbiyalashda «Milliy g`oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani oliy ta`lim muassasalarida o`qitiladigan falsafiy bilimlar: «Ma`naviyat asoslari», «Madaniyatshunoslik», «Axloqshunoslik», «Estetika», fanlari bilan ham uzviy aloqada. Shuningdek, dinshunoslik mavzularini chuqur o`rganish ham «Milliy istiqlol g`oyasi» fanining vazifalarini bajarishga yordam beradi. Dinning mohiyati, uning ijtimoiy hodisa sifatidagi o`rni va ahamiyati, milliy, jahon va boshqa dinlarning qanday ekani, undan qaysidan yoki konfessiyaning tutadigan o`rni kabi masalalarni o`rganish nihoyatda muhimdir.

Diniy aqidaparastlik, islom xalifalagini tiklash, din niqobi ostidagi zararli va buzg`unchi g`oyalarning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, ularga qarshi murosasizlik tuyg`usini shakllantiradi.

Milliy istiqlol g`oyasining huquqiy, konstituttsiyaviy asoslarini o`rganishda huquqshunoslik fanining ahamiyati katta. Mamlakatimizda inson xuquqlari va erkinliklarini, hokimiyatining konstituttsiyaviy asosda bo`lishi tamoyili, siyosiy plyuralizm va jamiyat hayotini erkinlashtirish, kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari borish, bu boradagi amalga oshirilayotgan ishlarning mohiyati kabi masalalar milliy istiqlol g`oyasini xalqimiz avvalo yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish bilan uzviy bog`liqdir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, milliy istiqlol g`oyasi, uning asosiy tushuncha va tamoyillarini talabalar ongiga singdirish sermashaqqat, serqirra va sharafli vazifadir. Vazifani bajarishda har bir olim, mutaxassis va o`qituvchidan yuksak ma`suliyat, faol va omilkor bo`lishni talab qiladi.

**Tayanch so`z va iboralar**:

«Milliy g`oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanining predmeti;

Fanning asosiy maqsadlari;
- Fanning asosiy vazifalari;
- Fanning ijtimoiy fanlar tizimidagi o`rni va uni o`rganishning ahamiyati.

**Munozara uchun savollar**:

«Milliy g`oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanini o`rganishda qanday qonuniyatlarni bilasiz?

Mazkur fanning maqsadi nima?

Ushbu fanning vazifasi nimalardan iborat?

Ushbu fanning ijtimoiy fanlar bilan aloqasi qanday?

**Adabiyotlar**:


1. O`zbekiston Respublikasining Konstituttsiyasi-T. «O`zbekiston», 2003 yil
2. Karimov I. A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6.-T.: «O`zbekiston», 1997 yil, 31-40 bet.
3. Karimov I. A. Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotning poyodevori. T.6. - T.: «O`zbekiston». 1997 yil.
4. Karimov I. A. Jamiyat mafkurasi halqni-xalq, Millatni-millat qilishga xizmat etsin. T.7.-T.: «O`zbekiston», 1999 yil. 84-102 bet
5. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8.-T.: «O`zbekiston», 2000 yil, 489-508 bet
6. Karimov I. A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: «O`zbekiston», 2000, 6-12 bet
7. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8-T. : «O`zbekiston», 2000 yil. 462-467 bet
8. Karimov I. A. «Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga so`z boshi. T.9.-T.: «O`zbekiston», 2001 yil, 220-224 bet
9. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo`yicha ta`lim dasturlarini yaratish va respublika ta`lim tizimiga joriy etish to`g`risida Farmoyishi. 2001 yil 18 yanvar.
10. Karimov I. A. Biz tanlagan yo`l-demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li. T. - T. «O`zbekiston» 2003 yil. 214-247 bet.
11. Karimov I. A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o`z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatlik va bukilmas irodasiga bog`liq. – T: «O`zbekiston». 2004 yil
12. Karimov I. A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish-har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so`zlagan nutqi. «Ishonch», 2004 yil 26 may.
13. Karimov I. A. Qonun va adolat ustivorligi faoliyatimiz mezoni bo`lsin. Surxondaryo viloyat Xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so`zlagan nutqi. «Xalq so`zi», 2004 yil 2 iyun’
14. Imom Buxoriy «Hadis», 4 jildlik-T.; 1992 yil

15. Abdulla Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq». T: «Sharq», 1994 yil
16. Azizxo`jaev A. A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. - T: «Sharq», «Akademiya», 2001 yil
17. Azizxo`jaev A. A. Chin o`zbek ishi-T: Akademiya, 2003 yil
18. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T: «Yangi asr avlodi», 2001 yil
19. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar va atamalar. (qisqa izohli tajribaviy lug`at), T: «Yangi asr avlodi». 2002 yil

## 2-Mavzu: "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari.

**Reja**:

**1. Insoniyat tarixida g'oya va mafkuralar namoyon bo'lishining asosiy bosqichlari.**
**2. G`oyalarni turkumlashtirish.**
**3. G'arb mamlakatlarida ilk g'oyaviy qarashlar. Sharq va Markaziy Osiyoda g'oyalarning namoyon bo'lishi, ularning gumanistik mohiyati.**
**4. Milliy mafkuramizning tarixiy ildizlari.**

Mafkuralar insoniyat ibtidosida mifologik-diniy qarashlar sifatida shakllana boshlagan. Kishilarning bir-birlariga munosabatlarining asoslarini belgilovchi muayyan qarashlar, g`oyalar, aqidalar, qoidalar va talablar zamirida muayyan qo`rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan, ularga rioya qilish qat`iy nazorat qilingan. Mehnat sohalarining kengayishi ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi natijasida jamiyatda tabaqalanish sodir bo`lgan, bu jarayon bilan uzviy bog`liq tarzda turli-tuman diniy, dunyoviy, etnik, huquqiy va boshqa g`oya va mafkura shakllari yuzaga kela boshlagan. Shu bois g`oya va mafkuralar g`oyat ko`p va turli-tumandir.

Insoniyat ibtidosidan to hozirgi kunga qadar son-sanoqsiz g`oya va mafkuralar shakllangan, tarqalgan, ularning ayrimlari bugungi kunda ham yashab kelmoqda, ayrimlari esa kishilarning xotiralaridan o`chib ketgan. Bu jarayon hozirgi davrda ham davom etmoqda va insoniyat mavjud ekan, davom etaveradi. G`oya va mafkuralar turli tarixiy davrlarda turli nuqtai nazariyalardan turkumlashtirib kelingan. Xususan, ilk davrlarda g`oya va mafkuralar ezgu va yovuz, ilohiy va dunyoviy turkumlarga ajratilgan.

G`oya va mafkura xususidagi keyingi yillarda chop etilgan adabiyotlarda g`oyalarning mazmun va namoyon bo`lish shakllari tamoyili asosida ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy va umuminsoniy g`oyalarga turkumlashtirilgan. Darhaqiqat, g`oyalarni shakliy, mazmuniy, sotsial-etnik, ko`lamiy va boshqa tamoyillar asosida quyidagicha turkumlashtirish mumkin:

-fan g`oyalari (tabiiy-ilmiy yoki ijtimoiy-gumanitar, asoslangan yoki gipotetik, haqiqiy yoki yanglish, nisbiy yoki mutlaq va hokazo);

-diniy g`oyalar (vahiy yoki vahiy bo`lmagan, politeistik yoki monoteistik kabi);

-falsafiy g`oyalar (idealistik yoki materialistik, teistik yoki ateistik, monistik yoki dualistik, plyuralistik kabi);

-badiiy-nafosat g`oyalari (go`zallik yoki xunuklik, ulug`vorlik yoki tubanlik, fojiaviylik yoki kulgililik kabi);

-axloqiy g`oyalar (ezgulik yoki yovuzlik, yaxshilik yoki yomonlik kabi);

-huquqiy g`oyalar (haqlik yoki nohaqlik, tenglik yoki tengsizlik kabi);

-sotsial-siyosiy g`oyalar (guruhiy, tabaqaviy, sinfiy, partiyaviy, milliy, umuminsoniy kabi);

-mahalliy, mintaqaviy, umumbashariy va boshqa g`oyalar.

**Adabiyotlarda g`oyalarni ularning inson va jamiyatga ta`sir qilish xususiyatlari tamoyiliga ko`ra, ularning namoyon bo`lish shakllari ikki turkumga - bunyodkor va vayronkor g`oyalarga ajratiladi. Xususan, taraqqiyotga xizmat qiluvchi, jamiyat va insonni ezgulikka undovchi g`oyalar sifatida ozodlik va mustaqillik, tinchlik va adolat, tenglik va hamkorlik, do`stlik va birdamlik, hurfikrlilik va ma`rifatparvarlik, bag`rikenglik va xalqparvarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g`oyalari qayd etiladi. Jamiyat, xalq va davlatlarning tanazzuliga sabab bo`luvchi, g`ayriinsoniy maqsadlarga xizmat qiluvchi vayronkor g`oyalar sifatida esa - mustabidlik va bosqinchilik, terrorchilik va aqidaparastlik, jaholatparastlik va irqchilik, millatchilik va mahalliychilik, vatansizlik va yovuzlik g`oyalari sanab o`tiladi. Milliy g`oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o`tib, asrlar davomida e`zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma`naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta`bir joiz bo`lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlarini o`zimizga tasavvur qiladigan bo`lsak, o`ylaymanki, bunday keng ma`noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo`lamiz".[2]**

Ayrim hollarda g`oya va milliy g`oya, mafkura va milliy mafkura tushunchalarining farqlariga etarli darajada e`tibor berilmaydi. Xususan, g`oya milliy g`oya ma`nosida, mafkura esa - milliy mafkura sifatida talqin etiladi. Agar g`oya tushunchasi asosan aqliy faoliyat bilan bog`liq bo`lsa, milliy g`oya tushunchasi milliy his-tuyg`u, millat mentaliteti bilan uzviy bog`liqdir. Milliy g`oya - halqning qalbidan chiquvchi, uning orzu-umidlarini o`zida ifoda etuvchi, xalqning haq-huquqini himoya qiluvchi, uning qadr-qiymatini yuksaltirishga undovchi haqqoniy fikrdir. Milliy g`oya xalqning o`zligini anglatuvchi, milliy tuyg`ularini uyg`otuvchi, milliy g`urur va oriyatini qo`zg`atuvchi fikrdir. Milliy g`oya xalqni uyushtiruvchi, uning qadr-qiymatini tiklovchi, o`zligini anglatuvchi, ijodkorlik va yaratuvchanligini ro`yobga chiqaruvchi, jamiyat taraqqiyotini insonparvarlik yo`nalishiga etaklovchi kuch sifatida namoyon bo`ladi. Milliy g`oya vatanparvarlikka, xalqning tarixiy xotirasiga, o`zligini anglashiga asoslanadi. Bizning milliy g`oyamiz millatning, davlatning, yurtning qadr-qiymatini yuksaltiradi, iqtisodiy, sotsial, siyosiy va ma`naviy salohiyatini yuzaga chiqaradi, oriyat va g`ururini asraydi, istiqbolini belgilaydi, kelgusi taraqqiyot uchun yo`l-

[2] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият , 2008. –Б.71.

yo`riqlar ko`rsatadi. Milliy g`oya o`zbek millatining o`ziga xosligi nimada ekanligini asoslab beruvchi ilmiy-nazariy va falsafiy qarashlar sistemasidir. [3]

Darhaqiqat, Prezidentimiz I.Karimov ta`kidlab o`tganidek, tarix - millatning tarbiyachisidir, o`zlikni anglash - tarixni bilishdan boshlanadi, - isbot talab qilmaydigan bu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko`tarilishi lozim. Alohida inson xotirasida o`zining hayotida nimalar qilganligi, uning aql-zakovati va irodasi nimalarga sarflanganligi qay darajada o`rnashib qolsa, millat uchun ham u tomondan amalga oshirilgan narsalar shu darajada yaqin va qimmatlidir. Tarix - bu insoniyatning, millatning ijtimoiy xotirasi, uning o`z-o`zini bilishi va anglashidir: voqelikda yo`qolgan narsalar ongda, xotirada yashaydi. O`tmishni bilish hozirgini yaratish uchun beqiyos ahamiyatga molik. Ijtimoiy hayotni tushunishdagi birinchi qadam hozirning o`tmish tomonidan yaratilganligini tasavvur qilish bilan bog`liqdir. Milliy g`oya xalqimiz tarixiga, uning tarixiy xotirasiga tayanadi. Tarixiy xotirasidan judo bo`lgan xalq o`zini millat sifatida anglay olmaydi, millatning manfaat va ehtiyojlarini qalban xis qila olmaydi. Binobarin milliy g`oya ham ratsional, ham irratsional mohiyatga ega bo`lib, u milliy ruhiyat, kayfiyat, ichki uyushtiruvchi, yo`naltiruvchi, harakatga keltiruvchi, etaklovchi milliy xis-tuyg`u hisoblanadi.

Istiqbolning yaratuvchisi hisoblangan milliy mafkura - muayyan jamiyatning tarkibidagi millatlarning o`z mustaqilligini, mustaqillik manfaatlarini himoya qilish, rivojlantirish yo`nalishidagi ichki intilishlari natijasida vujudga keluvchi tuyg`ulari, maqsadlari, hoxish-irodalarini ifodalovchi g`oyalar majmuasidir. Milliy mafkuraning o`zagini milliy g`oya tashkil etadi, u jamiyatda barqarorlik, tinchlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikni ta`minlaydi. Milliy g`oyaning asosiy tayanchi nuqtasi ham, harakatga keltiruvchi, uyg`otuvchi kuchi ham milliy o`zlikni anglashdir. Millat o`zini xalq sifatida, millat sifatida, el sifatida anglamaguncha uning obro`yi, qadr-qimmati, or-nomusi haqida qayg`urishi, milliy faxr va g`ururi uchun kurashishi mumkin emas. O`zlikni anglash xalqni g`aflatdan uyg`otuvchi, faol harakatga keltiruvchi, ijtimoiy uyushtiruvchi kuchdir.

Darhaqiqat biz kimmiz va jahon tsivilizatsiyasi tarixidagi o`rnimiz va rolimiz qanday kechgan? Biz jahon tsivilizatsiyasiga katta hissa qo`shgan va qo`shib kelgan ma`rifatli millat ekanligimizni unutganmiz, aniqrog`i, unuttirishgan. Milliy g`urur tiklanishi shart. O`zbek tarixini umumturk tarixining bir qismi sifatida o`rganishimiz va baholashimiz, o`zbek xalqining qadim-qadimdan Turon, Turkiston deb atab kelingan ko`hna zaminning minglab yillar davomida yashab kelayotgan va o`z tarixiy takomilida o`nlab saltanatlar qurgan haqiqiy egalari ekanligini, bu Turon-Turkiston O`zbekiston qadim madaniyat beshiklaridan biri ekanligini, hozirgi zamonaviy fan va texnikaning poydevori shu erda yaratilganligini anglamog`imiz va anglatmog`imiz zarur.

Milliy mustaqillik mafkurasi, ma`naviy va madaniy qadriyatlar, ma`rifat va adolatga intilish, O`zbekiston istiqlolining kelajagi to`g`risida g`amxo`rlik qilish jamiyatimiz va har bir fuqaro hayotida juda muhim o`rin tutadi. Islom Karimov.

[3] Qaranг: To`raев Б., Раматов Ж. Миллий истиқлол g`ояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдизлари. -Т.: Ижод дунёси, 2002.

*(“Harbiy ta`lim zamon talablariga mos kelsin” O`zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar akademiyasining ochilishi marosimida so`zlangan nutqdan. 1995 yil sentyabr’).*

«Biz kim, mulki Turon, amiri Turkistonmiz, biz kim millatlarning eng qadimi va ulug`i - turkning bosh bo`g`inimiz» - Sohibqiron Amir Temurning buyukligi zamirida ana shunday milliy o`zlikni anglash, tarixiy xotira yotgan bo`lsa ajab emas. Zero, milliy his-tuyg`u va mustahkam e`tiqod - insoniy va milliy kamolotning ikki qanotidir. To`maris momomiz va Alp erto`nga bobomizdan to Abdulla Qodiriy va Ozod Sharafiddinovgacha yengilmas kuch-qudrat ato etgan narsa milliy his-tuyg`u va e`tiqodiy ruhdir, desak xato qilmasmiz.

Mustaqillik - o`zlikni tanimoqdir; o`zlikni tanishning, milliy g`urur va iftixorni shakllantirishning asosiy vositasi xalqning tarixiy xotirasining tiklanishidir. Dastavval zardo`shtiylikning tarmog`i sanalgan moniylik ta`sirida bo`lgan, keyinchalik xristianlikning mashhur ilohiyotchisi sifatida tanlgan afrikalik episkop Avreliy Avgustin «g`aflatda yotgan xalqni uyg`otmoqchi bo`lsang, uning tarixini uyg`ot» degan ekan. bizning jismiy va ruhiy vujudimiz, til va tafakkurimiz, ma`naviy-axloqiy dunyomiz, milliy-etnik qiyofamiz, e`tiqod va marosimchiligimiz, udum va an`analarimiz, elu-yurt kabi muqaddas tuyg`ularimiz - bularning barchasi Turon-Turkiston-O`zbekiston nomi bilan bog`liq. Turkiyalik kavmdoshlarimizdan biri Ziyo Ko`kalp mushohadasiga ko`ra, «boshqa xalqlarning hozirgi zamon madaniyatiga kirishmoqlari uchun o`z moziylaridan uzoqlashmoqlari majburiy bo`lsa, turkiylarning hozirgi zamon madaniyatiga kirishmoqlari uchun faqat o`zlarinnig eski moziylariga tushunib etmoqlari kifoyadir». Darhaqiqat, insoniyat ibtidosi, binobarin, g`oya va mafkuralar ibtidosi ham, Qadimgi Sharqdan boshlanadi. «Sharq» va «G`arb» atmalari odatda jug`rofiy atamalar sifatida idrok etilsa-da, aslida ikki xil madaniy-ma`naviy an`analarni ham ifodalaydi. Qadimgi yunonlar Osiyo qit`asining g`arbiy yarim orolini o`zlarining afsonaviy qahramoni nomi bilan Evropa deb ataganlarida ana shu madaniy-ma`naviy o`ziga xoslik omiliga asoslangan edilar. Asl Qadimgi Sharq - bu Qadimgi Turon, Qadimgi Hindiston va Qadimgi Xitoy mamalakatlaridir. Qadimgi Misr, Qadimgi Vavilon kabi mamlakatlar nafaqat jug`rofiy jihatdan, balki madaniy-ma`naviy jihatdan ham Sharqqa nisbatan G`arbga yaqindir, evropaliklar bu mintaqani «Yaqin Sharq» deb ataganlarida tamomila haqdirlar; zero, G`arb madaniyatining poydevori sanalgan qadimgi yunon madaniyati asosan misrliklar va vavilonliklar madaniyati asosida shakllangandir. Qadimgi Sharq tarixida, binobarin, umuman insoniyat tarixida, Qadimgi Turon shunday bir muhim o`rin tutadiki, iqtidorli tarixchi tadqiqotchilarning e`tirof etishicha, uning moddiy va ma`naviy madaniyatini o`rganmasdan turib, uning jahon tsivilizatsiyasiga qo`shgan ulkan hissasini jiddiy tadqiq qilmasdan turib, insoniyatning madaniy-ma`naviy tarixi haqida haqqoniy tasavvurlarga ega bo`lish va uning taraqqiyot qonunlarini to`g`ri aniqlash mumkin emas. Qadimgi Turon hali ilmu-fanda ochilmagan sirli va mo``jizaviy bir xazinaki, uning o`rganilishi - insoniyatning yangi bir madaniy-ma`naviy dunyosini kashf etishdir. Turon-Turkiston-O`zbekiston - bu ham diniy, ham dunyoviy ma`noda haqiqatdan ham muqaddas zamindir. Bu zaminlardan topilgan tosh qurolning yoshi 1,8 - 3,2 million yilni, ibtidoiy manzilgohlar yoshi

taxminan 1 million yilni, ilk ma`naviy udum-e`tiqodlar tarixi 100 ming yilni tashkil etadi. Oddiy ovqatga tuz solishdan to to`rt unsur haqidagi falsafiy ta`limotlarga qadar ko`plab g`oya va kashfiyotlar, insoniyat tarixidagi ilk vahiy e`tiqod sanalgan zardo`shtiylik vatani ana shu muqaddas zamindir. Frantsuz va ingliz zardo`shtiyshunos olimlar fikricha zardo`shtiylik miloddan oldingi 3-2 ming yilliklar chegarasida vujudga kelgan. London universitetining professori, zardo`shtiyshunos olima Meri Boys fikricha, Zardo`sht miloddan oldingi 1500-1700 yillar oralig`ida yashab o`tgan. Zardo`shtiylik – yuksak fazilatli, ezgu niyatli e`tiqoddir. Uning ko`pgina g`oyalari noyob, betakror va ulug`vordir. O`zining insoniyatga bevosita yoki bilvosita ta`siri borasida dunyodagi biron-bir e`tiqod zardo`shtiylikka tenglasha olmaydi. Zardo`shtiylik g`oyalari iudaizm, buddizm, xristianlik, islom dinlari tomonidan, qator diniy yo`nalishlar va falsafiy maktablar tomonidan o`zlashtirilgan. Zardo`sht tomonidan targ`ib qilingan ko`pgina g`oya va ta`limotlar hozirgi kunda ham jahon xalqlari tomonidan mamnuniyat va xayrihohlik bilan e`tirof etib kelinadi. Zardo`shtiylik tarixini o`rganish - insoniyatning minglab yillar davomidagi ma`naviy-axloqiy taraqqiyoti tarixini, g`oya va mafkuralar tarixini o`rganish demakdir. ezgu g`oyalar majmuasi sifatida zardo`shtiylik mafkurasi umumiy tartib-intizomni mustahkamlashga, tashqi ta`sirlarga nisbatan yaxlitlik va mustaqillikni saqlashga, umumiy his-tuyg`u va birlikni tarbiyalashga xizmat qilgan. Zardo`shtiylik qomusiy e`tiqod bo`lgan, Zardo`sht o`z hayot yo`li bilan, maqsad va intilishlari bilan insoniyatni ezgulikka, adolatga, haqiqatga undaydi. Bu e`tiqodning Hindiston va Afg`onistondan Yunonistongacha, Armaniston va Ozarbayjondan Bobilgacha bo`lgan ulkan hududlarda 2000 yil atrofida hukmron e`tiqod sifatida e`tirof etilishi bejiz emas edi, albatta. Milliy g`oyaning asosiy tayanch nuqtasi hisoblangan milliy o`zlikni anglashni, tarixiy xotiramizni islom dinisiz tasavvur qilish qiyin. Prezident I.Karimov ta`kidlaganidek, islom dini - bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma`rifatdir. Markaziy Osiyoda islom dinining ruhan o`ziga xosligi shundan iboratki, unda ajdodlarimizning qadimiy qadriyatlari mujassamlashgan, milliy va diniy qadriyatlar birlashgan. Islom - bu faqat dingina emas. Milliy falsafamiz, uning barcha yo`nalishlari inson baxt-saodati ideali atrofida rivojlana borgan. Bu ideal dindan kengroq ko`lamli bo`lgan. Unda diniy va ijtimoiy mulkiy tengsizliklarni, qarama-qarshilik va ziddiyatlarni yo`qotish, ular o`rnini o`zaro yordam va hamkorlik egallagan ijtimoiy turmush orzu qilingan. Xususan, daho mutafakkir bobomiz Abu Nasr Forobiyning falsafiy mushohadasiga ko`ra, koinotdagi har bir vujud-mavjudot o`ziga xos martaba – eng yuksak kamolatga erishish uchun dunyoga kelgan. Inson uchun xos bo`lgan bu kamolotning nomini eng etuk baxt-saodat deb ataydilar.

Ulug` bobomiz Imom Buxoriyning «Jome` as-sahih» kitoblari islom dunyosi ulamolari tomonidan yakdillik bilan Qur`oni Karimdan keyingi ikkinchi muqaddas kitob deb e`tirof etilishi va umuman, Qur`oni Karimdan keyingi islom dinimizning asosini tashkil etgan oltita hadis to`plamidan to`rtasining ona-Vatanimiz Turkiston zaminida yaratilganligi ajdodlarimiz an`analarining naqadar ulug` va samarali bo`lganligi dalolatidir. Bizning milliy mafkuramizning falsafiy asoslari, uning ma`no-mazmuni, asosiy g`oya va tamoyillari milliy davlatchiligimizni qayta tiklab,

jamiyatimizning taraqqiyot yo`lini sharqona tafakkur tamoyillariga suyangan holda nazariy jihatdan asoslab bergan Prezident I.A.Karimov milliy mafkuramizning falsafiy ildizlarini anglash xususida to`xtalar ekan, uni shakllantirishdagi eng katta manba - bu haqqoniy yoritilgan tarix ekanligini, tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy ildizlarini anglab bo`lmasligini, zero mafkuraning falsafiy asoslari o`z davrida tarixiy haqiqat tufayli tug`ilganligini alohida ta`kidlab o`tadi (Каримов И. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон hаёт – пировард мақсадимиз. – Тошкент, 2000. –Б. 505.).

O`zbekistonda g`oya va mafkuralar rivojlanishini quyidagi sivilizatsion yondashuv asosida o`rganish mumkin:

1. Ibtidoiy jamiyat ;
2. O`rta asrlar davri;
3. Xonliklar davri;
4. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri;
5. Sovet mustabid tizimi davri;
6. Milliy mustaqillik davri.

Ta`kidlash lozimki, har bir davrning o`ziga xos ijtimoiy taraqqiyotining o`sha bosqichini o`zida mujassam etgan g`oyalari mavjud bo`lgan. Masalan, ibtidoiy jamiyatda inson yovvoyilikdan madaniylashishga o`ta boshladi, tabiat sirlarini o`rganib o`zining inson ekanligini his etish bilan bog`liq g`oyalar yuzaga kela boshladi. Ko`hna qadriyatlarimiz, olimu ulamolarning asarlari jamiyatning g`oyaviy-mafkuraviy asosini yaratishda juda muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Yurtimiz xalqlarining tarixi, madaniyati o`z ildizlari bilan asrlar qa`riga borib taqalishi va uzoq ming yillarni o`z ichiga olishini qadimgi fors yozuvchilarining, xitoy, arman va suriyalik geograf va tarixchilarning yozib qoldirgan ma`lumotlari, Nosiriddin Burhonuddin Rabg`uziyning «Qisasi Rabg`uziy», Alisher Navoiyning «Tarixi muluki Ajam», Firdavsiyning «Shohnoma» asarlaridan, zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»dan, shuningdek, Bexistun, Bundaxishn, qadimgi turkiy bitiklar, jumladan O`rxun-Enisey yodgorliklaridan aniq va ravshan bilib olishimiz mumkin. Milliy g`oya va mafkuramizning ildizlari o`ta qadimiy ekanligiga yunonistonlik olimlar - Arrian, Kurtsiy, Plutarx, Geradot, Straban, shuningdek, Abu Rayxon Beruniy, Narshaxiy va boshqa mutafakkirlarning asarlari ham guvohlik beradi.

Qayd etish lozimki, O`zbekistonda milliy tiklanish, bir tomondan milliy o`zlikni anglash, boshqa tomondan, jamiyatning g`oyaviy-mafkuraviy asoslarini yaratish, uchinchi tomondan esa bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o`tish asnosida yuz berdi. “Ayni vaqtda biz jamiyatni va jamiyat tafakkurini yangilashning inqilobiy usullariga, bu jarayonni sun`iy ravishda chetdan turib, zo`ravonlik yo`li bilan tezlashtirishga qaratilgan har qanday urinishlarga mutlaqo qarshimiz. Biz barcha sohalarda, jumladan, ma`naviy sohada ham tadrijiy-evolyutsion islohotlar yo`li tarafdorimiz va bunga qat`iy amal qilamiz. Ya`ni, sodda qilib aytganda, odamlarning dunyoqarashi, e`tiqod va tafakkurida demokratik tamoyillar vademokratik qarashlarning kengayishi va mustahkam o`rin topishi avvalambor hayotning tabiiy yurishi bilan, ularning moddiy turmush darajasi va madaniy

saviyasi tobora rivojlanishi va yuksalishi bilan chambarchas bog`liq ekanini hayotning o`zi taqozo etadi”.( Каримов И. А. Юксак маънавият – уенгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б.101)

**Nazorat savollari:**

1. G`oya va mafkura, milliy g`oya va milliy mafkura tushunchalarining o`zaro nisbatini qanday tushunasiz?
2. Tafakkur va ruhiy olam tushunchalarining ma`no-mazmunlari haqidagi sizning fikringiz qanday?
3. G`oya va mafkura tushunchalarining ontologik va gnoseologik jihatlari deganda nimalar nazarda tutiladi?
4. «Insoniyat tarixi - g`oyalar tarixidir», «Mafkura - istiqlolning yaratuvchisidir» degan tavsiflarning mazmun-mohiyatini qanday tushunasiz?
5. Milliy va umuminsoniy g`oyalarning o`zaro nisbati, ularning shakllanishi va rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari haqidagi fikringiz?

## ADABIYOTLAR


1. O`zbekiston Respublikasi Konstittsiyasi. –T. : 2008.
2. Karimov I. O`zbekiston XX1 asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T. : O`zbekiston, 1997.
3. Karimov I. Milliy mafkura – davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy-ma`naviy kuch-qudrat manbai. G` T. 8. –T. : O`zbekiston, 2000. 462-474 betlar.
4. Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi – xalqni xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. G` T. 7. -T. : O`zbekiston, 1998. 84-102 betlar.
5. Karimov I. Sog`lom avlod tarbiyasi – barchamizning muqaddas burchimiz. T 8. . -T.: O`zbekiston, 2000. 424-442 betlar.
6. Karimov I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008.
7. Milliy istiqlol g`oyasi. –T.:Akademiya, 2005.
8. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: Yangi asr avlodi», 2001.


## 3-Mavzu: Milliy g‘oya, ijtimoiy taraqqiyot va mafkuraviy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi.

Reja:

**1.«G`oya» va «Mafkura» tushunchalari, ularning mohiyati va mazmuni**
**2.Inson va jamiyat hayotidagi g`oyalar, fikrlar xilma-xilligi.**
**3.Bunyodkor g`oyalar. Vayronkor g`oya va mafkuralarning jamiyat hayotiga salbiy ta`siri**
**4.. Milliy g‘oyada mentalitetning namoyon bo‘lishi.**

Muhtaram talaba, «G`oya» tushunchasi haqida fikr yuritilganda, avvalo, inson hayotida, jamiyat taraqqiyotida g`oyalar qanchalik muhim rol o`ynashiga to`xtalib o`tish maqsadga muvofiqdir.

Ma`lumki, iymon-e`tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi. Inson-ongli mavjudot. Ongni shartli ravishda ikkita katta qismga bo`lish mumkin: Birinchisi-insonning ruhiy olami, ikkinchisi-fikriy olam, ya`ni tafakkur olamidir. Umuman, g`oya inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo`lgan, ruhiyatga kuchli ta`sir o`tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari etaklaydigan kuchli, teran fikr demakdir.

2. Insoniyat tarixidan ma`lumki, barcha davrlarda har bir davlat va xalqning, jamiyatning o`ziga xos mafkurasi bo`lgan. Chunki jamiyatning, xalqning o`z oldiga qo`ygan maqsadi uni amalga oshirishda jamiyat ahlini birlashtiradigan, safarbarlikka undaydigan mafkurasi bo`lmasa muqarrar ravishda halokatga mahkum bo`ladi.

Inson tafakkurini maxsuli sifatida g`oya tevarak olamni o`rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari ilm-fan, din, falsafa, san`at va adabiyot, axloq, siyosat va xuquq-muayyan bir g`oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Mazmuni va namoyon bo`lish shakliga qarab, g`oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin:

Ilmiy g`oyalar;
Falsafiy g`oyalar;
Diniy g`oyalar;
Badiiy g`oyalar;
Ijtimoiy-siyosiy g`oyalar;
Milliy g`oyalar
Umuminsoniy g`oyalar;

G`oya va mafkura mazmun-mohiyatiga ko`ra bunyodkor yoki zararli bo`lib, bunyodkorlik g`oyalari insonni ulug`laydi. Uning ruhiga qanot bag`ishlaydi.

Ezgu g`oyalar insonni yuksak orzular bilan yashashga, olijanob maqsadlar yo`lida e`tiqod bilan kurashishga o`rgatadi. Buzg`unchi g`oyalar esa xalqlar boshiga katta kulfatlar keltiradi. Inson va jamiyat bor ekan, ezgulik g`oyalarining ziddi bo`lgan zulm va zo`ravonlik, qabohat va jaholat yangi-yangi shakllarda namoyon bo`lishga urinadi. Lekin ular insoniyatning adolat, tenglik, tinchlik, qardoshlik rivojlanish va farovonlik g`oyalariga tayanib, yuksak maqsadlar sari intilishlarini to`xtata olmaydi. ezgu va yuksak g`oyalar odamlarni hamisha olijanob maqsadlar sari etaklayveradi.

Bunyodkorlik g`oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat taraqqiyotga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g`oyalari sifatida yashab kelmoqda.

Har qanday nazariya yoki ta`limot bir tizimga solingan g`oyalar majmuidan iborat bo`ladi. Dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch e`tiqodining asosini ham g`oya tashkil etadi.

Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g`oyalarda ifoda etiladi. O`z oldiga qo`ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani bunga qanday yo`llar bilan erishmoqchi bo`layotgani haqidagi g`oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi.

Mafkura-muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma`naviy tamoyillarini ifoda etadigan g`oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Jamiyatning, jamiyat ahlining mustahkam va ravshan mafkurasi bo`lmasa, o`z oldiga qo`yilgan aniq bir maqsad-muddaosi bo`lmasa, u muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi.

Maqsad esa-xalqni, millatni birlashtiruvchi, unga kuch-qudrat, ruhiy ozuqa beruvchi, istiqbolga boshlovchi bayroqdir. Prezidentimiz so`zlari bilan aytadigan bo`lsak: «Bu bayroq butun O`zbekiston xalqining ruhini, g`urur-iftixorini, kerak bo`lsa, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug` kuchdir. Davlatimizning, xalqimizning, yurtimizning maqsadi o`zining ulug`vorligi, hayotiyligi va haqqoniyligi bilan hammamizni jalb etadigan bo`lmog`i lozim. Toki bu maqsad xalqni, millatni-millat qila bilsin, qo`limizda yengilmas bir kuchga aylansin». (I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. T. «O`zbekiston, 1998 yil, 10-11 betlar»)

3. Insonlar, xalqlar, jamiyatlar hayotida mafkura muhim rol o`ynaydi. Yurtboshimiz so`zlari bilan aytadigan bo`lsak:-mafkura bo`lmasa odam, jamiyat, davlat o`z yo`lini yo`qotishi muqarrar. Mafkuraning hayotbaxsh kuchi, avvalo insonning jamiyatdagi o`rni va ahamiyatini qanday tushunish va uni qanday ijtimoiy maqomda tasavvur etishga bog`liq. Chunki insonni ijtimoiy harakat va faoliyatga undash va shu tariqa ko`zlangan muayyan maqsad-vazifalarga erishish dunyodagi barcha mafkuralarning ma`no-mohiyatini tashkil etadi.

Shu ma`noda, Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari tizimida insonning jamiyatdagi o`rni va maqomi aniq belgilanganligi diqqatga sazovordir. Ya`ni bu tizim insonni bunyodkor kuch sifatida ta`riflaydi va shunga da`vat etadi. Istiqlolning bosh g`oyasi ham, asosiy g`oya va tushunchalari ham bunyodkorlik falsafasi bilan yo`g`irilgan. Chunki bunyodkorlik xalqimizning eng olijanob fazilati. Yurtboshimiz ta`biri bilan aytganda, o`zbek tom ma`noda bunyodkordir, do`ppisida suv tashib bo`lsa ham daraxt ko`kartiradi.

4. Muhtaram talaba-endi Bunyodkor g`oya, haqida so`z yuritar ekanmiz, *bunyodkor g`oya deb,* insonni ulug`laydigan, uning kuch g`ayrati va salohiyatini oshirib xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o`zida taraqqiyot, ma`rifat, do`stlik, tinchlik, halollik, poklik kabi ezgu maqsadlarni mujassam etadigan g`oyaga aytiladi.

Bunyodkor g`oyalar bilan qurollangan kishilar farovon hayot, erkin jamiyat qurish uchun kurash olib borganligi tarixdan ma`lum. Bunyodkorlik g`oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat tsivilizatsiyasiga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g`oyalari sifatida yashab kelmoqda. Bunyodkorlik ota-bobolarimizdan merosdir. Insoniyat tarixida odamlar ongi va shuuriga adolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik, kabi yuksak g`oyalar urug`ini sepgan zot, payg`ambar Zardusht yaratgan «Avesto» kitobida quyidagi satrlar majud: «Ezgu fikr, ezgu so`zlarga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon so`zu yomon ishlardan yuz o`giraman». Bu yuksak g`oyalar bundan 2700 yil muqaddam yashab o`tgan vatandoshimiz Zardushtning o`lmas mafkurasi edi.

Xitoy va hind mutafakkirlarining jamiyat rivoji haqidagi qarashlari va bunyodkorlik g`oyalari ham Osiyoning «Sharqona» ma`naviyatida o`ziga xos o`rin tutadi. Jumladan, buyuk Xitoy mutafakkiri Konfutsiy (mil. av. 551-479) g`oyalari hanuzgacha Xitoy xalqi mafkurasida etakchilik qilib kelmoqda. Bu g`oyaning asosi jamiyatni har qanday ijtimoiy larzalardan asrab qolishi va insonlar manfaatini yuqori qo`yishga qaratilgan. Allomaning maqsadi xalqni mavjud tartib qoidalarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash bo`lgan. Bu g`oyaga ko`ra insonlar jamiyatning tabiiy taraqqiyotiga qarshi chiqmasligi, ya`ni inqilobiy yo`lni tanlamasligi kerak. Konfutsiya insoniyat xaqida fikr yuritar ekan, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqei orqali emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, haqgo`ylik, samiymiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma`naviy fazilatlarga erishishi tufayli kamolotga etishuvi mumkin deb, xisoblaydi.

Hind xalqining buyuk farzandi Mahatma Gandi (1869-1948) o`z ma`naviyati, g`oyalari bilan XX asrning buyuk shaxslaridan biriga aylandi. U mustamlakachilarga qarshi kurashning timsoli edi. U hindlar bilan musulmonlarning o`zaro do`stligini mustahkamlashga intildi. Gandi din bilan siyosatni bir-biriga bog`lashga harakat qildi. Fidoyilik va vatanparvarlik namunalarini ko`rsatdi.

Buyuk mutasavvuflar: Xoja Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abduholiq G`ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta`limotlarida aks etgan komil inson g`oyalari adolat haqidagi qarashlar jamiyatning sog`lom ma`naviy ahloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g`oyalar Vatan va halq manfaati yo`lida fidoyilik va insonparvarlikni ulug`laydi.

Ezgu g`oyalar Mahmud Qoshg`ariy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o`rin egalladi va o`zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo`lib xizmat qildi. Amir Temurning «Temur tuzuklari»; Nizomulmulkning «Siyosatnoma» kitoblarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g`oya sifatida ilgari surildi. Bu g`oyalar Temuriylar davlati g`oyaviy tamoyillarining ustivor yo`nalishi edi. Ko`hna Turon o`z boshidan kechirgan buyuk tarixiy voqealar ichida Amir Temurning bunyodkorlik g`oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega.

Inson va jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida bunyodkorlik g`oya va mafkuralari xilma-xil, ularning ahamiyati beqiyosdir. Shunday bunyodkor g`oyalardan biri Janubiy Quriya mamlakati rivojiga katta hissa qo`shgan fidoiy inson Yong Ki-Kimning faoliyati va bunyodkorlik ishlari diqqatga sazovor. 1930 yillarda «12 oila-qishloqda» degan harakatni boshlab giyoh ham ko`karmagan tashlandiq tepalikni sotib olib, obod qilishga kirishadi.

Keyinchalik fermerlar tayyorlanadigan «Kanaan» (Imkoniyatlar maktabi) ni ochadi. U hamisha faqat tashlandiq, giyoh o`sishi qiyin bo`lgan erlarni olib, obod qilib odamlarni o`z tashabbusi, g`oyasi bilan orqasidan ergashtirib mamlakat rivoji va obodonligiga o`z hissasini qo`shadi. Bugungi kunda «Kanaan» ta`lim dargohining bosh maqsadi-tinglovchilarda insoniy e`tiqod tuyg`ularini

shakllantirish, ularga insoniy fazilatlar-komillik, o`zaro tenglik, birodarlik, vatanparvarlik hislarini singdirishdir.

Vatan va millat ravnaqi yo`lida fidokoroni mehnat qilish, tug`ilib o`sgan Vatanni jondan ortiq sevmoqlik shart ekanligi g`oyasi har bir tinglovchiga singdiriladi. Bitta fidoiy, vatanparvar insonning yuksak g`oyalarga asoslangan ishlari bugungi kunda keng tarqalib Janubiy Quriyaning obod bo`lishiga katta hissa bo`lib qo`shilmoqda.

5. Insoniyat tarixida ezgulik va bunyodkor g`oyalar bilan yovuzlik va buzg`unchilik g`oyalar o`rtasida hamisha kurash bo`lganligini bilamiz.

Insoniyatning, jumladan, O`zbekistonning bir necha yuz yillik tarixida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo`ravonlik, kulfat urug`larini sochish va qon to`kilishiga sabab bo`lgan buzg`unchi g`oyalar va mafkuralarning halokatli ta`siri bilan bog`liq qayg`uli sahifalar juda ko`p. Bu g`oyalar o`zlarida siyosiy bosqinchilik va mustabidlik intilshlarini goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda diniy, milliy, sifiy shiorlarni bayroq qilib chiqqan.

Jumladan, bol’shevizm bilan bir qatorda, XX asrning boshida mustabid g`oya va mafkuraning boshqa shakli-fashizm paydo bo`ldi.

Bol’shevizm mafkurasi bo`lgan kommunistik ta`limot xalqlarning milliy-etnik o`ziga xosliklarini yo`qotish, «proletar baynalminalligi» shiori bilan maydonga chiqqan bo`lsa, fashizm bir hukmron millatning «irqiy-etnik sofligi» ni mutloqlashtirshni targ`ib-tashviq etdi. U irqchilikning xomiysi hisoblanadi.

«Rasizm» so`zi «rasa» (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Yevropada «insoniyat nasli» ni turli irqiy guruhlar, jumladan, «oq» va «sariq» irqqa ajratish uchun qo`llana boshladi.

Irqchilik ta`limoti «oq tanli» larning afzalligi, ularning azaldan «oliy irq» etib tanlangani, boshqa irqlarning esa «oq» larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog`onalarida turishini asoslab beradi. Uning asosiy g`oyasi o`zining «ilohiy» tabiatiga ko`ra «oq» irqlarni «quyi» irqlar ustidan hukmron qilishga da`vat etishga qaratilgan edi. Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko`ra turuvchi kishilarga tazyiq o`tkazish, ularni haqoratlash, urish va o`ldirish kabi harakat hodisalarda yaqqol namoyon bo`ldi.

Irqchilik-ko`p qiyofali

Masalan o`zini oliy irq hisoblagan ingliz, ispan, frantsuz bosqinchilari o`rta asrlar va ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda Amerika, Avstriya, Afrika va Osiyoda erli xalqlarni ko`plab qirib tashladilar.

Yana bir yovuz g`oya-terrorizm bugungi kunda ham insoniyatga katta tahdid solmoqda. Insoniyata doimiy qo`rquv, fitna, g`alamislik muhitini vujudga keltirish, zo`ravonlik yo`li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunohsiz kishilar, jumladan, bolalarning halok bo`lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o`ldirish va portlashlar bu mudhish g`oyaning asl mohiyatini tashkil etadi. (Beslan fojiasi)

Diniy ekstremizm - ma`lum syosiy maqsadlar yo`lida va din niqobi ostida mutaassiblar yoki ularning irodasiga ko`ra ish ko`ruvchi guruhlar tomonidan olib boriladigan o`ta ashaddiy harakatlar va qarashlar majmuini anglatadi.

Diniy aqidaparstlik - esa siyosiy mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya`ni mazkur din paydo bo`lgan paytdagi arkonlar asosida hal etmoq niyatidagi harakat va qarashlardan iborat.

Dunyoning ba`zi mamlakatlarida bugungi kunda ham mavjud hukmlar dindan boshqa dinni targ`ib qilganlar jazolanadi. Jumladan, Afg`onistonda «Tolibon» harakati hukmronligi davrida ularning boshlig`i Mulla Muhammad Umarning ko`rsatmasiga binoan Afg`onistondagi buddizm diniga mansub madaniy yodgorliklar ham yo`q qilinishiga fatvo berildi. Natijada 15 asr ilgari bunyod etilgan Bamiyon shahrida dunyodagi eng yirik va balandligi 53 metrlik 2 ta budda yodgorliklari o`qqa tutilib buzib tashlandi. Bu hatti-harakatlar islom dinining boshqa dinlarga bag`rikenglik asosidagi munosabatlariga zid bo`lganligi uchun barcha taraqqiyparvar kuchlar tomonidan qoralandi. U insonni bir mute, qul,taqdirning o`yinchog`i deb qaraydi, inson qalbi, ma`naviy ehtiyojlari bilan mutlaqo hisoblashmaydi.

Islom dinining tasavuf ta`limoti ahli tarixda hayotga, jamiyat va inson masalalariga keng qaraganlar. Bu chin ma`nosi bilan insonparvarlik ta`limotidir. Chunki sufiylar, garchi chin musulmon sifatida shuhrat qozonib, islom dini tozaligi uchun kurashgan bo`lsalarda, ammo hech qachon o`zga dinlarni kamsitmaganlar. Shu sababli tasavvufni diniy bag`rikenglik ta`limoti, inson kamolotiga yo`l qidirgan hamda jaholatga qarshi kurashib kelgan ma`rifiy ta`limot, deb tushunamiz.

Hozirgi kunda bizning turmush tarzimizga, ruhiyatimizga nisbatan qilinayotgan ma`naviy-ma`rifiy hurujlarning usullari tobora noziklashib borayapti. Zararli g`oyalar turli kinofilmlar, televedenie ko`rsatuvlari va radio eshittirishlari shaklida, gazeta-juurnallar, internet tarmog`i va boshqa yo`nalishlarda uzluksiz ravishda tiqishtirilib, bizning milliy tushunchalarimizni barbod etishga, mafkuraviy immunitetimizni susaytirishga, yoshlarimizni durugaylashtirishga muntazam harakatlari sezilib turibdi. Bugungi kunda inson qalbini egallash uchun butun dunyoda to`xtovsiz kurash ketayapti. Bu zararli g`oyalarga qarshi xalqimizning or-nomusi, diniy va dunyoviy e`tiqodi, ma`naviy qadriyati, mafkuraviy immunitet vazifasini o`tashi zarur.

Alohida bir odamning ruhiyati jamoa ruhiyatiga teng emas, albatta. eng qizig`i shundaki, jamoa ruhiyatida ongsizlik darajasi balandroq. Ommaviy taassurotda Ommaviy Axborot Vositalari tomonidan aytilgan gaplarga birdan ishonish, vahimaga tushish, salbiy informatsiyaga ko`proq berilish kayfiyatlari ancha kuchli. Buni Karl Yung «jamoaviy ongsizlik» deb ta`riflagan va bugungi kunda ushbu psixologik kategoriyani topib, uni isbotlab berilgani Yungning buyuk kashfiyoti deb hisoblanadi. Karl Yung ta`limotining ahamiyati shundaki, mazkur «jamoaviy ongsizlik» holatining jamiyatda paydo bo`lishi mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishiga salbiy ta`sir qiladi.

Yurtboshimizning «Bugungi kunda g`oyani taqiq bilan, ma`muriy chorlar bilan yengib bo`lmaydi. G`oyaga qarshi faqat g`oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi ma`rifat bilan bahsga kirishish, olishishi mumkin», degan fikrlari bugungi kunda har bir vatandoshimiz uchun dasturulamal bo`lishi kerak. (I. A.

Karimov, Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T: O`zbekiston, 1998 yil10-bet)

## Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2011.
2. Davlat tili haqida (yangi tahriri). O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 22 b.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: Sharq, 1997. – 63 b. 4. Ta'lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O‘zbekiston, 1989. – 30 b.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 364 b.
6. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. –T.: O‘zbekiston, 2010
7. Karimov I.A. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. -Toshkent:O‘zbekiston, 2010.
8. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma'ruza. 12 noyabr. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
9. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.:O‘zbekiston, 2011. -370 b.
10. Karimov I.A. Tarixiy hotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir T., «O’zbekiston» 2012.

## 4-mavzu: G‘oyaviy tahdidlarning yo‘nalishlari.

### Reja:

1. Insoniyat hayotiga katta xavf tug`dirayotgan xalqaro tahdidlar.
2. Ma`naviy-mafkuraviy tahdid va uning salbiy oqibatlari.
3. Gedonizm va Egotsentrizm tushunchalariningg mazmun va mohiyati.

Bugun insoniyat taraqqiyoti turli tahdidlar ta`sirida kechmoqda. Insoniyatning xavfsizlik va barqarorligiga rahna solishga, hatto uning hayotini izdan chiqarishga qaratilgan tahdidlar kundan – kunga kuchayib bormoqda. I. Karimov o`zining “O`zbekiston XXI asrga bo`sag`asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari “ nomli asarida ta’kidlaganidek, afsuski, bu tahdidlarning hammasini ham oldindan ko`ra bilishga hamma vaqt ham muvaffaq bo`linmayotir. Ushbu tahdidlar dunyoning turli buzg`unchi kuchlari tamonidan shunday ustakorlik bilan tarqatilmoqdaki, u o`zining jozibali ta’sir kuchi orqali ko`plab insonlarni kundan – kunga o`z domiga tortib bormoqda. Sh. Paxrutdinov o`zining “Tahdid tushunchasi: nazariya va amaliyot“ risolasida tahdidlarni shartli ravishda bir necha turlarga ajratib ko`rsatadi:

iqtisodiy, sotsial, siyosiy, harbiy, tabiiy – iqlimiy. Uning fikricha, “ tahdid” deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashni chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo`naltirilgan ijtimoiy strukturani, to`g`rirog`i, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, emirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning “ kirib kelishi “ tufayli yuz beruvchi makon va zamonda muayyan salbiy siyosiy, ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish mumkin.

Hozirgi paytda insoniyat hayotiga katta xavf tug`dirayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstrimizm, narkoagressiya va SPID singari ofatlar ham odamlar hayotiga real ofat ekanligi hammamizga ma’lum. Lekin bugungi kunda hamma ham bilavermaydigan, oshkora ko`zga tashlanmaydigan, ma’naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, ular insonni o`zligidan ayirishga, ma’naviy dunyosini tubanlik, jaholat illatlari bilan to`ldirishga, hatto inson hayotini izdan chiqarib yuborishi bilan xavflidir. Inson ma’naviyatini o`z izmiga solishga qaratilgan turli tahdid, xavf – xatarlar yalpi globallashuv jarayonlari ta’sirida, axborot olamidagi yangiliklar bilan niqoblangan holda jamiyat hayotiga shu qadar shiddat va katta kuch bilan kirib kelmoqdaki, ularning tuzatib bo`lmaydigan zararini hamma ham anglayolmaydi, buni faqat keng fikrlaydigan, bu buzg`unchi, xavfli ofatning mohiyatini anglayoladigan odamlargina tushunib etadilar.

Bugun insoniyatga bo`layotgan tahdidlarning eng xatarlisi harbiy yoki iqtisodiy tahdidlar emas, balki ma’naviy – mafkuraviy tahdidlardir. Zero, inson ma’naviyatini egallashga qaratilgan har qanday mafkura insonni bemalol o`z ta’siriga bo`ysundiraoladi. Buni biz uzoqdan emas, yaqin kunlarda mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligiga qilingan turli tahdidlar misolida ham ko`rishimiz mumkin. eng so`nggi tahdid sifatida Andijon voqialarini oladigan bo`lsak, buzg`unchi kuchlar turli tuhmat, bo`hton va uydirmalar orqali xalqning fikrini chalg`itishga, ayrim odamlar ma’naviyatini egallab, mamlakatda to`s – to`palon uyushtirish, osoyishta yashayotgan butun bir xalq hayotini izdan chiqarishga harakat qilishdi.

Glaballashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bugungi kunda mafkuraviy, g`oyaviy, ma`naviy tahdidlar mamlakatimiz kelajagi uchun eng katta xavf-xatarlardan biri bo`lib qolmoqda. Ilm-fan, texnika yutuqlari rivojlanib borayotgan bugungi kunda bunday tahdidlar yanada xavfliroq bo`lib bormoqda. Milliy ma`naviyatga qarshi qaratilgan tahdidlar haqida gapirib I.A.Karimov shunday deydilar: “**Binobarin, ma`naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o`z-o`zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog`lom avlod kelajagini ta`minlash yo`lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin”.**

Mafkuraviy, g`oyaviy, ma`naviy taxdidlarni o`z vaqtida seza olmaslik yoki unga e`tiborsizlik tuzatish qiyin bo`lgan holatlarga olib kelishi mumkin.

Tabiatda bo`shliq bo`lmagani singari jamiyatning ma`naviy hayotida ham bo`shliq bo`lmasligi kerak, qaramlik yillarida bosqinchilarning milliy ma`naviyatimizni yo`qotishga qaratilgan siyosati oqibatida yuzaga kelgan bo`shliqni insoniy fazilatlarning o`rniga qabixlik, buzuqlik, vahshiylik singari

illatlar to`ldirgan edi. Bunday illatlarning ildiz otib ketishi, ma`naviy qashshoqlik xalqimiz orasidagi mehr-oqibatlilik, millatparvarlik, fidoiylik singari fazilatlarning yo`qolib borishiga sababchi bo`layotgan edi. Mafkuraviy, g`oyaviy, ma`naviy taxdidlarni oldini olishning asosiy yo`li milliy-ma`naviy tiklanishga erishish, milliy ma`naviyatni yuksaltirishdir.

Atrofga nazar tashlar ekanmiz bunday taxdidlar oqibatida dunyoning ayrim xududlarida ma`naviy yo`qotishlar sodir bo`layotganligini, butun boshliq millatlarning asrlar mobaynida to`plab kelgan ma`naviy meroslari yo`qolib borayotganligini, ularning turmush tarzlari, milliy mentalitetlari izdan chiqayotganligini ko`rish mumkin.

Mafkuraviy, g`oyaviy, ma`naviy taxdidlarning eng xavfli tomoni shundan iboratki u jamiyat a`zolarini eng avvalambor, yoshlarni o`z vataniga, xalqiga, millatiga bo`lgan muxabbatini so`ndiradi, ulardagi millatparvarlik, vatanparvarlik g`oyalaridan chalg`itib, ularni befarq kishilarga aylantiradi.

I.A.Karimov milliy-ma`naviy tiklanish yo`lidagi tahdid to`g`risida gapirib shunday deydi **“Ma`naviy taxdid deganda, avvalo, tili, dini, e`tiqodan qat`i nazar, har qaysi odamning tom ma`nodagi erkin inson bo`lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko`zda tutadigan mafkuraviy, g`oyaiy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o`ylayman”.**

Ma’naviyatga bo`layotgan tahdidlarning xavfli tamoni shundaki, buzg`unchi kuchlar o`zlariga nishon qilib, avvalombor, barchamizning eng aziz, eng katta boyligimiz, ko`zimiz qorasi bo`lmish yoshlarimizni tanlashmoqda, turli niqoblar, birinchi galda so`z va fikr erkinligi, inson va jamiyat erkinligi deb atalgan niqoblar bilan ularning fikrini chalg`itishga, zamonaviy usul va vositalar orqali ularning hali murg`ak qalblarini egallashga intilmoqdalar. Ular iloji boricha, yoshlar ongida asrlar davomida shakllanib kelgan milliy qadriyatlarga nisbatan bepisandlik, hurmatsizlik kayfiyatini uyg`otib, o`z mafkurasi va g`oyasini singdirishga intilmoqdalar.

Xalkaro maydonda yuz berayotgan ijtimoiy – siyosiy jarayonga nazar tashlasak, turli siyosiy kuchlar o`zlarining strategik maksadlariga intilib, « erkinlik » va « demokratiya » niqobi ostida faol harakatda. Bu buzg`unchi kuchlar o`z fa’oliyatlarini hamon ustalik, silliqlik bilan, bejirim bezaklar bilan olib bormokdaki, har kanday kishini manfur niyatlari girdobiga tortish imkoniga ega. Bu kuchlar o`z niyatlari yulida millionlab mablag`larni ayayotganlari yo`k, ular er yuzining istagan nuktasida, istagan xalqni o`zligidan ayirish va o`z ta’sir doirasiga olishni niyat qilib, buning ortidan millionlab foyda, daromadni ko`zlab ish yuritmoqdalar.

Insoniyat tarixi davomida har bir xalk shakllanishi asnosida uning milliy ma’naviyati, madaniyati ham o`z shakl – shamoyilini topib bordi. Ma’naviyat bobida sharqona va g`arbona qarashlar vujudga keldi. Har bir qutb ma’naviyatining o`ziga xos tamonlari bo`lib, ularning o`zaro nomutanosib tamonlari ham mavjud. Sharq ma’naviyati kabi g`arb ma’naviyatining ham boy imkoniyatlari, fazilatlari bugungi g`arb dunyosi ma’naviy olamini boyitib kelmokda. Bugun g`arb ma’naviyati bilan bog`lik qarashlar sifatida

taraqqiyotning so`nggi davriga xos shunday tushunchalar paydo bo`ldiki, afsuski, ularning ba’zilari hatto bugun g`arb dunyosinidagi sog`lom ma’naviyatli insonlar qalbini larzaga solgani holda, sharqona ma’naviyatga nisbatan g`oyaviy tahdid, tajavvuz sifatida namoyon bo`lmokda. Hatto g`arbning o`zi xam bugun o`zini ojiz sezayotgan buzg`unchi kuchlar dunyoga shunday illatlarni targ`ib – tashviq etmokdalarki, bu tashviqotlar zamirida inson ma’naviyati, axloqi, millat manfaati bilan bog`lik g`oyalar yotibdiki, butun bir xalq, millat taqdiri, kelajak avlod hayoti xavf ostida. Katta imkoniyatga ega bu kuchlar o`z mafkurasini singdirishga, ming yillik azaliy va muqaddas qadriyatlarimizdan G`arb qadriyatlarini ustun qo`yishga urinadi. Ular bu qadriyatlarining tarixini, mazmun – mohiyatini hech qachon xolis tushuntirmaydi, aksincha, ularning ma’nosi va falsafasini o`z g`arazli maqsadlariga moslab, soxtalashtirib joriy etishga harakat qiladi. Ular o`z g`arazli maqsadlarini “erkinlik“, “ demokratiya “ singari chiroyli so`zlar bilan bezab, o`rab – chirmab, dunyo xalqlari turmush tarziga kiritishga zo`r berib urinmoqdalar.

Hozirgi kunda G`arb dunyosida erkinlikni niqob qilib olgan ayrim kimsalar nafaqat bizning milliy an’analarimiz, balki barcha xalqlar uchun qadrli bo`lgan insoniylik aqidalariga to`g`ri kelmaydigan turli buzg`unchiliklarni ommaviy axborot vositalari orqali ochiqdan – ochiq targ`ib etayotganini ko`rib turibmiz. Natijada bugun odamlarni, xususan, yoshlarni buzg`unchi illatlar ta’siridan himoya qilish masalasi davrimizning dolzarb muommosiga aylangan. Afsuski, bugun jamiyatimzda ba’zan bu ta’sirlar girdobiga tushib qolib, o`z hayotini izdan chiqargan, jaholat, buzg`unchiliklar tuzog`iga tushib qolgan kimsalarning paydo bo`layotgani sir emas.

Insoniyat tarixida ezgulik va bunyodkor g`oyalar bilan yovuzlik va buzg`unchilik g`oyalar o`rtasida hamisha kurash bo`lganligini bilamiz. Insoniyatning, jumladan, O`zbekistonning bir necha yuz yillik tarixida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo`ravonlik, kulfat urug`larini sochish va qon to`kilishiga sabab bo`lgan buzg`unchi g`oyalar va mafkuralarning halokatli ta`siri bilan bog`liq qayg`uli sahifalar juda ko`p. Bu g`oyalar o`zlarida siyosiy bosqinchilik va mustabidlik intilshlarini goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda diniy, milliy, sifiy shiorlarni bayroq qilib chiqqan.

Jumladan, bol’shevizm bilan bir qatorda, XX asrning boshida mustabid g`oya va mafkuraning boshqa shakli-fashizm paydo bo`ldi.

Bol’shevizm mafkurasi bo`lgan kommunistik ta`limot xalqlarning milliy-etnik o`ziga xosliklarini yo`qotish, «proletar baynalminalligi» shiori bilan maydonga chiqqan bo`lsa, fashizm bir hukmron millatning «irqiy-etnik sofligi» ni mutloqlashtirshni targ`ib-tashviq etdi. U irqchilikning xomiysi hisoblanadi.

«Rasizm» so`zi «rasa» (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Yevropada «insoniyat nasli» ni turli irqiy guruhlar, jumladan, «oq» va «sariq» irqqa ajratish uchun qo`llana boshladi.

Irqchilik ta`limoti «oq tanli» larning afzalligi, ularning azaldan «oliy irq» etib tanlangani, boshqa irqlarning esa «oq» larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog`onalarida turishini asoslab beradi. Uning asosiy g`oyasi o`zining «ilohiy» tabiatiga ko`ra «oq» irqlarni «quyi»

irqlar ustidan hukmron qilishga da`vat etishga qaratilgan edi. Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko`ra turuvchi kishilarga tazyiq o`tkazish, ularni haqoratlash, urish va o`ldirish kabi harakat hodisalarda yaqqol namoyon bo`ldi.

Irqchilik-ko`p qiyofali

Masalan o`zini oliy irq hisoblagan ingliz, ispan, frantsuz bosqinchilari o`rta asrlar va ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda Amerika, Avstriya, Afrika va Osiyoda erli xalqlarni ko`plab qirib tashladilar.

Yana bir yovuz g`oya-terrorizm bugungi kunda ham insoniyatga katta tahdid solmoqda. Insoniyata doimiy qo`rquv, fitna, g`alamislik muhitini vujudga keltirish, zo`ravonlik yo`li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunohsiz kishilar, jumladan, bolalarning halok bo`lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o`ldirish va portlashlar bu mudhish g`oyaning asl mohiyatini tashkil etadi. (Beslan fojiasi)

Diniy ekstremizm - ma`lum syosiy maqsadlar yo`lida va din niqobi ostida mutaassiblar yoki ularning irodasiga ko`ra ish ko`ruvchi guruhlar tomonidan olib boriladigan o`ta ashaddiy harakatlar va qarashlar majmuini anglatadi.

Diniy aqidaparstlik - esa siyosiy mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya`ni mazkur din paydo bo`lgan paytdagi arkonlar asosida hal etmoq niyatidagi harakat va qarashlardan iborat.

Dunyoning ba`zi mamlakatlarida bugungi kunda ham mavjud hukmlar dindan boshqa dinni targ`ib qilganlar jazolanadi. Jumladan, Afg`onistonda «Tolibon» harakati hukmronligi davrida ularning boshlig`i Mulla Muhammad Umarning ko`rsatmasiga binoan Afg`onistondagi buddizm diniga mansub madaniy yodgorliklar ham yo`q qilinishiga fatvo berildi. Natijada 15 asr ilgari bunyod etilgan Bamiyon shahrida dunyodagi eng yirik va balandligi 53 metrlik 2 ta budda yodgorliklari o`qqa tutilib buzib tashlandi. Bu hatti-harakatlar islom dinining boshqa dinlarga bag`rikenglik asosidagi munosabatlariga zid bo`lganligi uchun barcha taraqqiyparvar kuchlar tomonidan qoralandi. U insonni bir mute, qul,taqdirning o`yinchog`i deb qaraydi, inson qalbi, ma`naviy ehtiyojlari bilan mutlaqo hisoblashmaydi.

Islom dinining tasavuf ta`limoti ahli tarixda hayotga, jamiyat va inson masalalariga keng qaraganlar. Bu chin ma`nosi bilan insonparvarlik ta`limotidir. Chunki sufiylar, garchi chin musulmon sifatida shuhrat qozonib, islom dini tozaligi uchun kurashgan bo`lsalarda, ammo hech qachon o`zga dinlarni kamsitmaganlar. Shu sababli tasavvufni diniy bag`rikenglik ta`limoti, inson kamolotiga yo`l qidirgan hamda jaholatga qarshi kurashib kelgan ma`rifiy ta`limot, deb tushunamiz.

Hozirgi kunda bizning turmush tarzimizga, ruhiyatimizga nisbatan qilinayotgan ma`naviy-ma`rifiy hurujlarning usullari tobora noziklashib borayapti. Zararli g`oyalar turli kinofilmlar, televedenie ko`rsatuvlari va radio eshittirishlari shaklida, gazeta-juurnallar, internet tarmog`i va boshqa yo`nalishlarda uzluksiz ravishda tiqishtirilib, bizning milliy tushunchalarimizni barbod etishga, mafkuraviy immunitetimizni susaytirishga, yoshlarimizni durugaylashtirishga muntazam harakatlari sezilib turibdi. Bugungi kunda inson qalbini egallash uchun butun dunyoda to`xtovsiz kurash ketayapti. Bu zararli g`oyalarga qarshi xalqimizning or-

nomusi, diniy va dunyoviy e`tiqodi, ma`naviy qadriyati, mafkuraviy immunitet vazifasini o`tashi zarur.

Alohida bir odamning ruhiyati jamoa ruhiyatiga teng emas, albatta. eng qizig`i shundaki, jamoa ruhiyatida ongsizlik darajasi balandroq. Ommaviy taassurotda Ommaviy Axborot Vositalari tomonidan aytilgan gaplarga birdan ishonish, vahimaga tushish, salbiy informatsiyaga ko`proq berilish kayfiyatlari ancha kuchli. Buni Karl Yung «jamoaviy ongsizlik» deb ta`riflagan va bugungi kunda ushbu psixologik kategoriyani topib, uni isbotlab berilgani Yungning buyuk kashfiyoti deb hisoblanadi. Karl Yung ta`limotining ahamiyati shundaki, mazkur «jamoaviy ongsizlik» holatining jamiyatda paydo bo`lishi mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishiga salbiy ta`sir qiladi.

Yurtboshimizning «Bugungi kunda g`oyani taqiq bilan, ma`muriy chorlar bilan yengib bo`lmaydi. G`oyaga qarshi faqat g`oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi ma`rifat bilan bahsga kirishish, olishishi mumkin», degan fikrlari bugungi kunda har bir vatandoshimiz uchun dasturulamal bo`lishi kerak. (I. A. Karimov, Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T: O`zbekiston, 1998 yil10-bet)

Yaqinda «Internet» sahifalari amerikalik siyosatshunos olim Patrik B'yukenenning «Smert Zapada» nomli kitobi paydo bo`ldi. e`tiborga molik jihat shuki, katta hajmdagi bir kitobning so`z boshisidayoq, muallif yaxlit bir millatlar va xalqlar taqdiriga aloqador bo`lgan voqealarni, G`arbning «taqdiri»ni jamiyat ma`naviyatidagi inqirozlarga, jumladan, oila va nikoh, tug`ilish va aholining tabiiy o`sishi borasidagi inqirozlar tahliliga bag`ishlagan. Ming taassuf va afsus bilan u «Yevropa «amerikacha» madaniyatni qabul qilib, bugun uning hayot tarziga singib ketganligiga qarshilik ko`rsatishga qodir emasligini e`tirof etadi. B'yukenenning fikricha, sanoati va yuqori texnologiyalari rivoj topgan jamiyatda odamlarning birdan boyib ketish, to`kin hayotga erishishga bo`lgan egoistik intilishi ularning asl qadriyatlarga, jumladan, oila va nikohga, yoshlar tarbiyasiga bo`lgan munosabatlarida keskin inqirozni keltirib chiqardi. Bu holatni u gedonistik psixologiyaning asosi deb baholab, uning oqibati jamiyatda qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarayotganligini ochiq e`tirof etadi.

*Gedonizmnin*g ma`nosi shundayki, shaxs va uning xulq-atvori motivlarida faqat nimalardandir lazzatlanish, qoniqish olish va o`zidagi ichki ruhiy iztiroblardan xoli bo`lishga intilish ustivor bo`ladi. To`g`ri, aslida insonning to`q va farovon hayotga intilishi, boy-badavlat yashashni xohlagani ayb emas, lekin bunday to`kinchilik insoniylikka qarshi bo`lishi mumkin emas. Muallifning tashvishi va uni xavortirga solgan narsa shuki, bunday ong va shuurdagi o`zgarishlar evropa xalqlarining eng zarur va muhim qadriyatlarga nisbatan salbiy munosabatlarda ifodalanadi. Masalan, bugungi Evropada tug`ilayotgan bolalarning har uchtasidan bittasi nikohsiz tug`ilayotganligi, tug`ilishning keskin kamayib ketganligini, umuman ayollar o`zidan sog`lom zurriyod qoldirishni istamayotganligi, mablag`i etarli bo`la turib, farzand tug`ilishi va uni tarbiyalashga ketadigan mablag`ni qizg`anayotganligi yaqqol namoyon bo`lmoqda. Umuman G`arb ayollarining aksariyati turmushga chiqib, o`zidan munosib zurriyod qoldirish niyatidan tobora uzoqlashib bormoqda.

**Olimlarni mavjud ahvolni ijobiy tomonga o`zgartirish uchun farzand tug`ilishi uchun davlat tomonidan ajratiladigan nafaqalarning, suyunchi pullar miqdorining orttirilishi, onalar uchun alohida imtiyozlarning joriy etilishi yoki bola soni ortgani uchun oilaga ko`rsatiladigan muruvvat ayollarni sog`lom oila qurib, unda sog`lom farzandlarni tarbiyalashga undarmikin, degan savol o`ylantirmoqda va mulohazalar mantig`idan shu narsa ayon bo`lmoqdaki, zamonaviy evropaliklarni bunday imtiyozlardan ko`ra, mansab pog`onalaridan ko`tarilib, o`z manfaatinigina o`ylab yashash ko`proq qiziqtiradi. Chunki zamonaviy G`arb yoshlari, xotin-qizlar uchun bu kabi imtiyozlar bola tug`ilishi va bu bilan bog`liq tashvishlar oldida hech gap emas. Shu kabi gedonistik psixologiya bizning yoshlarimiz ongida paydo bo`lmasligi, ochiq axborotlar makonida bemalol turli ma`lumotlarni qabul qilish imkoniyati paydo bo`lgan hozirgi sharoitda ularni ezgu maqsadlarga yqnaltirish, ularda sog`lom dunyoqarash, ertangi kunga ishonch, sobit g`oya, sog`lom hissiyotlar, el-yurt oldida, oilasi va yaqinlari oldida insoniy javobgarlik va yuksak mas`uliyat hislarini tarbiyalash millat manfaatiga bevosita aloqador vazifamizdir. Bunday aloqalarning kengayishi haqiqiy ma`naviy va madaniy qadriyatlarni munosib baholash imkonini berdi. Hozirgi yoshlar ham, ularning ota-onalari ham uchragan kinoni ko`rib, duch kelgan maza-matrasi yo`q kitoblarni o`qib ketayotgani yo`q. Ataylab yurtimizga olib kelinayotgan g`arbning sun`iylashtirilgan san`atidan, «keng iste`mol»dagi madaniyatidan norozilik sezilib turibdi. Bunday mahsulotning ilgarigi «man etilgan ne`mat»ga xos «lazzati», jozibadorligi deyarli qolmagan. Hozirgi kunda xorijning madaniy qadriyatlaridan foydalanishga ancha jiddiy va tanlab yondashish ehtiyoji kuchayib bormoqda. Lekin ochiq ommaviy axborot vositalari orqali tinimsiz ma`lumotlar quyulib kelayotgan sharoitda aynan hali ongi shakllanib ulgurmagan yoshlar uchun tahdid ham, ataylab uyushtirilayotgan mafkuraviy tajovuzlar ham bor.**

Shunday sharoitda Prezidentimiz Islom Karimovning fikrlari biz uchun hamisha dalda bo`ladi: «Eng muhimi, qalbimizda g`ururimiz, bilagimizda kuchimiz bor ekan, biz tinchlikni himoya qilishga, unga xavf solayotgan kuchlarga qarshi kurashishga, qaddimizni tik tutib, boshimizni baland ko`tarib yashashga qodirmiz. Bizni qo`rqitmoqchi bo`layotgan g`alamislar shuni bilib qo`ysinki, biz hech kimga bosh egmaganmiz va hech qachon bosh egmaymiz. Bunda bizga milliy g`oyamiz va mafkura g`oyaviy tayanch va asos bo`ladi (2001 yil 10 oktyabr).

Zero, milliy mafkura xalqning maqsad-muddaolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o`tishda uning ruhini ko`tarib, suyanch va tayanch bo`ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko`plab hayotiy va ma`naviy muammolarga javob izlaydi. U insonga faqat moddiy boyliklar va ne`matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan aql-zakovat, iymon-e`tiqod tufayli yuksak ma`naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyoda uning taraqqiyot yo`lini yoritib beradi. Istiqlol mafkurasi ko`pmillatli O`zbekiston xalqining ezgu g`oya - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo`lidagi asriy orzu-intilishlari, hayotiy ideallarini o`zida aks ettiradi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari ta`kidlaganlaridek, «Milliy g`oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, ser-qirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o`zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o`ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g`oyalarning ma`no-mazmunini teran anglab etishga xizmat qiladi. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha`nu sharafi, or-nomusi, ishonch-e`tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o`ziga xos taraqqiyot yo`li, turmush

tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g`oyalar tizimidir.

Xalqni buyuk kelajak va ulug`vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat`i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas`uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an`analarimizga munosib bo`lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da`vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir.

Davlatimiz rahbarining ko`rsatmalari va istiqbolli g`oyalaridan kelib chiqib, hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o`sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida *mafkuraviy immunitet* hosil qilish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etgan vazifalarimizdandir. Bu ishni bamisoli niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog`bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo`l bilan amalga oshirish lozim.

Yaqinda «Internet» sahifalari amerikalik siyosatshunos olim Patrik B’yukenenning «Smert Zapada» nomli kitobi paydo bo`ldi. e`tiborga molik jihat shuki, katta hajmdagi bir kitobning so`z boshisidayoq, muallif yaxlit bir millatlar va xalqlar taqdiriga aloqador bo`lgan voqealarni, G`arbning «taqdiri»ni jamiyat ma`naviyatidagi inqirozlarga, jumladan, oila va nikoh, tug`ilish va aholining tabiiy o`sishi borasidagi inqirozlar tahliliga bag`ishlagan. Ming taassuf va afsus bilan u «Yevropa «amerikacha» madaniyatni qabul qilib, bugun uning hayot tarziga singib ketganligiga qarshilik ko`rsatishga qodir emasligini e`tirof etadi. B’yukenenning fikricha, sanoati va yuqori texnologiyalari rivoj topgan jamiyatda odamlarning birdan boyib ketish, to`kin hayotga erishishga bo`lgan egoistik intilishi ularning asl qadriyatlarga, jumladan, oila va nikohga, yoshlar tarbiyasiga bo`lgan munosabatlarida keskin inqirozni keltirib chiqardi. Bu holatni u gedonistik psixologiyaning asosi deb baholab, uning oqibati jamiyatda qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarayotganligini ochiq e`tirof etadi.

*Gedonizmnin*g ma`nosi shundayki, shaxs va uning xulq-atvori motivlarida faqat nimalardandir lazzatlanish, qoniqish olish va o`zidagi ichki ruhiy iztiroblardan xoli bo`lishga intilish ustivor bo`ladi. To`g`ri, aslida insonning to`q va farovon hayotga intilishi, boy-badavlat yashashni xohlagani ayb emas, lekin bunday to`kinchilik insoniylikka qarshi bo`lishi mumkin emas. Muallifning tashvishi va uni xavortirga solgan narsa shuki, bunday ong va shuurdagi o`zgarishlar evropa xalqlarining eng zarur va muhim qadriyatlarga nisbatan salbiy munosabatlarda ifodalanadi. Masalan, bugungi Evropada tug`ilayotgan bolalarning har uchtasidan bittasi nikohsiz tug`ilayotganligi, tug`ilishning keskin kamayib ketganligini, umuman ayollar o`zidan sog`lom zurriyod qoldirishni istamayotganligi, mablag`i etarli bo`la turib, farzand tug`ilishi va uni tarbiyalashga ketadigan mablag`ni qizg`anayotganligi yaqqol namoyon bo`lmoqda. Umuman G`arb ayollarining aksariyati turmushga chiqib, o`zidan munosib zurriyod qoldirish niyatidan tobora uzoqlashib bormoqda.

Olimlarni mavjud ahvolni ijobiy tomonga o`zgartirish uchun farzand tug`ilishi uchun davlat tomonidan ajratiladigan nafaqalarning, suyunchi pullar miqdorining

orttirilishi, onalar uchun alohida imtiyozlarning joriy etilishi yoki bola soni ortgani uchun oilaga ko`rsatiladigan muruvvat ayollarni sog`lom oila qurib, unda sog`lom farzandlarni tarbiyalashga undarmikin, degan savol o`ylantirmoqda va mulohazalar mantig`idan shu narsa ayon bo`lmoqdaki, zamonaviy evropaliklarni bunday imtiyozlardan ko`ra, mansab pog`onalaridan ko`tarilib, o`z manfaatinigina o`ylab yashash ko`proq qiziqtiradi. Chunki zamonaviy G`arb yoshlari, xotin-qizlar uchun bu kabi imtiyozlar bola tug`ilishi va bu bilan bog`liq tashvishlar oldida hech gap emas. Shu kabi gedonistik psixologiya bizning yoshlarimiz ongida paydo bo`lmasligi, ochiq axborotlar makonida bemalol turli ma`lumotlarni qabul qilish imkoniyati paydo bo`lgan hozirgi sharoitda ularni ezgu maqsadlarga yqnaltirish, ularda sog`lom dunyoqarash, ertangi kunga ishonch, sobit g`oya, sog`lom hissiyotlar, el-yurt oldida, oilasi va yaqinlari oldida insoniy javobgarlik va yuksak mas`uliyat hislarini tarbiyalash millat manfaatiga bevosita aloqador vazifamizdir.

Prezidentimiz Islom Karimovning fikrlari biz uchun hamisha dalda bo`ladi: «Eng muhimi, qalbimizda g`ururimiz, bilagimizda kuchimiz bor ekan, biz tinchlikni himoya qilishga, unga xavf solayotgan kuchlarga qarshi kurashishga, qaddimizni tik tutib, boshimizni baland ko`tarib yashashga qodirmiz. Bizni qo`rqitmoqchi bo`layotgan g`alamislar shuni bilib qo`ysinki, biz hech kimga bosh egmaganmiz va hech qachon bosh egmaymiz. Bunda bizga milliy g`oyamiz va mafkura g`oyaviy tayanch va asos bo`ladi (2001 yil 10 oktyabr).

Zero, milliy mafkura xalqning maqsad-muddaolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o`tishda uning ruhini ko`tarib, suyanch va tayanch bo`ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko`plab hayotiy va ma`naviy muammolarga javob izlaydi. U insonga faqat moddiy boyliklar va ne`matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan aql-zakovat, iymon-e`tiqod tufayli yuksak ma`naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyoda uning taraqqiyot yo`lini yoritib beradi. Istiqlol mafkurasi ko`pmillatli O`zbekiston xalqining ezgu g`oya - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo`lidagi asriy orzu-intilishlari, hayotiy ideallarini o`zida aks ettiradi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari ta`kidlaganlaridek, «Milliy g`oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, ser-qirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o`zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o`ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g`oyalarning ma`no-mazmunini teran anglab etishga xizmat qiladi. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha`nu sharafi, or-nomusi, ishonch-e`tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o`ziga xos taraqqiyot yo`li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g`oyalar tizimidir.

Xalqni buyuk kelajak va ulug`vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat`i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas`uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an`analarimizga munosib bo`lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni

yaratuvchilik ishlariga da`vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir.

Davlatimiz rahbarining ko`rsatmalari va istiqbolli g`oyalaridan kelib chiqib, hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o`sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida *mafkuraviy immunitet* hosil qilish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etgan vazifalarimizdandir. Bu ishni bamisoli niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog`bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo`l bilan amalga oshirish lozim.

Egotsentrizm so`zi lotincha *«ego»* - *men* va *«centrum»* - *doira markazi* so`zlaridan olingan. Ma`nosi - o`z fikr-o`ylari, manfaatlari doirasida qotib qolgan insonning atrof-muhit va odamlarga oid o`z bilimlari va o`zgalarga munosabatini o`zgartira olmasligini bildiradi. Psixologiyada egotsentrizmning bir qancha turlari - bilishga oid, axloqiy va kommunikativ egotsentrizmlar farqlanadi. Oxirgisi - boshqalarga biror xil ma`lumot berish jarayonida ularning fikri bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslikda namoyon bo`ladi. Nazarimizda, zamonaviy informatsion xurujlarning mualliflarida aynan shu kabi egotsentrizm kuzatiladi va ular o`zlariga o`xshash faqat o`z manfaatinigina ko`zlaydigan avlod ongini qamrab olishga harakat qiladi. Shuning uchun ham shaxsga psixologik himoya zarur. Psixologik himoya bo`lishi uchun shaxsda mustaqil fikr bo`lishi lozim.

## ADABIYoTLAR:


1. O`zbekiston Respublikasi Konstittsiyasi. –T. : 2008.
2. Karimov I. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T. : O`zbekiston, 1997.
3. Karimov I. Milliy mafkura – davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy-ma`naviy kuch-qudrat manbai. T. 8. –T. : O`zbekiston, 2000. 462-474 betlar.
4. Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi – xalqni xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. G` T. 7. -T. : O`zbekiston, 1998. 84-102 betlar.
5. Karimov I. Sog`lom avlod tarbiyasi – barchamizning muqaddas burchimiz. T 8. . -T.: O`zbekiston, 2000. 424-442 betlar.
6. Karimov I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008.
7. Milliy istiqlol g`oyasi. –T.: Akademiya, 2005.
8. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: Yangi asr avlodi», 2001.


## 5-Mavzu: Mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi.

### Reja:

**1. Milliy-mafkura targ`ibotida ommaviy axborot vositalarining o`rni.**
**2. Adabiyot va san’atda milliy mafkura targ`iboti masalasi.**

Milliy ma’naviyat targ`ibotida ommaviy axborot vositalarining o`rni katta. Ayniqsa bugungi texnika asrida har kuni, har daqiqada radio,

televidenie, internet saytlari orqali dunyodagi barcha yangiliklardan voqif bulib turibmiz. Xoxlaymizmi, yo`qmi, ommaviy axborot vositalari yordamida tarqatilayotgan turli buzg`unchi g`oyalarga ham duch kelib turibmiz. Buzg`unchi kuchlar o`z g`oya, mafkuralarini har kun va har daqiqada ommaviy axborot vositalaridan tarqatmokdalarki, mamlakatimizning eng chekka kishlog`iga ham u bemalol etib bormoqda. I. Karimov aytganidek, hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o`z kelajagini o`ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas .

Buzg`unchi kuchlar o`zlarining insonlarni o`zligidan, milliy xususiyatlaridan ayirishga qaratilgan g`oyalarini ommaviy vositalar orqali juda chiroyli, har qanday odamning diqqat–etiborini tortaolish darajasida tarqatish orqali, ayniqsa, murg`ak, hali dunyoqarashi to`la shakllanmagan yoshlarni o`z muxlislariga aylantirmoqdalar. Bugungi yoshlar avvalgi yoshlardan keskin farq qiladi. Ular ko`rgan, eshitgan va o`qigan yangilikni amalda sinab ko`rishga o`ch. Aslida bu yoshlikka xos xususiyat. Buni yaxshi bilgan buzg`unchi kuchlar o`zlarining manfur niyatlarini ustalik bilan yoshlar qalbiga singdirishga kirishib ketgan, ular bu yo`lda har qanday usul, vosita, mablag`ni ayayotganlari yo`q. Bu ishlarga maxsus mutaxasislar jalb etilayotgani berilayotgan axborotning yanada mukammal va chiroyli chiqishiga olib kelmoqda, bugun ba'zan beozorgina bo`lib tuyulgan musiqa, oddiygina mul'tfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanmoqda.

Istiqlol tufayli mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari rivoji yo`lga qo`yilib, ommaviy axborot vositalari orqali dunyoda sodir bo`layotgan ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy o`zgarishlar, ularning mazmun – mohiyatini ochib berish hamda milliy ma'naviyatimiz targ`ibotiga alohida ahamiyat berilmoqda. Bugun televidenie orqali berilayotgan ko`rsatuvlar, radio eshittirishlari va gazeta – jurnallarda e'lon kilinayotgan maqolalar asosan xalqimizning milliy qadriyatlari, urf – odat, an'analari targ`ib – tashviqotiga qaratilgan. Tariximiz, udumlarimiz, milliy – ma'naviy tiklanish bilan bog`lik amalga oshirilayotgan ishlar ko`lamini yoritish ommaviy axborot vositalarining asosiy mavzusiga aylangan. Millatning milliy ma'naviyatini tiklash, odamlar qalbida milliy ma'naviyatimizga hurmat, ular o`rtasida vatanparvarlik, insoniylik g`oyalarini targ`ib etish va odamlar ongida turli buzg`unchi g`oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni hosil etishda eng maqbul va tezkor vosita bu - ommaviy axborot vositalari ekanligini hayotning o`zi ko`rsatib turibdi. I. Karimov ta'biri bilan aytganda, hozirgi paytda hayotimizni elektron axborot vositalari, xususan, televedenie va radiosiz umuman tasavvur etib bo`lmaydi. Bugungi kunda ular bir vaqtning o`zida axborot maydoni, ham ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy – ma'rifiy minbar, shu bilan birga insonga madaniy, badiiy – estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilgan. Ammo turli buzg`unchi tahdid va ta'sirlarga qarshi kurashish yo`lida hali qiladigan ishlarimiz yo`q emas. Albatta, bu mavzuda bahs – munozaralar tashkil etish zarur, ammo bu haqda so`z yuritganda, avvalo, yoshlar

qalbiga yo`l topib, ulur tushunadigan tarzda, sodda va aniq qilib gapirish kerak. Zerikarli, quruq ma’ruzalarni o`qib yoki oyat va hadisni arabcha aytib bergan bilan ish bitmaydi. Bu borada har tamonlama chuqur o`ylangan, ta’sirchan, zamonaviy informatsion usullarga asoslangan, jamoatchilikda sog`lom fikrni shakllantirishga qaratilgan targ`ibot – tashviqot ishlarini mahorat bilan olib borish lozim. Bugun inson ma’naviyati, uning ongi uchun kurash ketayotgan ekan,ommaviy axborot vositalari xalqimiz ma’naviyatiga ta’sir qilishga urinayotgan buzg`unchi kuchlarga qarshi o`zining ezgu g`oyalar targ`iboti bilan qarshi turishi kerak.

Bugungi g`oyalar kurashi ketayotgan davrda inson ma’naviyatini boyituvchi ma’naviy ozuqa sifatida xizmat kiluvchi vosita bu adabiyot va san’atdir. Adabiyot va san’at azal – azaldan inson qalbining ifodachisi sifatida xalq hayotini yorqin buyoqlarda aks ettirib kelgan. Adabiyot va san’at hamisha, turmushning mushkul damlarida ham, quvonchli paytida ham odamlar kayfiyatiga ta’sir ko`rsatib, ularga ma’naviy madad bo`lib kelgan. Hayotning barcha tamonlarini o`zida mujassam etgan adabiyot va san’at kezi kelganda xaqiqat va adolat jarchisi bulib maydonga chiqqan.

Mustakillikdan so`ng adabiyot va san’atga bo`lgan e’tibor kuchaydi. Milliy – ma’naviy tiklanish jarayonida hukumatimiz tamonidan adabiyot va sanatni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratildi. Yurtimizda ma’naviyatimizning g`oyat muhim va uzviy qismi bo`lgan adabiyotni rivojlantirish natijasida bugun uning qamrab olayotgan mavzular ko`lami ham kengaygan. Yaratilayotgan asarlarimizda xalqimizning tarixi, milliy urf – odat va an’analari, qadriyatlari hamda xalq ma’naviyatini boyituvchi, uning turmush tarzi bilan bog`liq masalalar qamrab olinmoqda.

“Adabiyot–inson qalbining injineridir”,-degan edi buyuk shaxslardan biri. Inson qalbini turli g`oyalar bilan boyituvchi, uni muayyan maqsad sari etaklay oluvchi qudratga ega adabiyot o`zining nozik jihatlari bilan ajralib turadi. Adabiyot inson ruhiyatiga, uning kayfiyatiga ta’sir qilib, uni o`z izmiga soladi va uning orzu niyatlarini o`zida ifoda etadi. Bugun yaratilayotgan asarlarimiz xalqimiz hayoti, turmush tarzi, tarixi, urf – odat va an’analarini yoritish bilan birga hayotimizga, milliy qiyofamizga tahdid va tajovvuz qilayotgan turli buzg`unchi, yot g`oya, mafkuralar mazmun – mohiyatini ochib berishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. “ Har bir millatning dunyoda borligini ko`rsatadurg`on oynasi – til va adabiyotidir “ degan edi buyuk ma’rifatparvar A.Avloniy. Adabiyot o`zining halollik, poklik, adolat, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi g`oyalari bilan inson ma’naviyatini boyitib, uning qalbida xalq hayotiga salbiy ta’sir qiluvchi, turli buzg`unchi g`oyalarga qarshi mafkuraviy qurol sifatida xizmat qilmoqda. Adabiyot, ayniqsa, badiiy adabiyot bugungi mafkuraviy kurashda juda katta ta’sir kuchiga ega. Shuning uchun adabiyotdan mafkuraviy minbar sifatida ongimizga, qalbimizga kirib o`rnashib olishga urinayotgan giyohvandlik, aqidaparastlik, diniy ekstrimizm va boshqa milliy qiyofamizga yot va begona, zararli oqim va g`oyalarga qarshi kurashish mumkin. Buzg`unchi kuchlar targ`ib qilayotgan g`aliz niyatlariga qarshi ezgu g`oyalar bilan yo`g`rilgan milliy adabiyotimiz bilan javob berish zarur. Bunda buyuk allomalarimiz

yaratgan asarlar, ota – bobolarimiz qoldirgan boy ma’naviy me’rosga tayangan holda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi xalq qaxramonlari siymosini yosh avlodga o`rnak qilib ko`rsatish orqali ular qalbida vatanparvarlik, yurtga sadoqat, har qanday yovuz kuchlarga qarshi nafrat tuyg`usini tarbiyalash bugungi kunning dolzarb mavzusidir. « Agar biz O`zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug` kelajagini ulug`lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamokchi bo`lsak, avvalombor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak », - degan edi I. Karimov. Darxaqiqat, adabiyot insonga tug`ri yo`lni ko`rsatuvchi, uning dardu alami, orzu niyatini ifodalovchi, buyuk maksadlar sari etaklay oluvchi kuch. Mamlakatda adabiyotni va san’atni rivojlantirish orqali turli buzg`unchi kuchlarning kirib kelishiga qarshi odamlar qalbida milliy ma’naviyatimizni saqlab qolishga qaratilgan mafkuraviy immunitetni hosil qilish mumkin.

San’at ham xuddi adabiyot, badiiy adabiyot kabi inson ruhiyati, kayfiyatiga kuchli ta’sir ko`rsatish vositasidir. Bugun odamlar qalbini egallashga qaratilgan turli parnografik, jangarilik, zo`ravonlikka asoslangan asarlar yoki televideniening tijorat kanallari orqali huda – behuda taralayotgan bemaza, engil – elpi qo`shiqlar uchun millionlab mablag`lar sarflanmoqda. Chetdan kirib kelayotgan faqat bunday asarlardagina emas, oddiy reklama markazida ham muayyan mafkura, g`oya yotibdi. “ Shu o`rinda achchiq bo`lsa ham tan olish kerakki, deyiladi, - “Erkin va farovon hayotni yuksak ma’naviyatsiz qurib bo`lmaydi “ nomli risolada, xalqimizning boy madaniy me’rosi, qadimiy tarixi, buyuk siymolarining tarixiy obrazlarini yoshlar o`rtasida matbuot va televidenie, badiiy adabiyot, kino va teatr san’ati orqali targ`ib qilish, ularni jonli va ta’sirchan asarlar asosida haqiqiy ibrat na’munasiga aylantirishda hamon no`noqmiz. Buyuk ajdodlarimiz obrazining badiiy talqini nihoyatda bo`sh. Aksariyat hollarda bosh qahramonlarning yurtga fidoyiligi, vatanparvarlik va jasurlik fazilatlari, aqliy salohiyati teran va ta’sirchan obrazlar orqali emas, minbarbop, balandparvoz, jimjimador gap – so`zlar, soxta baqir – chaqirlar vositasida ifodalanmoqda...”.

Bugun dunyo bo`ylab inson ma’naviyati, qalbini egallash uchun g`oyaviy kurash ketayotgan va mafkuraviy tahdidlar kuchayib borayotgan bir sharoitda g`oyaviy yuksak, milliy qadriyatlarimizni o`zida aks ettirgan pishiq va puxta ishlangan san’at asarlarimiz yo`q emas, albatta. Ammo bu sohada qilingan ishlar etarli emas. Buzg`unchi kuchlarning ma’naviy tahdidlari tabora kuchayib bormoqda, shunday ekan, ijod ahli oldida ana shu kuchlar qarshiligini dadil engaoladigan, xalqning qalbiga chuqur kirib boraoladigan, milliyligimizni tarannum etadigan etuk asarlar yaratishdek dolzarb vazifa turibdi. Toki, o`sib kelayotgan avlod qalbida o`z vataniga mehr, ota – bobolarining ruhiga hurmat, ajdodlarimiz qilgan buyuk ishlaridan faxralnish tuyg`ulari shakllanib, o`zlari ham ulardek bo`lib yashashga intilsin. Buyuk olmon adibi Gyote havas qilganidek, hayo, vafo, e’tiqod, ixlos hamisha xalqimiz qalbida yashab qolsin.

Milliy axboriy xavfsizlik tushunchasi har bir insonning, jamiyat va davlatning xavfsizligini o`z ichiga oladi. Har bir inson xavfsizligi deganda unga shaxs sifatida zarar etkazish mumkin emasligi tushiniladi, uning ijtimoiy faoliyati olayotgan

axborotlarni idrok etishga va boshqa insonlar bilan axboriy o`zaro aloqaga ko`p jihatdan bog`liqdir.

Jamiyatning axboriy xavfsizligi uning ma`naviy, iqtisodiy, siyosiy sohalariga, madaniy qadriyatlariga, insonlar hulq-atvorini ijtimoiy tartibga soluvchilarga, axborot infra tuzilmalariga va bular yordamiga uzatilayotgan xabarlarga zarar etkazish mumkin emasligidan iboratdir.

Davlatning axboriy xavfsizligi predmeti axborot va jamiyat axborot infra tuzilmalaridan tashkil topgan jamiyat ishlarini boshqarishni bajarish bo`yicha davlat faoliyatiga zarar etkazish mumkin emasligidan iborat.

Ochiq axborot tizimlari asosan: axborot agentliklari, gazetalar, jurnallar, jurnal tarzdagi nashrlar, boshqa nashr mahsulotlar, radio, televidenie, audio va vediomahsulotlardir. Internet, matbuot xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar, davlat, jamoatchilik va boshqa tashkilotlar va muassasalar, reklama agentliklari bo`yicha tuzilmalar ham shular jumlasidandir.

OAV lari bo`lib, vaqtli matbuot, axborot tarqatishning audio, video vositalari, axborot agentliklari, internet- jurnalistika hisoblanadi. OAV ochiq axborot tizimining muhim asosiy qismini tashkil etadi.

Axboriy qarama-qarshilik, bu- auditoriyaga atrof muhitdagi biror hodisaga nisbatan munosabatda bo`lishga o`z qarashlari, fikrini tiqishtirish hamda qarshi tomon g`oyasi va nuqtai-nazarini inkor etish roli bilan ta`sir etishga intilishdir.

Axboriy - psixologik kurash, bu - boshqa mamlakat yoki mamlakatlar guruhida mavjud ijtimoiy tizimni bo`shashtirish, jamiyat axloqini izdan chiqarish, rivojlanish milliy programmasiga putur etkazish, shuningdek o`z qadriyatlari va turmush-tarzini to`g`ridan- to`g`ri eksport qilish maqsadida axborot xizmati va qo`poruvchilik bilan shug`ullanuvchi xizmatlarni o`zaro hamkorligidir.

Axborotda hududiy munosabatlar: axborot olish hududini ta`minlash; shaxsiy hayot va oila siri, sirli yozishmalar daxlsizligini ta`minlash. eng avvalo aytish kerakki, axboriy xurujni hudud jihatdan oltita asosiy turga ajratish mumkin: 1)umumsayyoraviy (bir qutbli, ya`ni «odnopolyarniy» dunyoni tashkil etishga harakat qiluvchi davlatlar tomonidan amalga oshiriladi); 2)qit`aviy (Osiyo yoki boshqa qit`aga nisbatan); 3)regionli (o`zaro chegaradosh, masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan); 4)davlat (O`zbekiston)ga nisbatan; 5)mintaqaviy (masalan, Farg`ona vodiysi); 6)mahalliy (viloyat, shahar, tumanga nisbatan).

Tabiiyki, har bir davlat o`z axborot hududini o`zi tashkil etadi. Boshqa davlat tomonidan ushbu mamlakat hududida intensiv ravishda axborot tarqatish axboriy xuruj hisoblanadi, bunday harakat ushbu davlatni o`z axboriy makonini haqli ravishda himoya qilishga undaydi. Himoya qilinadigan sohalarga davlat va jamiyat manfaatlaridan tashqari shaxsiy hayot daxlsizligini, oilani asrash va sirli yozishmalarni asrash ham kiradi.

Ma`lumki, insoniyat rivojlanishining «uchinchi to`lqin» bosqichida davlatlarning asosiy boyligi axborotdir. Demak, har bir mamlakatga axborot bilan ishlaydigan mutaxassislar ham kerak. Odatda bunday odamlar sifatida jurnalistlar tilga olinadi.

Axborot-psixologik xavfsizlikning shaxsga ta`sir etuvchi vosita va usullari aslida ko`p, lekin an`anaviy ravishda ular uchta asosiy turga bo`linadi: 1)davlat

etkazadigan; 2)OAV; 3)norasmiy muloqotdagi axborot. Norasmiy axborot deb, shaxs mahallada, ish joyida, o`rtoqlaridan, trasport vositalarida, gaplarda eshitgan ma`lumotlarga aytiladi.

Axborot bilan ishlash bir nechta asosiy bug`inlarni tashkil etadi, ularning ish mexanizmi esa quyidagidan iborat: 1)ma`lumotni qabul qilish, anglab olish va eslab quyish; 2)axborotni anglash va eslab quyish jarayonida materialni qabul qiluvchi tomonidan uning bilimi va psixologiyasidan kelib chiqqan holda qayta ishlash va yangilangan axborotni shaxs xotirasida saqlash; 3)axborotni tarqatish.

OAV axborot-psixologik urushni olib borish vositasi sifatida. Afsuski, ayrim OAV bugungi kunda shunday vositaga aylanganlar. Ushbu urushda OAVning o`rni va rolini aniqlash uchun eng avvalo axboriy-psixologik urushni ma`nosini anglab olishimiz zarur. «Axborot urushi» so`zlarining asoschisi fizik-olim Tomas Ron hisoblanadi, 1976 yilda u axborotni harbiy kuchlarning eng zaif bo`g`ini deb ta`riflab, ushbu masalaga barcha davlat miqyosidagi mas`ul kishilarni e`tiborini qaratdi. Shundan beri mazkur so`zlarning ahamiyati kundan kunga kuchayib kelmoqda.

Bevosita axborot urushi ta`rifiga kelganda biz bir kitobdan iqtibos keltirmoqchimiz: «Axborot urushi deb, ijtimoiy, siyosiy, etnik va boshqa tizimlarning moddiy yutuqqa ega bo`lish maqsadida bir biriga ochiq va yashirin maqsadli axboriy ta`sirlarga aytiladi. Shu bilan bir qatorda axborot urushini deb yanada raqib ustidan axboriy hukmronlikka erishish va shuning evaziga unga moddiy, mafkuraviy yoki boshqacha zarar etkazish uchun davlatning harbiy kuchlari, hukumati hamda xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar va operatsiyalar majmuasiga aytiladi».

Internetni ko`p mutaxassislar harbiylarning ixtirosi deb aytadi. Aslida esa dastlabki bosqichda uni AQShdagi to`rtta universitet kashf etdi. Mazkur universitetlar komp'yuterlarini bir tizimga birlashtirib, o`zaro kutubxonalaridan foydalana boshladilar. Pentagon esa bundan tez xabar topdi. Va ixtironing imkoniyatlarini o`rganib, undan harbiy qo`mondonlikni takomillashtirish maqsadida olimlarni jalb etib, ularga barcha sharoitlarni yaratib, arpanetni (internetning birinchi nomi) o`z maqsadlariga yo`naltirdi. Uzoqqa bormay undan jurnalistlar ham foydalana boshladi. Natijada internet jurnalistikasi paydo bo`ldi.

Har xil uslublarda, barcha OAVda ma`lum bir fikrni takrorlash odamning ostki ongiga ta`sir etadi va u ushbu fikrga ishonaydigan bo`ladi. Mazkur jarayonni mutaxassislar neyrolingvistik dasturlash deb ataydi.

Agar radio, televidenie va matbuotda ayrim davlat, guruh yoki shaxs haqida qayta-qayta biror-bir noto`g`ri baho takrorlanaversa, turli mamlakatlardagi xalqlar, har xil millatlar unga ishonadilar. Neyrolingvistik dasturlash uchun eng qulay OAV televideniedir, chunki u auditoriyaga bir paytni o`zida uchta kanal orqali o`z ta`sirini o`tkazadi.

**Tayanch iboralar:**

1. Axboriy qarama-qarshilik - maqsadi, vosita va shakllari.
2. Axborot quroli - uning o`ziga xosligi, zamonaviy dunyoda uni qo`llash imkoniyati va ko`lami.

3. Axborot urushi - tarkibi: psixologik, elektron va dezinformatsion; axborot hujumi va uning turlari (to`g`ridan-to`g`ri, aylanma), axborot tizimining ishdan chiqishi.
4. Xorij axboroti -matbuoti, televidenie, radio va Internetning asosiy qadriyatlari.

## Nazorat savollari:

1. O`zbekiston Prezidenti Islom Karimov ma`rifatparvarlik haqida nima degan? («Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» asari bo`yicha).
2. Tahdidlar turlari qanday bo`ladi?
3. Axboriy-psixologik barqarorlikka birinchi o`rinda axborot tarqatuvchilar ega bo`lishi nima bilan shartlanadi?
4. Axboriy tahdidlarga qarshi kurashning yo`llari nimadan iborat?
5. Mamlakatning axborot va telekommunikatsiya vosita va tizimlari xavfsizligiga tahdidlar qanday oqibatlarga olib borishi mumkin?
6. Shaxs axborot-psixologik xavfsizligiga tahdidlarning manbalari va umumiy tavsifi nimadan iborat?
7. Shaxs ruhiyatining bioijtimoiy tabiatini tushuntirib bering.
8. Jamiyat axborot-psixologik xavfsizligiga tahdidlarning manbalarini tavsiflab bering.
9. Axborot ko`lamini shakllantirish, ichki va xalqaro miqyosidagi axborot almashinuvida davlat siyosatidan foydalanishning ahamiyatini tushuntirib bering.
10. Axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tarqatish mexanizmini ifodalab bering.

Adabiyotlar ro`yxati:

**1.Karimov I.A. «O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura»,1-jild, Toshkent, «O`zbekiston» nashriyoti,1996 yil.**

**2.Karimov I.A. Ozod va obod vatan erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. Asarlar 8-tom.-T.: O`zbekiston, 2000.-B.182-188.**

**3.Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O`zbekiston» nashriyoti,1997 yil**

**4.Karimov I.A. «Ma`naviy yuksalish yo`lida»,, Toshkent, «O`zbekiston» nashriyoti,1998 yil**

**5.Karimov I.A. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni- millat qilishga xizmat etsin», «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblar 1998 yil, 2-son**

**6.Karimov I.A. «Olloh qalbimizda, yuragimizda»Toshkent, «O`zbekiston» nashriyoti, 1999 yil.**

**7.Karimov I.A. «Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir»: «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar Toshkent, «O`zbekiston» nashriyoti, 2000 yil.**

**8.Axborot sohasida davlat siyosatining negizini tashkil etuvchi O`zbekiston Respublikasi qonunlari**

**9.«Iqtisodiy va informatsion havfsizlik zamonaviy muammolari» mavzuidagi yosh olimlarning respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materialari to`plami (20 dekabr' 2005 yil). Nashr uchun ma`sul M.M.Baxadirov. T.: JIDU,2006.-137b.**

## 6-mavzu: Mafkuraviy faoliyat - milliy g‘oyani amalga oshirish vositasi.

**Reja:**

**1. "Mafkuraviy faoliyat” tushunchasi, uning mazmun-mohiyati.**
**2. Mafkuraviy ishlarni milliy taraqqiyot tamoyillari va manfaatlari asosida tizimli tashkil qilish.**
**3. Mafkuraviy faoliyatni tashkil etishning tashkiliy tamoyillari.**

**G`oyaviy-mafkuraviy ishlarga sistemali yondoshish, birinchidan, shu sohadagi muammolarni ilmiy tahlil qilishning zaruriy sharti bo`lsa, ikkinchidan, bu - milliy mafkuraning nazariy-metodologik xarakteriga mos keladi. Boshqacha aytganda, milliy mafkuraning o`zi, jamiyatimiz taraqqiyoti va manfaatlarini ifoda qiluvchi yaxlit sistemalashgan g`oyalar, nazariyalar tizimidan iborat bo`lib, uni ro`yobga chiqarish bilan bog`liq amaliy ishlar ham shunga muvofiq bo`lishi lozim.**

Статья III. Mafkuraviy ishlarni milliy taraqqiyot tamoyillari va manfaatlari asosida (g`oyaviy-nazariy darajada) sistemali tashkil qilish deganda, jamiyatdagi hayotiy talab, ehtiyoj, maqsad-intilishlarga muvofiq rivojlanib boruvchi g`oyaviy-mafkuraviy jarayonlardan iborat o`ziga xos ijtimoiy-ma`naviy tartib - tizim yaratish tushuniladi. Zero, voqelikdagi o`z shakl-ko`rinish va mazmuniga, ma`lum o`zgarishlar xarakteriga, aniq makon va zamonda alohida o`rniga ega bo`lgan har qanday narsa, hodisa, jarayonlarni muayyan sistemaga solish mumkin.

**Bu sistemaning mohiyati shundaki, uning makrostrukturasini tashkil qilgan asosiy qism-elementlar (milliy taraqqiyot qonunlari, “O`zbek modeli”, milliy istiqlol mafkurasi asosiy kontseptsiyasi, milliy mafkura va uning asosiy g`oyalari) va ular o`rtasidagi bog`lanishlar hamda o`zgarishlar xarakteri turlicha va ko`p tomonlama bo`lib (jamiyatdagi turli kishilar, guruhlar, toifalar, etnik va diniy birliklarning g`oyalari), mazkur sistemadagi barcha jarayonlarning qanday kechishini shu sistemani sistema sifatida rivojlanishini ta`minlovchi omillar (milliy taraqqiyot manfaatlari va shart-sharoitlari) belgilab beradi.**

**Ushu sistemaning mavjudlik sharti, shakllanib, rivojlanish manbai, undagi jarayonlarni harakatlantiruvchi kuch – milliy taraqqiyot qonunlariga muvofiq amalga oshiriladigan g`oyaviy-mafkuraviy faoliyatlardir. Bu faoliyatlar nazariy va amaliy yo`nalishlarga bo`linadi.**

Mazkur sistema milliy mafkura kontseptsiyasiga muvofiq aniq tavsiflanadigan turli shakl-ko`rinishlarga, har xil daraja va ko`lamlarga ega bo`lgan o`ziga xos

qism, element, bosqich, soha, yo`nalishlardan iborat mikrosistemalarni o`z ichiga oladi. Bu sistemalarning har biri shakli, mazmuni va maqsad-vazifalariga ko`ra, o`ziga xos bo`lib, sistema ichidagi va undan tashqaridagi tizimlar, masalan, jamiyat ijtimoiy hayotidagi boshqa jarayonlar, tuzulmalar bilan uzviy aloqadorlikda bo`ladi. Chunonchi, g`oyaviy-mafkuraviy tarbiya tizimi (sistemasi) jamiyatdagi huquqiy, axloqiy, estetik, diniy, jismoniy va boshqa tarbiya sohalari – tizimlari bilan, yoki: har qanday g`oyaviy-mafkuraviy jarayonlar jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa omillar bilan uzviy bog`liqdir.

«Mening fikrimcha, mafkuraning hayotiyligi uning xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog`li mos bo`lishi, eng muhimi, jamiyatning milliy manfaatlarini, orzu-intilishlarini qay darajada aks ettirishi bilan o`lchanadi. Faqat shunday mafkuragina hayot va davr sinovlariga bardosh beradi, odamlar unga ishonib, o`zining iymon-e`tiqodi sifatida qabul qiladi. Shundagina u eng zamonaviy quroldan ham kuchli ruhiy-ma`naviy qudrat kasb etadi». Islom Karimov. *(«Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» asaridan).*

**Jamiyatdagi g`oyaviy ta`lim-tarbiya tizimi, tasvirlanayotgan makrosistemadagi muhim yo`nalish bo`lib, butun sistema faoliyatida katta o`rin tutadi. Milliy g`oya va mafkurani yoshlar ongiga singdirib, xalqchillashtirish va ishonch-e`tiqodga aylantirishda asosiy o`rin tutuvchi bu tizimning o`zi va undagi mikrosistemalar faoliyati ta`lim-tarbiya uzluksizligi bilan milliy g`oyani shakllantirishning izchilligi (doimiyligi) o`rtasida uzviy bog`lanishni vujudga keltiradi.**

Demak, g`oya va mafkuraning mazmuni davlat va jamiyat qurilishiga doir sistemali bilimlar (nazariya va metodologiya) bilan bog`liq: madaniy-ma`rifiy, g`oyaviy-mafkuraviy saviya; ong, tafakkur, dunyoqarash tamoyili; ruhiy-ma`naviy ishonch-e`tiqod; ijtimoiy norma, me`yor, mezon va ayni paytda, inson hamda jamiyat hayotini harakatlantiruvchi mexanizm - usul-vositalardan iborat tizim sifatida tushunilsa, milliy g`oya va mafkuraning xalqchilligi ta`minlanadi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Jamoat birlashmalari" to`g`risidagi bobining 60-moddasida siyosiy partiyalar faoliyatining qonuniy asoslari: "Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o`zlarining demokratik yo`l bilan saylab qo`yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatiii tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o`z faoliyatlarini moliyaviy ta’minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar"', deb belgilangan. Konstitutsiyaning bu moddasi bilan siyosiy partiyalar mafkuraviy faoliyati umumxalq nazoratiga olinganligi ko`zga tashlanadi va demokratiya tamoyillariga to`liq mos keladi.

Har qanday jamiyat muayyan ijtimoiy tarkibga ega bo`lib, u turli ijtimoiy qatlamlarni, sinflarni, guruhlarni, ijtimoiy institutlarni o`z ichiga oladi. Ijtimoiy tarkibning xilma-xilligi uni tashkil qilgan unsurlar manfaatlarining, intilishlarining rang-barangligiga asos bo`ladi. G`oyaviy-mafkuraviy qarashlar bu manfaatlar va intilishlarning o`ziga xos ifodasi bo`lib, turli kuchlarning maqsadlari, faoliyat yo`nalishlarini ko`rsatuvchi mantiqiy asoslangan qarashlar tizimiga aylana boradi.

Shunga ko`ra, har qanday davlatda bunyodkor g`oyalar, mafkuraviy faoliyat ustuvor bo`lganda, milliy taraqqiyot imkoniyatlari kengayadi. «Er planetasi» deb atalgan ijtimoiy-siyosiy makonda: huquqiy tenglik, iroda erkinligi, xalqaro miqyosda tinchlik qaror topadi, millatlararo, dinlararo do`stona munosabatlar mustaxkamlanadi.

Milliy taraqqiyot g`oyalari muayyan davlatning istiqbolini ta`minlash uchun jamiyatning ob`ektiv rivojlanish qonuniyatlarini, ularning amal qilinishida sub`ektiv omillarning rolini, konkret tarixiy shart-sharoitlarni inobatga olib, o`z potentsial imkoniyatlarini safarbar qilishdir. Boshqacha aytganda, mamlakat ichidagi ijtimoiy-siyosiy kuchlarning g`oyaviy-mafkuraviy murosasi - barqaror milliy taraqqiyotning asosiy shartidir.

Mafkuraviy faoliyatni tashkil etishda quyidagi tashkiliy tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

- *keng qamrovlilik*, bunda jamiyatning barcha a`zolariga g`oyalar xilma-xilligi asosida mafkurani singdirish, bu jarayonda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish nazarda tutiladi. Natijada, jamiyatning barcha bo`g`inlari mafkuraviy ta`sir doirasida qamrab olinadi; - umumiy maqsadga yo`naltirilganlik; - faol insonni tarbiyalash va inson salohiyatini yuzaga chiqarish mafkuraning bosh maqsadi qilib olinadi;

- *uzluksizlik* - milliy istiqlol g`oyasi targ`ibotining makonda va zamonda doimiyligini, uning yaxlit tizim shakliga keltirilishini anglatadi. Uzluksizlik tamoyili milliy g`oyani xalq ongiga singdirish uchun mamlakatda muayyan mafkuraviy maydon yaratishni taqozo qiladi. Bu maydondagi har bir holat va harakat, jumladan, ta`lim tizimidagi o`quv rejalari, dasturlar, darsliklar, o`quv qo`llanmalari, sinf va auditoriyalar, ko`rgazmali qurollar milliy g`oyaga uyg`un bo`lishini taqozo etadi.

- *ketma-ketlik* - har bir bosqich uchun istalgan qadriyatlarni singdirish maqsadida mafkuraviy tashviqot rejalashtiriladi;

- *bosqichma-bosqichlik* - milliy mafkurani targ`ib qilishning ruhiy jihatlari bilan bog`liq bo`lib, ham targ`ib qiluvchi, ham qabul qiluvchining muayyan tayyorgarlik bosqichlaridan o`tishini taqozo qiladi. Aytaylik, boshlang`ich sinf o`quvchisiga milliy mafkuraning falsafiy va etnik ildizlari to`g`risida gapirish noo`rin bo`lishdan tashqari mutlaqo samarasiz hamdir. Shuning uchun bog`chada, boshlang`ich sinflarda, to`liqsiz o`rta maktabda, yuqori sinflar, litsey va kollejlar, oliy o`quv yurtlari va mehnat jamoalarida mafkuraviy ish tinglovchi va o`quvchilarning yoshi, bilimi, ma`lumoti kabi jihatlarini hisobga olib aniq belgilangan reja asosida olib borilishi kerak;

- *me`yoriylik* - aksiltarg`ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishga olib keladigan balandparvozlik, rasmiyatchilik va takrorlanishlarga yo`l qo`ymaydi;

- *shaxsiy ibrat* - mafkuramizni targ`ib qilishda muvaffaqiyatni ta`minlaydigan muhim omillardan biri. Maktab muallimi darsda o`quvchilarga millat manfaatlari, orzu-umidlari, intilishlari to`g`risida balandparvoz gaplarni gapirsa-yu, o`zi hayotda shu manfaatlarga zid ishlarni qilsa, bu targ`ibotning samarasi nol’ga teng bo`ladi. Mamlakat va millat ravnaqi to`g`risida og`iz ko`pirtirib gapiradigan

boshliq bo`shab qolgan lavozimga layoqatli va munosib xodim qolib, o`ziga qarashli, Lekin, bu o`ringa nomunosib odamni tiqishtirsa, u millatning yuziga oyoq qo`ygan bo`ladi va uning milliy mafkurani aksiltarg`ibot qilgan bo`ladi. Shuning uchun, milliy g`oyani aholi ongiga singdirishda targ`ibotchilar faoliyatida ish bilan so`z birligini ta`minlash, ayniqsa, rahbar xodimlarning shaxsiy ibrat ko`rsatish tamoyiliga amal qilishi muvaffaqiyatni ta`minlaydigan eng muhim omillardan biridir. Korxona, tashkilot, muassasa rahbari, ular davlat sektori yoki xususiy sektorga tegishli bo`lishidan qat`iy nazar o`z jamoasidagi ma`naviy-mafkuraviy jarayonlarga mas`ul bo`lishi kerak;

- *ilg`or targ`ibot-tashviqot texnologiyalaridan foydalanish* - bunda mafkuraviy targ`ibotga insonlarni mohirona boshqarish usuli sifatida qaraladi. Milliy g`oyaning targ`iboti qotib qolgan narsa emas, faol jarayondir. Shuning uchun uni qadimdan qolgan va`z aytish va ma`ruza o`qish kabi targ`ibot shakllari yordami bilangina keng xalq ommasi ongiga singdirib bo`lmaydi. Maqsadga erishish uchun targ`ibotning faol shakllaridan, zamonaviy texnologiyalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Yoshlar orasida targ`ibot olib borilganda munozara, bahs, davra suhbati kabi shakllardan oqilona foydalanilsa maqsadga tezroq va to`laroq erishish mumkin. Yoshlarning fiziologik va ruxiy xususiyatlari va`z va ma`ruzalarni emas, ko`proq interfaol usullar va sanab o`tilgan targ`ibot shakllaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Mazkur targ`ibot tamoyillari milliy g`oyani inson ongi va qalbiga singdirishning barcha bosqichlari uchun umumiy va bir xil bo`lib, turli bosqichlarda, turli shakl va vositalardan foydalanganda odamlarning yoshi, kasbi, ma`lumoti kabi nima uchun milliy g`oyani inson ongi va qalbiga singdirish zarur va muhim? Milliy g`oyaning targ`iboti nimaga xizmat qiladi va bu jarayon qanday tashkil qilinishi kirak? Umuman, milliy g`oyaning targ`iboti bilan kimlar va qanday tuzilmalar shug`ullanishi kerak? Mazkur mavzuni o`rganish shu kabi savollarga javob topish imkonini beradi.

XXI asrni axborot asri, axborot texnologiyalari asri deb atash tobora rusum bo`lmoqda. Chunki asrimizda keng qamrovda va jadal sur`atlarda tarqalayotgan informatsiyalar insonning istaklarini, didini o`zgartirishga, fikriga ta`sir qilishi mumkin. Tan olish kerak, tomosha qilinayotgan seriallardan tortib bolakaylarga aytib beriladigan ertakkacha, boringki, o`qiyotgan kitoblarimiz ham qandaydir mafkuraviy ta`sir samarasiga ega - ularda muayyan g`oyalar targ`ib qilinadi. Bu holat «Eng asosiy narsani ko`z bilan ilg`ab bo`lmaydi» digan fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Bunday ko`zga ko`rinmas qudratli targ`ibot kuchlari kishini hamma erda va har kuni qurshab turadi. Bu kuchlarning maqsadi – insonni nimagadir ishontirish, nimagadir undash, nimagadir og`dirish. Tadbirkor mahsulotini reklama qilib, uni sotib olishga undaydi. Diniy arboblar o`z diniga e`tiqod qilishga chaqiradi. Xalqaro maydonda ba`zi davlatlar o`zining «katta og`a» ekanini uqtirishga harakat qiladi. Lekin tanganing orqa tomoni ham bo`ladi-ku. Agar o`sha molini maqtayotgan tadbirkor tamaki sotayotgan bo`lsa-chi? Uning zarari haqida odamlarni kim ogohlantiradi? Agar o`sha dindor, haqiqiy din chetda qolib, davlat tuzumini ag`darishga chaqirayotgan bo`lsa-chi? Bunday buzg`unchiliklardan xalqni kim qaytaradi? Yoki jahonda «katta og`a»larning qo`lidan tutib emas,

mustaqil odim tashlash kerakligini kim tushuntiradi? Bu kabi targ`ibotni yoki aksiltarg`ibotni kim tashkil qilishi kerak?

**Bugungi kunda rivojlangan davlatlar qudratli targ`ibot tizimiga ega bo`lishga intilayotganini alohida ta`kidlash lozim. Masalan, o`z faoliyatining targ`ibotiga AQSh hukumati yiliga 2,5 milliard dollar sarflashi bejiz bo`lmasa kerak. Frantsiya ham o`z siyosatini aholiga tushuntirish ishlariga yiliga 100 million frankni bekorga sarflamayotgandir? Bu ma`lumotlar targ`ibot nafaqat dinda, biznesda muhimligini, balki siyosatda ham, ma`naviy-ma`rifiy ishlarda ham muhim ahamiyat kasb etishini ko`rsatadi. Demak, rivojlangan demokratik davlatlar ham mafkuraviy faoliyatdan sira voz kechmagan.**

**Puxta ishlab chiqilgan strategik yo`nalish davlatning istiqbolini belgilaydi. O`zbekistonning strategik maqsadlari Islom Karimovning qator asarlarida, jumladan, «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» hamda «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda», "Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch" asarlarida belgilab berilgan. Shu maqsadlar sari insonlarni safarbar qilish ularni g`oyalar shaklida singdirish zaruratini keltirib chiqaradi.**

**O`zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o`zgarishlarning taqdiri, so`zsiz, har bir fuqaro, aniqrog`i insonning faolligiga bog`liqdir. Bu esa islohotlarning mohiyatini xalqqa tushuntirishni talab qiladi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda mafkuraning targ`iboti «hukumat siyosatining tashviqoti» ko`rinishida amalga oshiriladi. Davlatning bosh islohotchi ekanligi ham O`zbekiston hukumatining siyosatini maxsus targ`ib qilishni talab etadi. Bunday targ`ibot islohotlarning «mafkuraviy asosda ta`minlash»ga xizmat qiladi.**

O`zbekiston hayotidagi o`zgarishlar insonlar ongida ham katta o`zgarishlar qilishni talab etadi. O`tish davrida har qanday davlat yangi zamon kishisini tarbiyalash haqida jiddiy qayg`urishi tabiiy. Demak, O`zbekistonda ham «komil inson» g`oyasida e`tirof etilgan shaxs mos sifatlarini fuqarolarda qaror toptirish vazifasi ko`ndalang turibdi. «Fuqarolik ahloqi»ni bunday tarbiyalash mafkuraviy siyosatning negizini tashkil etadi.

O`zbekistonda yosh avlodni yangicha fikrlashga va tafakkurini rivojlantirishga, siyosiy faolligini yo`naltirishga, ularni mustaqillik g`oyalariga sodiq qilib tarbiyalash vazifalari bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilmoqda. Globallashuv jarayonida siyosiy va psixologik ko`rsatmalarning butunlay o`zgarishi yoshlarning axborot xavfsizligini ta`minlashning dolzarbligini ko`rsatadi.

Xavfni sezish va unga qarshi kurashish tuzilmalari - shaxsning o`zini-o`zi anglash jarayonida shakllanadi. Yoshlarda shaxsiy fikr, mulohaza, dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tahliliy va tanqidiy fikrlash paydo bo`ladi.

Yoshlar o`ziiing siyosiy kontseptsiyasini mustaqil ravishda to`g`ri shakllantirishda, siyosiy jarayonlarni aniq qamray olishida va tahlil qila olishida, mohiyatini tushunishida - harakatlanish kontseptsiyasi shakllanadi.

Hozirgi vaqtda xavfsizlikni ta`mishlashni texnologik va texnokratik uslubiyot asosida tashkil etish -davr talabidir. Yoshlarning axborot xavfsizligini ta`minlash

vazifasi, o`z navbatida jarayonni tizimlashni, natijani avvaldan kafolatlashni, jarayonga istalgai paytda tuzatishlar kiritish imkoniyati bo`lishini taqozo etadi.

Yoshlarning informatsion-psixologik immunitetini shakllantirish jarayonni texnologiyalar asosida tizimlashtirish, o`z navbatida bir qancha ishlarni ixchamlashtirish, umumlashtirish va muvofiqlashtirish kabi qo`yida keltirilgan tashkiliy ishlarni bajarishni talab qiladi:

• Mavjud siyosiy jarayonlarning mohiyatini anglash, immunitetni shakllantirishda foydalanish;

• Immunitetni shakllantirishga xizmat qiluvchi ma`lumotlarni qidirish, yig`ish va qayta ishlash;

• Informatsion-psixologik immunitetni shakllantirishga tegishli ma`lumotlar bazasini shakllantirish;

• Muammolarni sezish, aniqlash, dolzarbligi bo`yicha differentsiallash;

• Immunitetning rivojlanish tamoyillarini anglash, qabul qilish;

• Tashqi va ichki vaziyatni strategik ko`p faktorli analiz qilish;

• Axborot, moliyaviy, tashkiliy-texnik resurslarning chegaralanishini aniqlash, resurslarni boyitish ishlarini amalga oshirish;

• Xalqaro maydondagi voqealarning rivojlanishini kuzatish, tahlil va siyosiy bashorat qilish;

• Geopolitik manfaatga erishishning strategiya va taktikasini shakllanti-rish, tashqaridan kirib kelayotgan xavf-xatarlarni klassifikatsiyalash, ularni neytrallashtirish hamda dezinfektsiyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish;

• Ichki axborot muhitining informatsion-psixologik immunitetni shakllantirishniig texnologiyalarini, metodlari va usullarini ishlab chiqish, amaliyotga tadbiq etish;

• Immunitetni ta`minlash ishlarini amalga oshirishning al’ternativ variantlarini ishlab chiqish;

• U yoki bu al’ternativ variantlarni tadbiq etishda yuzaga keladigan holatlar hamda vaziyatlarni bashorat qilish;

• Amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish, bajarilayotgan har bir ishni baholash;

• Davlatning ichki axborot muhitini kuchaytirish, tashqi xavflarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirish, axborot tahdidlari va xavf-xatarlariga qarshi kurashuvchanlikni ta`minlash;

• Immunitetni shakllantirishning eng maqbul variantlarini ishlab chiqish va tadbiq etish;

• Yoshlarda qaror qabul qilishga ko`rsatiladigan ta`sirni tahlil qilish;

• Yoshlarning o`zi qabul qilgan qarorlarini o`zi korrektsiya qilish ko`nikmalarini shakllantirish;

• Yoshlarniig o`zini-o`zi nazorat va tahlil qilishlarini shakllantirish.

Shuningdek, yoshlarga ta`sir ko`rsatuvchi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik omillarni to`liq ishlab chiqish ham zarurdir. Bu esa yuzaga keladigan kamchiliklarni o`z vaqtida bartaraf etish imkonini berishi lozim.

Hozirgi davrda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash borayotgani hech kimga sir emas. Shuning uchun yot mafkuraviy ta`sirlarga qarshi kurashda uzilishlarga yo`l qo`yib bo`lmaydi. Bunday sharoitda begona mafkuralarning qo`poruvchi ta`siriga qarshi doimiy va uzluksiz aksiltarg`ibotni tashkil etish muhim sanaladi. Chunki bunday nosog`lom mafkuraga nisbatan kurashni olib borish talab etiladi.

O`zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi tomonidan Milliy istiqlol g`oyasining asosiy tushunchalari va tamoyillari (Миллий истиқлол g`ояси: асосий тушунча ва тамойиллар. -Т, «О`збекистон», 2000 йил.) ishlab chiqildi. O`zbekistonda milliy istiqlol g`oyasining targ`ibot-tashviqoti ana shu asosiy g`oyalar, tushunchalar va tamoyillarga tayangan holda amalga oshirilmoqda.

Mazkur targ`ibot tamoyillari milliy istiqlol g`oyasini inson ongi va qalbiga singdirishning barcha bosqichlari uchun umumiy va bir xil bo`lib, turli bosqichlarda, turli shakl va vositalardan foydalanganda odamlarning yoshi, kasbi, ma`lumoti kabi xususiyatlari xisobga olinadi. Targ`ibot olib borishda sanab o`tilgan tamoyillarning muayyan auditoriya xususiyatlariga mosligini ta`minlash targ`ibot samaradorligini ta`minlaydigan eng muhim omildir.

G`oyaning insoniyat evolyutsiyasidagi o`rni va ahamiyati doimiy ravishda jamiyatning intellektual salohiyatli a`zolari diqqat-e`tiborida bo`lgan: Buni dunyo taraqqiyotiga ulkan ta`sir ko`rsatgan nazariy ta`limot va mafkuralar asoschisi bo`lgan, tarixning turli davrlarida yashagan Suqrot, Konfutsiy; Alisher Navoiy, Maxatma Gandi kabi mutafakkirlar ilmiy asarlaridagi ilmiy nazariyalar misolida ko`rish mumkin.

Targ`ib qilinayotgan g`oyalarning inson ongida axborot, ma`lumot tarzida o`rnashishi kifoya qilmaydi, ular insonning yurak-yuragiga etib borganidagina ular inson qalbiga chuqur o`rnashadi. Buning uchun esa auditoriya targ`ibotchining milliy g`oyaga chuqur ishonchi va qat`iyatini xis qilishi kirak. Lekin targ`ibotda g`oyalarga e`tiborni tortish bilan ham qanoatlanish mumkin emas. Chunki, e`tiborni jalb qilish - targ`ibotning birinchi bosqichi, xolos.

Targ`ibotning keyingi bosqichi g`oyani to`g`ri va atroflicha tushuntirishni, mafkura bilan bog`liq barcha savollarga javob topib berishni talab qiladi. Chunki milliy g`oyani tushunish - unga ishonish demakdir. Ana shu erda bir savolga duch kelamiz: nima ko`proq ishonch uyg`otadi: jiddiy dalillar bilan asoslangan axborotmi yoki hissiyotlarni uyg`otuvchi ma`ruzami? Targ`ibot davomida insonning xislariga, qalbiga murojaat qilish katta samara beradi, albatta. Lekin xolislik, ishonchli dalillar, e`tiroz uyg`otmaydigan hayotiy ma`lumotlarning keltirilishi bu g`oyalarni xayotga tatbiq qilishdan hammamiz manfaatdor ekanligimiz haqidagi fikrni uyg`otadi.

Targ`ibot jarayoni shu erda tugaydi, deb o`ylaydiganlar katta xato qiladilar. Zero, mafkura yangi ishlarga ilhomlantiradi, harakatga undaydi. Harakatsiz mafkura esa safsatabozlikdan bo`lak narsa emas. Demak, insonlar milliy mafkuradan o`rin olgan g`oyalarga mos harakat qila boshlaganlaridagina milliy g`oya xalqning e`tiqodiga aylanganligi haqida xulosa qilish mumkin.

Muayyan auditoriya xususiyatlariga mosligini ta`minlash targ`ibot samaradorligini ta`minlaydigan eng muxim omildir.

**Tayanch tushuncha:** milliy g`oya targ`iboti, sohalari, milliy g`oya yo`nalishlari, milliy g`oya tamoyillari, keng qamrovlilik me`yoriylik uzliksizlik bosqichma- bosqichlik

**Mavzuni mustahkamlash bo`yicha savollar.**

1. Milliy g`oyani sindirishda tadbirlarning ketma-ketligi me`yori, davomiyligi.
2. Tashviqot tushunchasi va mohiyati.
3. Targ`ivot va aksiltarg`ibot.
4. Targ`ibot samaradorligini ta`minlovchi omillar.
5. G`oyaviy-mafkuraviy qarashlarning shakllanishiga ta`sir qiladigan muhim omillar qaysilar?
6. G`oyaviy-mafkuraviy xilma-xillikning sabablari va ahamiyati nimada?
7. Muqobil munosabatning belgilari va xususiyatlarini ayting.

**ADABIYOTLAR**


1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T. , 2008.
2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma`naviyat , 2008. – B. 75, 76.
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. -T.:O`zbekiston, 1997. B.123.
4. [1]Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramimz. T.7. -T.:O`zbekiston, 1999, -B. 85. 88.
5. **O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g`oya va ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish to`g`risida"gi Qarori.-«Xalq so`zi». 2006 yil, 26 avgust.**
6. Karimov I. O`zbekiston XX1 asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.:O`zbekiston, 1997.
7. Otamurodov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g`oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar.- T.: Yangi asr avlodi, 2001.
8. Ochildiev A. Milliy g`oya va millatlararo munosabatlar.-T.: O`zbekiston, 2004.


## 7-Mavzu: Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shaklantirish vazifalari. Jamiyat barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-g'oyaviy asoslari

**Reja**:

**4. «Mafkuraviy immunitet» tushunchasi: «Xavfsizlik» (Mafkuraviy), (Barqarorlik) tushunchasi. «Mafkuraviy tahdid» tushunchasi, «Mafkuraviy xavfsizlik».**

**5. O`zbekiston mustaqilligiga jiddiy xavf tug`diruvchi mafkuraviy tahdidlar.**
**6. Mafkuraviy xavfsizlikka intilish-ijtiomiy siyosiy barqarorlik omili.**
**7. Ko`p millatli, konfessiyali jamiyatlar barqarorligini ta`minlashda milliy g`oya va mafkuraning ahamiyati.**

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o`rtasidagi o`zaro ta`sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to`la chegaralanib olgan birorta ham davlat yo`q, deb to`la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a`zo bo`lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta`siriga ko`proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g`ayri ixtiyoriy ta`sir esa ko`pincha salbiy bo`ladi.

**Globallashuvning turli mamlakatlarga o`tkazayotgan ta`siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma`naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog`liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o`tkazayotgan salbiy ta`sirini kamaytirish va ijobiy ta`sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o`rganish lozim. Bu hodisani chuqur o`rganmay turib unga moslashish, kerak bo`lganda, uning yo`nalishini tegishli tarzda o`zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o`rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma`naviyatini tog`dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo`yish bilan baravar bo`ladi.**

Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari o`tkazgan va o`tkazayotgan tadqiqotlarga ko`z yugurtirish bu sohadagi ishlar endi boshlanayotganidan guvohlik beradi. Globallashuvning milliy ma`naviyatga o`tkazadigan ta`siri haqida yozilgan jiddiyroq risola va yirik tadqiqotlar u yoqda tursin kichikroq maqolalarni topish ham mushkul. Ilmiy nashrlar va jurnallar, davriy matbuotda mazkur mavzu bo`yicha biz topa olgan ishlarning miqdori qo`llarimiz panjasidan ham oz. Har qanday siyosat, jumladan iqtisodiy siyosat va ma`naviyat sohasidagi siyosat ham ilmiy asosga ega bo`lgandagina muvaffaqiyat keltirishini nazarda tutsak, bu masalada olimlarimiz siyosatchilarimizga etarli ko`mak bera olmayotganini e`tirof etishga to`g`ri keladi. Mamlakatimiz jahon maydonida olib borayotgan siyosat ko`proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak, globallashuvning mohiyati, yo`nalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq va tahlil qilishimiz, shu orqali siyosatchilarimizning to`g`ri yo`l tanlashi va qarorlar qabul qilishi uchun imkoniyat yaratishimiz lozim.

Globallashuvga qisqa ta`rif bermoqchi bo`lsak, uni turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma`naviyati, odamlari o`rtasidagi o`zaro ta`sir va bog`liqlikning kuchayishi deyish mumkin.

Globallashuvga berilgan ta`riflar juda ko`p. Lekin uning xususiyatlarini to`laroq qamrab olgani bizningcha, frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta`rif. Unda globallashuv jarayonining uch o`lchovli ekaniga urg`u beriladi:

- Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
- Globallashuv - jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;
- Globallashuv - milliy chegaralarning «yuvilib ketish» jarayoni.

**B.Bandi ta`rifida keltirilgan globallashuv o`lchovlarining har uchalasiga nisbatan ham muayyan e`tirozlar bildirish mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak, ularning har uchovi ham unda mavjud ekanini ko`ramiz.**

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodi siyosati va ma`naviyatiga o`tkazishi mumkin bo`lgan ijobiy va salbiy ta`siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so`zlarida yaxshi ifodalangan: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o`tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo`lib uyimni ag`dar-to`ntar qilib tashlashi, o`zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman».

Globallashuvning o`zi murakkab jarayon ekani, uning turli mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma`naviyatiga o`tkazayotgan ta`siri yana ham murakkab bo`lgani sababli unga nisbatan ham jahonga bir-biriga nisbatan qarama-qarshi bo`lgan ikki guruh: globalistlar va aksilglobalistlar guruhlari vujudga keldi.

Globallashuv tarafdorlari globalistlar, deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari, siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko`proq uchraydi. Globallashuv muxoliflari esa aksilglobalistlar nomini olgan bo`lib ular orasida ko`proq so`l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotining vakillari bor. MDH hududida aksilglobalistlar Rossiya Federatsiyasi hududida faol harakat olib bormoqdalar. Bu erda ular turli anjumanlar, seminarlar o`tkazish uchun to`planib turdilar.

XX asr o`rtalarida globallashuvning institutsionallashuvi, ya`ni tashkillashuvi kuchaygandan keyin bu jarayonning o`zi ham keskin tezlashdi va kuchaydi. Institutsionallashuvning kuchayganini Butunjahon savdo tashkiloti, Xalqaro Valyuta jamg`armasi, Jahon banki, Evropa taraqqiyoti va tiklanish banki ulkan tashkilotlarning vujudga kelgani misolida ham ko`rish mumkin.

**Ma`naviyatni ham bir uyga qiyoslasak, tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustin qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi. Xuddi shu kabi biz ham yot g`oyalar, oqimlar va mafkuralar ma`naviyatimizga vayronkor ta`sir o`tkazishiga qarshi himoya choralari ko`rishimiz tabiiy. Chetdan o`tkaziladigan mafkuraviy ta`sirga qarshi himoya choralari ko`rishdan avval qanday ta`sirlarni ma`qullash lozimu, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda birorta ham milliy ma`naviyat yo`qki, u boshqa xalqlar ma`naviyatidan to`la ihotalangan bo`lsa. Hatto, Avstraliya chakalakzorlari, Afrika savannalari va Janubiy changalzorlarda turmush kechirayotgan qabilalar ham qo`shni qabilalar va zamona ta`sirini o`zida his qilib turadi. Qolaversa, tarixni tahlil qilish boshqa xalqlar ma`naviyatidan bahramand bo`lgan xalqlar ma`naviyati yuksakliklarga ko`tarilgandan guvohlik beradi.**

O`rta Osiyo xalqlari madaniyati va ma`naviyati ham Sharq va G`arbni tutashtirgan karvon yo`llarida joylashgani sababli ham Sharq, ham G`arb madaniyatidan bahramand bo`lgan. Muhimi shundaki, xalqimiz G`arb va Sharq ma`naviyatidan bahramand bo`lib ularning ijobiy tomonlarini o`zlashtiribgina qolmay, ularga ijodiy yondashib yangi cho`qqilarga ko`tarildi.

XXI asr yoshlari turli-tuman mafkuralar tojovuzi ko`chayib borayotgan sharoitda yashamoqdalar.

Prezidentimiz Islom Karimov «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasini ko`tardi va «Mafkuraviy immunitet» tushunchasining ijtimoiy-siyosiy mohiyati haqida shunday dedi: «Ma`lumki, har qanday kasallikni oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham Vatanga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog`lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta`bir joiz bo`lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur. Ana shunda johil aqidaparastlikning «da`vati» ham, ahloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g`oyalar ham o`z ta`sirini o`tkaza olmaydi. (Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. «fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar-T; «O`zbekiston», 2000 yil, 40 bet)

*«Immunitet»* tushunchasi lotincha so`zdan olingan bo`lib, «biror narsadan xalos etish, ozod bo`lish» ma`nosini anglatadi. Ya`ni xalqni turli zararli ta`sirlardan himoyalovchi tizimidir. *«Immunitet»* tushunchasi dastlab tibbiyotda foydalanilgan bo`lib, organizmning o`z-o`zini turli kasalliklardan himoya hila olish qobiliyatini bildirgan.

Oliy majlisning II-chaqiriq, XIV-sessiyasida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov quyidagi fikrni alohida ta`kidlab o`tdi: Hozirgi kunda diniy ekstremizm mafkurasiga, qo`poruvchilik-terrorchilikka qarshi kurashdagi asosiy vazifa-aholi o`rtasida, ayniqsa, yoshlar bilan olib boriladigan targ`ibot-tashviqot va tarbiyaviy ishlarni izchil, chuqur o`ylangan tizim asosida tashkil etish va ularning ta`sirchanligini keskin kuchaytirishni bugun boshimizdan kechirayotgan hayotning o`zi taqozo etmoqda. Halqaro terrorizm kuchlar birlashib, bosh ko`tarayotgan, o`ta makkor va yovuz terrorchilikning mafkuraviy zaminni yo`qotish va avvalo, yoshlarimizning qalbi va ongi, sog`lom tafakkuri uchun kurashni taqozo etmoqda. (I. Karmiov O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o`n to`rtinchi sessiyasidagi nutqi. Xalq so`zi, 2004 yil, 30 aprel)

Respublikamizning mustaqil taraqqiyoti tajribsi xalq, ayniqsa, yoshlar ongida g`oyaviy, mafkuraviy bo`shliq bo`lishga yo`l qo`yib bo`lmasligini ko`rsatdi. Mafkuraviy kurash ko`lami va shiddati, ayniqsa, 2001 yil 11 sentyabrdan keyin tobora kuchayib borayotgan xozirgi vaziyat, mamlakatimizda 2000 yil mart, aprel, iyul oylarida sodir etilgan terrorchilik xurujlari shuni taqozo etmoqda.

Shu o`rinda «Terrorizm» haqida to`xtalib o`taylik. Terrorizm kim deganda-odatda, ongi zaharlangan, fanatizmga berilgan, o`zi qiladigan jinoiy harakatiga o`zi javob bera olmaydigan, qilayotgan harakatini anglamaydigan, kimningdir yovuz niyatini bajaradigan ijrochi kimsa deb qabul qilish kerak.

Odamlarni joniga qasd qilish, o`ldirish, tazyiq ostiga olish, aholini vahimaga solish maqsadida qilinadigan, tinch insonlarni garovga olish kabi holatlar va

buning ortida siyosiy-diniy yoki fanatik maqsadlarda uyushtirilgan jinoyatlarni terrorizm qatoriga qo`shish o`rinli.

Hozirgi kunda turroristlar o`z qabih ishlarini oshirishda odamlarning soddaligi, hayotiy tajribasizligi, muqaddas dinimizga bo`lgan qiziqish va intilishlaridan g`arazli maqsadda foydalanishga harakat qilmoqdalar. Buning uchun «jihod», «shahidlik» haqidagi noto`g`ri talqin yo`lidan boradilar.

Bir aqidaga mukkasidan ketib, boshqa fikrlarni noto`g`ri hisoblab, ularga murosasiz kayfiyatga hamda o`z rahnamolari g`oyasi uchun o`zini qurbon qilish holati aqidaparastlik deb ataladi. O`zini-o`zi portlatib «shahidlik» da`vosini qilayotgan kishilar diniy aqidaparastlarning nomoyondalaridir.

Terroristik guruhlar keyingi paytlarda o`z qurbonlari sifatida ayollarni tanlayotganlari ham alohida e`tiborni o`ziga tortadi.

Ayol o`z farzandi, oilasi o`zi sevgan kishisi va o`zi muqaddas deb bilgan narsasi uchun jonini berishga tayyor. qora niyatli kuchlar esa ayoldagi mana shu fidoiylikdan g`arazli maqsadda foydalanishga urinmoqdalar.

Terrorizm muammosi XX asrning oxiri, XX1 asr boshlarida xalqaro jamoatchilikni tashvishga solib qo`ydi. BMT, Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, ko`plab mintaqaviy, xalqaro, nodavlat va jamoatchilik tashkilotlari, qonunchilik va ijroiya, huquq-targ`ibot organlari uchun muhim muammoga aylandi.

Bugun barchamiz uchun oddiy bir haqiqat ayon bo`lishi kerak: bugun insoniyatga katta tahdid solib turgan bu illatga barham berish borasidagi kurashdan hech kim, hech qaysi davlat chetda qolmasligi tabiiy. Darhaqiqat, bugungi kunda hech kim, hatto eng demokratik va qudratli iqtisodiy, harbiy salohiyatga ega davlat ham xalqaro terrorizm “xoldingi” tahdidlaridan o`zining xavfsizligini so`zsiz kafolatli ravishda ta`minlay olmaydi.

Terrorizm milliy davlat chegaralaridan chiqib, tobora kengayib, globallashmoqda. Insoniyat tinchligi va xavfsizligiga rahna solmoqda. Bu hol jahon jamoatchiligining halqaro terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan sa`yi harakatlarini yanada kuchaytirishni taqozo qilmoqda.

Hozirgi kunda bizning turmush tarzimizga, ruhiyatimizga nisbatan qilinayotgan ma`naviy-ma`rifiy hurujlarning usullari tobora noziklashib borayapti. Zararli g`oyalar turli kinofilmlar, televedenie ko`rsatuvlari va radio eshittirishlari shaklida, gazeta-juurnallar, internet tarmog`i va boshqa yo`nalishlarda uzluksiz ravishda tiqishtirilib, bizning milliy tushunchalarimizni barbod etishga, mafkuraviy immunitetimizni susaytirishga, yoshlarimizni durugaylashtirishga muntazam harakatlari sezilib turibdi. Bugungi kunda inson qalbini egallash uchun butun dunyoda to`xtovsiz kurash ketayapti. Bu zararli g`oyalarga qarshi xalqimizning or-nomusi, diniy va dunyoviy e`tiqodi, ma`naviy qadriyati, mafkuraviy immunitet vazifasini o`tashi zarur.

Alohida bir odamning ruhiyati jamoa ruhiyatiga teng emas, albatta. eng qizig`i shundaki, jamoa ruhiyatida ongsizlik darajasi balandroq. Ommaviy taassurotda Ommaviy Axborot Vositalari tomonidan aytilgan gaplarga birdan ishonish, vahimaga tushish, salbiy informatsiyaga ko`proq berilish kayfiyatlari ancha kuchli. Buni Karl Yung «jamoaviy ongsizlik» deb ta`riflagan va bugungi kunda ushbu

psixologik kategoriyani topib, uni isbotlab berilgani Yungning buyuk kashfiyoti deb hisoblanadi. Karl Yung ta`limotining ahamiyati shundaki, mazkur «jamoaviy ongsizlik» holatining jamiyatda paydo bo`lishi mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishiga salbiy ta`sir qiladi.

Milliy istiqlol g`oyasining ma`no mohiyatini va uning millat hayotidagi o`rnni mukammal tushunib etish uchun eng avval unga zamin bo`ladigan negizni aniqlab olish nazariy va amaliy ahamiyatga molikdir. Chunki, bugun «Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanining ta`lim tizimiga kiritilishi munosabati bilan u milliy g`oyaga nisbatan ham unga ustivorlik berishga urinishlar sezilmokda.

Aslida bunday harakatlarni ob`ektiv holat,-deb qarash ham mumkin. Chunki, bu fanning mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashning bugungi kundagi vazifalaridan kelib chiqqan holda bunday holat yuzaga kelmoqda.

Ammo, ana shu mustaqillikni milliy ong va g`oya yuzaga kelmasa qo`lga kiritib bo`lmasligini ham e`tibordan chiqarib bo`lmaydi. Aslida har qanday milliy maqsad va manfaatlarning debochasi milliy g`oyaning yuzaga kelishi bilan yuzaga keladi. Xuddi ana shu ma`noda ham milliy g`oyaning o`zini va uning zaminida esa milliy istiqlol g`oyasini millat taqdiridagi rolini o`rganish nazariy va metodologik jihatdan to`g`ri bo`ladi. Chunki milliy istiqlol g`oyasi millatning o`zgalarga qaram bo`lib qolishi, undan qutulish uchun zarur bo`lgan xarakatlarni vujudga keltirish va ozodlikni ta`minlash davri uchun xizmat qiladi. Keyinchalik unga ustvorlik berishga extiyoj qolmaydi. Milliy g`oya millat real sub`ekt sifatida mavjud bo`lgan har bir davr uchun o`z ahamiyatini saqlaydi va milliy taraqqiyotning vazifalari yo`nalishlariga mos ravishda yangi g`oyalar yuzaga kelishga zamin bo`lib qolaveradi.

Milliy g`oya tushunchasi. Milliy g`oya-milliy ongni uyg`otuvchi, millatning o`zligini anglatuvchi, o`ziga xoslikka, mentalitetiga «qiyofa» baxsh etuvchi milliy ruhiyat, g`urur, iftixor, e`tiqod va mas`ullik tuyg`ularini shakllantiruvchi fikrdir.

Milliy g`oya har bir insonning o`zini anglashi jarayonida shakllana boshlaydi. Insonning shaxs sifatida esa uning o`zini anglashidan boshlanadi. U ota-ona, oila va tashqi muhit bilan bo`ladigan munosabatlar orqali o`zining kimligini anglay boshlaydi. Shuning uchun ham milliy g`oya insonda ana shu munosabatlarning ta`siri ostida shakllanadi. Milliy g`oyaning asosiy manbalari-kundalik soddagina urf-odat, an`ana va qadriyatlardan boshlanib, ma`naviy meros, tarixiy xotira va milliy taraqqiyotda to`plangan tajribalargacha bo`lgan omillar bilan bog`liqdir. Milliy g`oya ota-ona, oila, millat vakillarining o`zaro munosabatlari, hatti-xarakatlari, mentaliteti ta’sirida shakllanadi. Shu ma`noda ham milliy g`oya manbalari mustahkam bo`lgandagina, u turli munosabatlar, milliy udumlar, urf-odatlar, an`analarga amal qilish orqali bolaning ongi bilan rivojlanib boradi va ulg`aygan sari uning ham umumiy dunyoqarashi, ongining ajralmas qismiga aylanib boradi.

Milliy g`oya tizimida milliy ong, milliy o`zlikni anglash va milliy mentalitet etakchi o`rin egallaydi. Milliy ong bo`lmasa, u rivojlanmasa, millat o`zligini anglamasa, u kim, qaerdan kelib chiqqan, ildizlari nimalar bilan bog`liqligi kabi tuyg`ularga ega bo`lmasa va nimalarga qodirligini bilishga intilmasa, milliy goya

ham sayozlashib boraveradi. Millat o`zining turmush va hayot kechirish jarayonida o`z millatiga xos bo`lgan udumlar, urf-odatlar, an`analar va qadriyatlarni o`zlashtirishga intilsa hamda unga amal qilsagina milliy g`oyalar uyg`onib, rivojlanib, takomillashib boraveradi. Chunki, milliy ong va milliy o`zlikni anglash milliy g`oyaga turtki beradi, uni shakllantiradi va milliy taraqqiyotga ruhiyat bag`ishlab «uni xarakatga» keltiradi. Shuning bilan birga milliy ong va o`zlikni anglashning rivojlanishi milliy g`oya imkoniyatlarini kengaytirib turadi.

Milliy g`oyaning ta`sir doirasi nihoyatda keng bo`lib, u millatning o`ziga xosligini saqlab turish, millat manfaatlari yo`lida millat vakillarini birlashtirish, uyushtirish va taraqqiyot yo`nalishlarini belgilash kabilarga o`zining ta'sirini o`tkazib turadi.

Milliy g`oya milliy o`ziga xoslikni saqlab turish va milliy manfaatlarni amalga oshirish, milliy istiqbolini belgilash uchun muhim ahamiyatga egadir. Chunki u, millat vakili bo`lgan har bir shaxsning dunyoqarashi, kundalik faoliyatida o`z ifodasini topadi. Millat vakillarining aksariyat ko`pchilik qismini milliy g`oyasi mustahkam bo`lgan insonlar tashkil qilgan sharoitdagina milliy manfaatlar uchun umummilliy xarakat vujudga keladi. Xuddi mana shu umummilliy xarakatni vujudga keltirish-milliy g`oyaning muhim vazifalaridan biri; ikkinchidan, uning millat vakillarida vatanparvarlik, ona zaminning muqaddasligi tuyg`usini uyg`otish, uni ko`z qorachig`iday himoya qilish kerakligini tushunib etishga ta`sirini o`tkazish; milliy g`oya har bir millat vakilida uning avlod-ajdodlari ana shu zaminda dunyoga kelgan, uning huzur-halovatidan bahramand bo`lgan, undan ilhom, zavq-shavq olgan va qo`nim topganligidan xabar berib turadi. Bu o`z navbatida o`z ona zaminiga mehr-muhabbatini mustahkamlaydi; uchinchidan, milliy g`oya tarixiy xotirani mustahkamlaydi va uning takrorlanmas imkoniyatlaridan manba sifatida turtki (zaryad), ilhom olib turadi. Biz umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi va umumbashariyatni birlashtiruvchanligi haqida gapirmaylik, baribir uning ildizlari, zaminlari millatning tarixiy xotirasi, merosi va asrlar davomida to`plagan hayotiy tajribalari bilan bog`liq ekanligini nazarda tutishimiz lozim bo`ladi. Xuddi mana shu jarayonda milliy g`oyaning o`rni, salohiyati, imkoniyati va yuksakligi namoyon bo`lib turadi. Milliy g`oya millat vakillarida millat taqdiri uchun mas`ullik tuyg`ularini ham uyg`otib turadi. Millat real hayotda uni tashkil etuvchi shaxslardan iborat ekan, o`zga millatlar davrasida o`z millati vakilining erishgan yutug`idan xursand bo`lsang, shu millat vakili bo`lganingdan faxrlanasan. Aksincha, millatdoshing boshiga tushgan og`ir kunlarni xuddi o`zingning eng yaqinlaring boshiga tushganday qabul qilasan.

Agar millat vakillari halol yo`l bilan boy, badavlat bo`lganini ko`rsang, mamlakatingning o`zga mamlakatlarga nisbatan tez rivojlanayotgan, katta muvoffaqiyatlarni qo`lga kiritayotganligini ko`rib ruhing ko`tariladi, kelajakka ishonching ortadi yoki aksincha, muammolarning to`planib borayotganligi ko`rsang ruhan ezilasan, qayg`urasan va ularni echishga o`z hissamni qo`shaolsam edi,-degan fikrlar xayolingizdan o`tadi. Bunday tuyg`ularning zamoni va ildizi yana milliy g`oyaga taqaladi. Faqat milliy g`oya va insoniylikning barcha ijobiy qirralarini o`zida mujassamlashtirgan shaxsda ana shunday tuyg`ular bo`lishi mumkin. Milliy g`oya faqat tor doiradagi tuyg`ularni (ya`ni milliy manfaat

doirasidagi) shakllantiribgina qolmasdan, millat bilan yonma-yon yashaydigan o`z millat va elat vakillarining hurmat qilish, ularning manfaatlarini hisobga olish, ularni o`z atrofiga birlashtirish, diniy va insoniy bag`rikenglik kabi fazilatlarning shakllanishida ham o`zining ijobiy ta’sirini o`tkazadi.

Milliy g`oyaning zaminlari «mo`rt» va qashshoq bo`lsa, yoxud qandaydir zo`ravonlik ta`siri ostida xiralashtirilgan bo`lsa, millat o`zligini yo`qota boshlaydi, o`zi haqidagi qarashlari sayozlashib boradi va oqibatda uning istiqboli ham xavf ostida qoladi. lekin avlod-ajdodlari mustahkam intelektual saloxiyat, meros va taraqqiyot tajribalarining yaratgan millatning milliy g`oyalarini ma`lum davr ichida zo`ravonlik bilan jilovlab turish mumkin, ammo uni millat tarixiy xotirasidan batamom yo`q qilib bo`lmaydi. Zero, milliy intelektual salohiyat, meros va milliy taraqqiyot davomida to`plangan tajribalar umuminsoniy mulkka aylanib, er qurrasining boshqa zaminlarida yashayotgan o`zga xalqlarga xizmat qilib kelaveradi. Bu, o`z navbatida, zo`ravonlik bilan (vaqtincha) «jilovlanib» turilgan, o`z avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan millatning istiqbolda, ya`ni o`z milliy g`oyalarining tiklanishida katta ahamiyatga ega bo`ladi, chunki milliy ma`naviy salohiyati mustahkam va boy bo`lgan millatning milliy g`oyalarini zo`ravonlik bilan moddiy kuchga aylantirishga imkon bermaslik mumkin, ammo uni batamom yo`qotib yuborib bo`lmaydi. Vaqt o`tishi bilan unga millatning extiyoji oshib boraveradi.

Milliy g`oyaning bitmas-tuganmas imkoniyatlari shu darajada kengki, u faqat millatning o`z-o`zini anglashi, milliy ong rivojlanishi bilan cheklanmaydi, balki u millatni o`zgalarga tanitadi va uning umumjahon tsivilizatsiyasi jarayonlariga mustaqil sub`ekt sifatida kirib borishiga o`zining ta’sirini o`tkazadi.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, milliy g`oya va milliy tiklanish va umummilliy taraqqiyotning muhim manbai hisoblanadi.

Milliy g`oya milliy istiqlol g`oyasini shakllantiradi va uning real amalga oshishida millatni birlashtiradi. Milliy g`oyasiz milliy istiqlol g`oyasi ham shakllanmaydi. Shu ma`noda milliy g`oyani rivojlantirish millat taraqqiyotining har bir bosqichi uchun dolzarb vazifa bo`lib qolaveradi.

«Ommaviy madaniyat va uning tamoillari». Hozirgi kunda G`arb dunyosida erkinlikni niqob qilib olgan ayrim kimsalar nafaqat bizning milliy an’analarimiz, balki barcha xalqlar uchun qadrli bo`lgan insoniylik aqidalariga to`g`ri kelmaydigan turli buzg`unchiliklarni ommaviy axborot vositalari orqali ochiqdan – ochiq targ`ib etayotganini ko`rib turibmiz. Natijada bugun odamlarni, xususan, yoshlarni buzg`unchi illatlar ta’siridan himoya qilish masalasi davrimizning dolzarb muommosiga aylangan. Afsuski, bugun jamiyatimzda ba’zan bu ta’sirlar girdobiga tushib qolib, o`z hayotini izdan chiqargan, jaholat, buzg`unchiliklar tuzog`iga tushib qolgan kimsalarning paydo bo`layotgani sir emas.

«Hozirgi vaktda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha asl ma’naviy kadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb karash bilan bog`liq holatlar bugungi tarakkiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko`pchilik butun jaxonda bamisoli balo – qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanligini anglab olmoqda».

Bugungi kunda dunyodagi soglom ma'naviyatli insonlarni tashvishga solib kelayotgan illatlar sifatida buzg`unchi kuchlar tamonidan targ`ib – tashviq qilinayotgan « ommaviy madaniyat », induvidualizm, egotsentrizm singari illatlarni misol keltirishimiz mumkin.

Shu o`rinda «ommaviy madaniyat» tushunchasining kelib chikishiga bir nazar tashlasak, ushbu tushuncha XIX asr oxiri XX asr boshlarida g`arb mamlakatlarida paydo buldi. «Ommaviy madaniyat» insonning intim xoxishlarini va ko`proq lazzatlanish g`oyasini targ`ib etishga asoslanadi. U sevgi, moda va ko`ngilxushlik vositalari yordamida insonning nafsoniy tuyg`ularini qondirishni nazarda tutadi. Masalan, XX asrning 50 – 60 yillariga qadriyat sifatida qaraldi. Oqibatda g`arbning o`zida bir qator muommolar paydo buldi: tug`ilishning keskin kamayib ketishi, oilaning muqaddasligiga putur etishi va ayolga bo`lgan hurmatning yuqolishiga olib keldi. Bugun g`arbda «ommaviy madaniyat» ta'sirida oila degan muqaddas dargohga ziyon etmokda. Hatto bir qator g`arb mamlakatlarining « qariyotgan mamlakatlar» qatoridan joy olishida ham « ommaviy madaniyat »ning ta'siri, hissasi yo`q emas.

Yer yuziga balo – qazodek yoyilib, yopirilib borayotgan, afsuski, minglab yoshlarni o`z domiga tortayotgan, milliy axloq va demokratik qadriyatlarga zid g`oyalar, hatto insoniylikka teskari illatlar va hatti - harakatlarni o`zida mujassam etgan, g`arbona tilda aytganda « ommaviy madaniyat » bugun turli munozara mavzusidir. « Olimlar va ziyolilar bu iborani ijobiy va salbiy ma'noda ishlatadilar. Ijobiy ma'noda bu tushuncha xalq og`zaki ijodi, an'ana va qadriyatlarining ko`rinishini ifodalaydi. Salbiy ma'noda esa g`araz kishilar tamonidan o`ylab topilgan g`oyalar, meyorlar, odatlar majmui bo`lib, u o`zgalar ongiga zo`rlab tiqishtiriladi. Shu ma'noda « ommaviy madaniyat » tushunchasi qo`shtirnok ichida ishlatilganda ma'naviy tahdidlarni qamrab oluvchi omil sifatida tushuniladi».

I. Karimov «ommaviy madaniyat» tushunchasiga izoh berar ekan: «ommaviy madaniyat» niqobi ostida axloqiy buzuqlik, zo`ravonlik, induvidualizm va egotsentrizm g`oyalarini tarqatish, kerak bo`lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalklarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo`porishga qaratilgan xatarli tahdidlardir », – deganda haq gapni aytgan edi.

"Ommaviy madaniyat"ning eng xunuk illatlari, olg`a surgan g`arazli g`oyalaridan biri bu, ko`ngilxushlik g`oyasidir. **Ko`ngilxushlik g`oyasi** deganda, insonning turmush tashvishlaridan bir oz bo`lsa-da chalg`ish, o`zining bush vaqtini mazmunli o`tkazishni tushunish ham mumkin, agar buni xolis, samimiy izohlasak. Har qanday sog`lom ma'naviyatli insonlar o`z hayotining har bir daqiqasidan oqilona foydalangani holda, o`zi va boshqalarga foyda keltiradigan fa'oliyat bilan shug`ullanishga intiladi. Sof niyatda, ezgu mashg`ulotlar bilan o`zining bo`sh vaqtini fayzli, o`z talant, qobiliyatidan unumli foydalanishga harakat qiladilar. Ammo biz ushbu mavzuda tilga olayotgan ko`ngilxushlik g`oyasi tamomila boshqa, insonning insonligiga zid, ma'naviy olamini tubanlikning eng chuqur jarliklari sari etaklashga qaratilgan, aqlsiz

ko`ngilning tuban mayllarini qondirishga intilgani bilan o`ziga xos xarakterlanadi. Bugungi «ommaviy madaniyat», buzg`unchi kuchlar tamonidan og`iz ko`pirtirib jar solinayotgan ko`ngilxushlik g`oyasi insonning hayot lazzalaridan xoxlagan vaqt, istagan erda va istagancha lazzatlanish, huzur qilish, bu yulda hech narsadan qaytmaslikni targ`ib qilish orqali maishatga izn beradi. Oqibatda g`arbni ma’naviy tubanlik sari undab jar yoqasiga etaklab kelgan ko`ngilxushlik g`oyasi bugun sharqqa ham ma’naviy tahdid bo`lib turibdi. Tomas Vul’fning « Manmanlik o`ti » romanida yosh moliyachi « shahvoniy hirslarga cho`kib ketgan » N’yu – York farzandi bo`lganligi uchun ham xotini va qizining hayotiga zomin bo`ladi. Ayrim ma’lumotlarga ko`ra, bugun Britaniya bolalarining 34 foizi nikohsiz tug`ilmokda, taxminan shuncha mikdordagi katta yoshlilar ajrashish alamidan aziyat chekmoqda. AKShda kamalganlarning yarmidan ko`pi buzilgan oilalar farzandlaridir. Bunday statistik ma’lumotlarni uzoq davom ettirish mumkin. Mana kungilxushlik g`oyasi bergan mevalar. “ Ommaviy madaniyat “ ning ko`ngilxushlik g`oyasi insonni ma’naviy tubanlik sari etaklaydi. G`arbda uning makoni sershovqin musiqalari, turli – tuman rangli chiroqlar bilan bezalgan tungi barlar. Minglab yoshlarni o`ziga ohangrabodek chorlayotgan bu tungi barlarning mijozlari, afsuski, kundan – kunga ko`payib bormoqda. Tungi barlar. Balki ular kimlarningdir iqtisodiy manfaati uchun, xolis maksadda tashkil etilgandir. Ammo bugungi tungi barlarning aksariyat muxlislari bu yoshlar, hali ona suti og`zidan ketmagan, kayfu – safoga berilgan, ko`ngilxushlikka mukkasidan ketgan yosh yigit – qizlardir. eng achinarli tamoni shundaki, tungi barlar ichkilikbozlik, turli tartibsizlik va giyoxvandlik kuchasidagi bekat vazifasini o`tamokda. G`arbda tungi barlarlarda sang`ish aksariyat ota – onalar tamonidan tabiiy hol sifatida qabul qilinadi. Yu. Xabermas kabi sog`lom fikrli odamlar fikricha: **« G`arb mamlakatlaridagi yomg`irdan keyingi qo`ziqorindek tungi barlarning ko`payishi odamlarda mardlik, jasorat va halollik kabi sifatlarning yuqolishiga olib keldi ».**

Bugun ko`ngilxushlik g`oyasiga griftor bo`lgan g`arbning ba’zi yoshlari **maishiy buzuqlik** kasaliga mubtalo bo`lgan. Biz maishiy buzuqlik deb atayotgan holat ular uchun balki shaxsiy erkinlikdir. Chunki so`ngi yillarda g`arbda maishiy buzuqlik, **meyorsiz erkinlik** - saddizmni inson hayoti uchun foydali deguvchilar ham ko`payib qolgan. Shu o`rinda saddizm tushunchasiga qisqacha izoh berib o`tsak, “**saddizm** “ atamasi frantsuz yozuvchisi Markiz de Sad nomi bilan bog`liq tushuncha. Yozuvchining “Sadomda 120 kun“, “Fohishaxonalar falsafasi “ singari tubandan – tuban mazmundagi kitoblarida insonning eng tuman illatlarga giriftor bo`lishi mumkinligi tasvirlanadi. Sad o`z asarlarida odamlarni ma’naviy buzuqlikning xoxlagan izmiga solish mumkin, faqat ularning ma’naviyatini egallasak bas, kerak bo`lsa biz o`zga yurt odamlarini shunday o`z ta’sirimizga olishimiz kerakki, toki, ularning o`zlari bizga yukinib kelsin, degan qarashlarni ilgari suradi. Natijada bugun « Markiz de Sad asarlarining qayta –qayta nashr etiliyotgani, maishiy buzuqlikka bag`ishlangan kinolar va asarlarning ko`payib boriyotgani, hatto, ba’zi mamlakatlarda fohishaxonalar ochishga ruxsat borligi, har yili badavlat arab mamlakatlariga

Osiyodan 4 millionga yakin ayollar « uy xizmatchisi » niqobi ostida keltirilayotgani saddizmning ommaviy hodisa bulib qolayotganidan dalolat beradi » deb bemalol aytish mumkin.

Bugun insoniyatning taraqqiyotiga salbiy ta'sir qiluvchi shunday buzg`unchi g`oyalar yaratilmokdaki, bu g`oyalar inson ma'naviyatini faqat zalolat sari etaklashga xizmat qiladi, xolos. G`arb dunyosidagi sog`lom fikrli insonlarni tashvishga solayotgan, o`ziga xos karashlarni mujassam etgan **bir xil jins** egalarining o`zaro oila qurayotganligi achinarli holdir. Sharqda bunday holat azaldan qoralanib kelingan. Ahmad Yassaviy aytganlaridek, bunday buzuq qarashdagi odamlarning hayvondan nima farqi qoladi. **«…besaqolbozlik jahannamga elitadi. Har doimdagiday, g`urur erga urilganda eng yaramas illat yuzaga chiqadi. Insoniyatning jinslarga bo`linishi koinotning tabiat qonunlariga kura qutblanishi tajassumidir. erkaklar va ayollar qo`shimcha ilk sabablardir. Jinsiyat ularning ilohiy va nasl qoldirish bo`yicha o`zaro kelishuvidir. Shuning uchun ham bir jinsga mansub kishilarning oila qurishi tabiiy tartib buzilishining eng dahshatli ko`rinishidir».**

G`arbning o`zida ham sog`lom ma'naviyatli odamlar allaqachon bunday illatarni qoralab kelgan: Insonda u yoki bu sifatlarning shakllanishi uning ma'naviy qiyofasining qay darajada ekanligiga bog`liq. Bugun insoniyat tafakkuri taraqqiyotini kuzatsak, odamzod bir tamondan aql bovar qilmas ixtirolarni ijod etayotgan bo`lsa, ikkinchi tamondan odamzod hatto hayvondan-da battar ahvolda, chirkin tabanliklar botqog`iga botgan, ba'zi kimsalar o`z nopok illatlari bilan faqat o`zinigina emas, o`zgalar hayotini ham zaharlamoqda, hatto kelajak avlod hayotini ham xarob etmoqda. Insoniyat ma'naviy tanazzul girdobiga uchragan. Xushsurat axloqning o`rnini badsifat xislatlar egallagan, olijanob maqsadli hayot tarzi bema'ni axloq va illatlar bilan bulg`angan, inson ma'naviyati tubanlikka yuz tutgan. Buyuk tabiatning mo`'jaz xilqati o`z aqlu tafakkuri bilan tabiatning barcha tirikligi orasida tengsizligi bo`laturib, shu aqlu tafakkurini o`z qo`li bilan xiralashtirib, o`zini ma'naviy tubanliklar girdobiga otmoqdaki, bu har qanday aqli raso kishini hayratlantirmay iloji yo`q. Masalan, ma'lumotlarga ko`ra, Buyuk Britaniyada mashhur qo`shiqchi elton Jon bir xil jins vakillarining nikohdan o`tib, oila qurishini erkinlik na'munasi sifatida butun dunyoga ko`z – ko`z qilmoqda. eng yomoni shundaki, bunday odamlarning yoshlar o`rtasida ming – minglab muxlislari bor va ularning bu kabi jirkanch ishlari ana shu yoshlar ongini zaharlamasdan qolmaydi albatta.

Asrlar davomida Sharkda, xususan, uzbek xalqida o`z farzandlari ayniqsa, qizlar tarbiyasi, odob - axloqi bilan jiddiy shug`ullanib kelingan, avlodninng har tamonlama barkamol bo`lib voyaga etishiga katta ahamiyat berilgan. Shu bois, o`zining tafakkuri, odob – axloqi va buyuk xizmatlari bilan dunyoni hayratga solgan A. Navoiy, Bobur Mirzo, Ulug`bekdek buyuk shaxslar, Nodirabegim, Zebuniso va Uvaysiy singari o`nlab oqilalar xalqimiz ma'naviyatini boyitgan. **« Bizning ulug` ajdodlarimiz o`z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy me'zonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq koddeksini ishlab chiqqanlarini eslash o`rinli.**

**Ota – bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or – nomus, uyat va andisha, sharmu – hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg`u va tushunchalar bu koddeksning asosiy ma'no – mazmunini tashlkil etadi»**. Ammo bugun ba'zan yoshlar o`rtasida milliy mintalitet, qadriyatlarimiz va turmush tarzimizga xos bo`lmagan yot va begona g`oyalar, buzg`unchi illatlar ta'siriga tushib qolgan holatlarga ham duch kelib turibmiz.

Bugun yoshlar ma'naviyati va madaniyati bilan bog`liq muommolardan biri **kiyinish madaniyati** va unda g`arb madaniyatiga taqlid, ergashish masalasi dolzarb mavzu bo`lib turibdi. Milliy ta'lim – tarbiya olgan, ma'naviyatida milliy madaniyatimizga hurmat va e'tiqod shakllangan, kiyinishda ham o`z milliy qiyofasini yo`qotmagan yoshlarimiz ko`p, albatta. Lekin ba'zan ko`chada, jamoat joylarida ochiq – sochiq kiyinib yurgan yoshlarimizni uchratish mumkin. Bu uning uchun "moda", "zamonaviylik" yoki ochiq aytadigan bo`lsak, bugun "ommaviy madaniyat " deb atalgan g`arb madaniyatiga taqlid. Zamonaviy yashash yaxshi, dunyo taraqqiyotidan orqada qolish kerakmas, ammo biz kim, qaysi millat vakili ekanligimizni unutmasligimiz kerak. Insonning tashqi qiyofasi ham uning qaysi millatga tegishli ekanligi va qanday ma'naviyat egasi ekanligini ko`rsatib turuvchi belgilardan hisoblanadi. I. Karimov " Yoshlik " talabalar shaharchasida talabalar bilan bo`lgan uchrashuvda kiyinish madaniyati haqida fikr bildirib, shunday degan edi: **" kiyinish madaniyatida albatta milliylik bo`lishi kerak. Qolaversa, kiyim tanlash va kiyinishda yoshlarimiz milliy turmush tarzimizga, O`zbekiston sharoitiga, iqlimimizga mos jihatlarni inobatga olishsa, foydadan xoli bo`lmaydi ".**

«Ommaviy madaniyat » targ`ib qiliyotgan moda insonning xoxlagan alfozda, istagan kiyimda jamoat joyida bemalol yurishini targ`ib qilishga asoslangan qarashlar majmui hamdir. Yoki buni qo`pol tarzda bayon etadigan bo`lsak, «yarimyalong`ochlik »ni targ`ib etish. Bu balki birovlar nazarida shaxsiy « erkinlik », « demokratiya »dir, ammo bu bizning asrlar davomida shakllangan urf – odat, udumlarimiz, milliy qadriyatlarimizga mutloqo tug`ri kelmaydi. Buzg`unchi kuchlar moda deganda, bugun shunday modalarni yaratilmoqdaki, ular o`zlarining bejirim, rango – rangiligi bilan yosh yigit - qizlarimiz diqqat – e'tiborini o`ziga tortmokda. Yarimyolong`ochlikka asoslangan ushbu modalarning olimlar bir kator zararli tamonlarini aniqlaganlar:

1. Odamlar, ayniqsa, yoshlarning tarbiyasi buziladi.
2. Inson hayvonat olamiga yaqinlashib boradi.
3. Kishilarning, ayniqsa, ayollarning latofati yo`qolib boradi.

Ayol tabiatning bebaho mu'jizasi. U o`zining nozikligi, nafosati, latofati va go`zalligi bilan o`ziga qarama – qarshi jins vakili – erkaklardan ajralib turadi. Shunday ekan, ayol kishi tabiatning bu in'omini asray bilishi va o`z ma'naviyatini hayo, ibo, iffat fazilatlari bilan boyitib borishi kerak, shunda u yanada go`zallashadi. Olloh ham go`zallikni sevguchidir.

Har bir xalqning o`z kiyinish madaniyati, odob – axloq meyorlari mavjud. Xalqimizning bu sohada ham asrlar davomida sayqallangan tajribasi bor, nima uchun bugun biz g`arbning palak otib borayotgan yarimyalong`och

kiyinish madaniyatini qabul qiliyapmiz? Moda deb yarashsa – yarashmasa turli bo`lmag`ur, milliy qiyofamizga nomutanosib kiyimlarni elkamizga ilib olsak, unda milliy, sharqona qiyofamizga putur etmaydimi? Milliy qiyofamizni saqlashga o`zimiz harakat qilmasak, kim bu uchun jon kuydiradi, bundan tashqari bunday kiyimlarni elkaga ilish bilan o`zgalarning milliy qiyofamizga doxl kilishlariga o`z qo`limiz bilan yo`l ochib bermaymizmi ? Zero, kishining kiyimi, tashki ko`rinishi ham uning ichki olami, ma’naviyatini aks ettiruvchi belgilardan sanaladi. Inson o`zining kimligi, qaysi millatga mansubligini bilishi va unga sodiq kqlishi bugungi kunda muhim, bu milliy o`zlikni anglash, milliy mansublikdir. Albatta, har sohada bo`lgani kabi, umumjahon taraqqiyotidan orqada qolish kerak emas. Ammo bunga milliy qiyofamizni qurbon qilish evaziga emas, aksincha, milliy ma’naviyatimizni asos qilgan holda, taraqqiyot sari yuz tutmoq kerak. Shundagina xalqni xalk, millatni millat sifatida saqlab qolish mumkin.

Hozirgi paytda liboslar sanoati bilan shug`ullanuvchi g`arbning « Kristian dior », « Versache », « Pol Makkarti », « Shanel’ » kompaniyalari mahsulotlari dunyo bozorida eng yuqori o`rinlarni egallaydi. Bugungi kunda shu va shunga o`xshash kompaniyalar mahsulotlari, turli liboslari juda tezlik bilan urfga aylanayapti. Buning sababi nimada? Buning birinchi sababi, sun’iy yo`ldoshlar, ommaviy axborot vositalari, internet orqali jahonda paydo bo`layotgan kiyinish yangiliklari haqida axborotga ega bo`lish. Ikkinchisi, hozirgi paytda erkinlikka intilish hamda madaniyatlarning o`zaro yaqinlashuv jarayoni bilan bogliq. Bugungi yoshlarimiz esa juda qiziquvchan, yangilikka o`ch. Ular har bir voqea – hodisani e’tiborsiz qoldirmaydilar. Ayniqsa, dunyoda paydo bo`layotgan modalar hamisha ularning diqqat markazida. To`g`risi, ba’zi yoshlarimiz qaysi joyda qanday kiyimni kiyish kerakligi, o`zining bo`y – basdiga nima yarashishini o`ylamaydilar ham. Yoshlarimiz kiygan kiyimlari ularning muomalasi, yurish – turishi, hatti –harakatlari, o`zini tutishi, og`izlaridan chiqayotgan so`zlariga ham ta’sir etmay qolmaydi. Afsuski, buning mohiyatini tushunmagan ba’zi ota – onalar esa farzandlariga kiyinish madaniyatidan o`git berish o`rniga aynan ularning o`zlari farzandlariga g`arbona, yarimyalong`och kiyimlarni kiyishni tavsiya etish orqali farzandidan «zamonaviy» bo`lishni talab etayotganlari afsuslanarlidir.

Faqat modada kiyinish kishining zamonaviyligini bildirmaydi. Zamonaviylik, avvalo, insonninig ichki va tashqi qiyofasining zamonga uyg`unlashishi demakdir. Shu ma’noda har bir kastyum, libosning o`z mazmuni bor. Rivojlangan mamlakatlarda oiladan tashqari maktabda, o`kuv yurtlarida insonning turli davralarda o`zini tutishi, o`zi uchun munosib kiyim tanlash borasida maxsus bilimlar beriladi. Bizda bunday bilimlar maktabda « Odobnoma », « Oila psixologiyasi », oliy o`quv yurtlarida « etika », « estetika » kabi fanlarda umumiy o`qitiladi. Bugungi yoshlarimizning g`arb modasiga mukkasidan ketayotgani, ular milliy kiyinishni unutdilar, degani emas. O`zbek xalkining milliy kiyimlari hamisha e’zozda, atlas, adras, banoras va beqasam matolar yana urfga kirmokda. Zamonaviylik va milliy uyg`unlik aks etgan andozalarda tikilgan liboslar keng yoyilmokda. Bugun mamlakatimizda va

butun jahonda zamonaviy kiyinishning milliy va zamonaviy uyg`unlashgan ko`rinishlari xam rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda istiqloldan so`ng tadbirkorlik, insonning o`z ist’edodini rivojlantirishga qaratilgan imkoniyatlari natijasida yoshlarimiz orasida zamonaviy kiyimlarning tarix, milliylik bilan uyg`unlashgan dizaynerlari etishib chikmoqda. Albatta bu quvonchli hol. Ular bugun bu liboslarni faqat to`yu – tantanalarda emas, ish sharoiti uchun ham moslashtirish niyatida izlanmoqdalar. Bu ham o`zlikni anglash, milliy – ma’naviy tiklanish jarayoni davom etayotgan jamiyatimiz taraqqiyoti va xalqimiz milliy - ma’naviy qiyofasini tiklashdagi muhim qadamdir. Shunday ekan, har birimizning did, farosatimizda sharqona tarbiyaning bo`lishi, tashqi qiyofamizda ham milliylik muhimdir.

«Ommaviy madaniyat »ning bugun butun dunyo bo`ylab tarqalib borayotgan, insonlarning ma’naviyatini o`z maqsadi sari etaklashga urinayotgan ma’naviy tahdidlaridan biri **individualizm** g`oyasidir.

Individualizm lotincha so`z bo`lib, bo`linmas demakdir. Ushbu g`oya negizida shaxsning jamoadagi avtonomiyasi, uning o`z manfaatlarini boshqalardan alohida, hatto ustun ko`yish, o`z qobig`iga o`ralib yashashiga asoslangan qarashlari tashkil etadi. « Hozirgi paytda ommaviy bir xillik hukumron bo`lib borayotgan, kishilar dunyoqarashini boshqarish, ularning xulqiga muayyan standart qoliplarni singdirish yo`lidagi urinishlar tabora avj olayotgan va keng miqiyos kasb etayotgan bir paytda individualizm uzining ham nazariy, ham amaliy ko`rinishida ana shu hodisalarga o`ziga xos javob reaktsiyasi sifatida namoyon bo`lmoqda ».

Individualizmda shaxsning odomoviligini tushunish mumkin. Uning ta’siriga tushgan har qanday yigit - qiz o`zbilgicha yashashga, ko`ngliga nima kelsa, shuni amalga oshirishga harakat qilishga urinadi. U uchun ota – ona, qarindosh - urug`, mahalla – ko`yning ahamiyati yo`q, ularning o`z hayotiga aralashishini ham istamaydi. Individualizm ta’siriga tushgan kishi uchun atrofdagilarning hayoti, tashvishi begona. Ular faqat o`z hayoti, o`z tashvishlari bilan band bo`lib, o`zgalar hayoti bilan qiziqmaydilar, hatto buni ortiqcha, deb hisoblaydilar va o`zgalarning ham u uchun qayg`urishini istamaydilar. Bunday odamlarning mavjudligi albatta jamiyatga foyda emas, chunki ma’naviyatida loqaydlik, befarqlik kayfiyati ustun bo`lib o`sgan har bir yigit – qiz o`zini oilada mustaqil tutishga urinadi. O`z fikrini o`zi ma’qullab, har doim o`zini haq, deb biladilar. Bu holat g`arb uchun shaxsiy erkinlik, jamiyatda shaxsning alohida mustaqil individ sifatida namoyon bo`lishi, deb e’tirof etiladi. Ko`pchilik bu holatni ijobiy baholaydi. Shaxsning o`z erki, mustaqil qarashlarga ega bo`lishi yaxshi, albatta. Ammo g`arbda shaxs fikri ustun bo`lgani kabi, sharkda, jamoa fikri ustun turadi. Bu holatni hisobga olsak, individualizm g`oyasi bizning ma’naviy muhit, turmush tarzimiz, milliy an’ana va qadriyatlarimizga tug`ri kelmaydi. Asrlar davomida davom etib kelayotgan ota –onaga hurmat, qon – qarindoshlik rishtalari, mahalla – ko`yga bo`lgan munosabat, mahalla – ko`yga bo`lgan munosabat bizda individualizm qarashlariga zid holat sifatida shaxsning alohida, hech kimni tan olmasligiga izn bermaydi. Bizda shaxsdan shaxs sifatida va undan ko`prok jamoa vakili sifatida namoyon bo`lish talab

etiladi. Ammo bugungi kun mafkuraviy jarayonni hisobga olsak, individualizm odamlar, yoshlar qalbini egallab olmaydi, deb aytaolmaymiz. Boshqa buzg`unchi g`oyalar kabi individualizm ham xalqimiz, xususan, yoshlarimiz uchun ma'naviy xatardir. Individualizmdek xatarlarning kuchayib borishi odamlarni o`zi tug`ilib o`sgan yurti va xalqidan bezishiga, ular qalbida vatanparvarlik, yurtga sadoqat tuyg`ularining barham topishiga va eng xatarlisi odamlarni hamma narsaga loqayd bo`lib qolishiga olib keladi. Donishmandlardan biri loqaydlik haqida shunday degan edi: **« Dushmanlardan qo`rqma, nari borsa ular seni o`ldiradi. Do`stlardan qo`rkma, nari borsa ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo`rk, ular seni o`ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va befarq qarab turishi tufayli er yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo`laveradi ».**

Individualizm kabi har qanday buzg`unchi g`oyalar er yuzi bo`ylab yoyilib borayotgan ekan, bu holat faqat bitta millat yoki xalq xayoti bilan bog`liq jarayon emas, dunyoning barcha millat va elatlari uchun mafkuraviy xatar, tajavvuzdir. Er yuzidagi har bir sog`lom ma'naviyatli insonlar mavjud buzg`unchi g`oyalar, mafkuralardan o`z millati, xalqini asrashga intiladi.

Turli ma'naviy tahdidlarning ko`payib borishi bugungi kunda dunyoning ba'zi hududlarida katta ma'naviy yo`kotishlarga olib keliyotgani sir emas. Millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, buning oqibatida inson ma'naviyati bilan bog`lik turli muommolarning kelib chiqayotgani, axlok – odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi izdan chiqayotganligini kuzatish mumkin. Shu o`rinda I Karimovning ushbu suzlarini iqtibos tariqasida keltirish maqsadga muvofiq:
**«Ma'naviyatimizga karshi karatilgan har kanday xuruj – bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga utib kelayotgan o`ziga xos va o`ziga mos xususiyatlarga, milliy g`urur, milliy iftixor tuyg`usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotga chorlaydigan, shu yo`ldagi barcha asorat va illatlardan xalos bo`lib, ozod va farovon xayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf – xatarlarni anglatadi ».**

Individualizm kabi inson ma'naviyatiga yopishayotgan illatlardan yana biri e**gotsentrizm** balosidir. Individualizm qarashlariga yaqin, insonning o`z maqsadlarini hamma narsadan ustun ko`yishi, o`z huzur – halovoti yo`lida hech narsadan tap tortmasligi, nimadan foyda kelsa, shunga mukkasidan ketishlik, o`zi va faqat o`zini o`ylash kayfiyati egotsentrizmga xos holat. egotsentrizm odamzod ma'naviyatidagi illatlardan biri sifatida insoniyatga etkazgan zarari nuqtai nazaridan bu illat jaholat va aqidaparastlikdan aslo qolishmaydi.

Egotsentrizmga berilgan kishi atrof – muhit, ota – ona, qarindosh - urug` va boshqalar bilan munosabatda faqat o`zining shaxsiy manfaati, maqsadini ko`zlab ish yuritadi. O`zgalar dardi, tashvishi uning uchun begona. eng xatarli tamoni, o`z manfaati yo`lida u hatto har qanday pastkashlikdan ham toymaydi. Bunday odamlarda vijdon, burch, mas'uliyat, halollik, vatanparvarlik va yurtga

sadoqat tuyg`ulari bo`lishi dargumon. Jamiyatda bunday odamlarning mavjudligi esa xatardan boshka narsa emas.

Egotsentrizm inson ma'naviyatida o`z – o`zidan paydo bo`lib qolmaydi, albatta. To`g`ri tarbiya topgan, xalqning azaliy qadriyat va an'analari ta'sirida tarbiyalangan kishi ma'naviyatida egotsentrizm ildiz otmaydi Xalqning azaliy qadriyatlariga eskilik sarqiti sifatida munosabatda bo`layotgan g`arbning ba'zi yoshlari esa egotsentrizm ta'siriga tushib qolgan, ular uchun oila qurish, farzand tarbiyasi bilan shug`ullanish ortiqcha tashvish. O`z huzur – halovotidan voz kechishni istashmaydi, oila ular uchun hayotdagi to`siq, xalaqit beruvchi, ortiqcha yuk. Natijada, bugun g`arbning ba'zi mamlakatlarida tug`ilish darajasi borgan sari pasayib ketmokda.

Bugun insoniyat ulkan yutuqlarga erishdi. Uning tafakkuri cheksizlik sari intilmoqda. Olis koinotu tubsiz er qa'ridan yangilik axtaradi. Ong va tafakkuri o`sgan sari, afsuski, insonlar ma'naviyatida turli illatlar, o`zgalar hayotini izdan chiqarishga qaratilgan buzg`unchiliklar ham davom etmoqda, degan fikrni mavzumizning boshidayoq ta'kidlab o`tgan edik. Bu haqda fikrimizni davom ettirib, shuni aytish mumkinki, aslida bu qarama – qarshilik, ezgulik va yovuzlik o`rtasidagi azaliy kurash. Inson esa bu ikki qutb o`rtasidagi azaliy kurashning qurbonidir. U allaqachon dunyoning ezguligi va buzg`unchiligi o`rtasidagi bu kurashni anglab etgan, ammo anglab etgani holda, afsuski, uning o`zi bu kurashda faol ishtirokchiga aylangan, bir – birini yo`q qilishga shay, bir – birini tanazzul sari etaklaydi. Inson tamonidan yaratilayotgan buzgunchi goyalar er kurrasini bir emas, bir necha marta yuk kilib tashlashga kodir. Shunday taxlikali, xavf – xatarga to`la dunyoda yashar ekanmiz, avvalombor, inson ekanligimizni, tiriklik biz uchun oliy ne'mat ekanligini chukur anglab etishimiz zarur. Ma'naviyatmizga bo`layotgan har bir xatar, tahdidni ko`raolishimiz va unga nisbatan ogoh bo`lib yashashimiz kerak. I. Karimov aytganidek: **« Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid – o`zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog`lom avlod kelajagini ta'minlash yo`lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir – oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin ».**

Insoniyatning buzg`unchi g`oyalari tufayli atrof – muhit, tabiat bulg`angan, nafas olish mushkullashgan. Bugun insoniyat hayoti o`zi yaratgan illatlardan xavf ostida. Mana inson ma'naviyatining buzg`unchiligi oqibati.

Bugun juda ham extiyotkorona qadam qo`ymok kerak. Ayniksa, hali suyagi qotmagan farzandlarimizni yovuz kuchlar hujumidan asrab, avaylab tarbiyalashimiz zarur. Toki, ularning musaffo, murg`ak qalblarida turli buzg`unchiliklar ildiz otmasin. Zero, ular kelajagimiz, bugungi taraqqiyotning ertangi egalaridir. Yoshlar qalbida ezgulikni tarbiyalash ular ma'naviyatining sofligi va milliy ma'naviyatini asrab qolish garovi. O`z milliy ma'naviyati, madaniyatiga ega xalqgina o`zini xalq, millat sifatida saqlab qolaoladi.

Ma`naviy tahdid, "Ommaiy madaniyat", "ommaviy madaniyat" tamoyillari, ko`ngilxushlik g`oyasi, yarimyalang`ochlik, evropalashtirish, egotsentrizm, individuelizm kiyinish madanyati.

**Mavzu bo`yicha savollar.**

1. Tahdid deganda nimani tushunasiz? Ma’naviy tahdid tushunchasiga izoh bering.
2. “Ommaviy madaniyat “ va uning tamoyillari haqida nima bilasiz ?
3. Individualizm va egotsentrizm g`oyalari to`g`risida o`z tushunchangizni bayon eting.

**Tayanch so`z va iboralar:**

- Mafkuraviy immunitet tushunchasi;
- Talaba yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- Milliy mafkura ijtimoiy siyosiy va ma`naviy barqarorlikning muhim omili;
- Mafkuriy xavfsizlikka intilish-ijtimoiy-siyosiy barqarorlik omili;
- Terrorizm tushunchasi;

**Munozara uchun savollar:**

5. Mafkuraviy immunitet nima?
6. Yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish deganda nimani tushunasiz?
7. Mafkuraviy xavfsizlik nimani bildiradi?
8. Terrorizm nima?

**Adabiyotlar:**


1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T; «O`zbekiston», 2003 yil
2. Karimov I. A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 6-T; «O`zbekiston», 1997 yil 31-40, 125-135, 149-162 bet
3. Karimov I. A Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.7.-T; «O`zbekiston», 1998 yil 132-158 bet.
4. Karimov I. A. Jamiyat mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T.7. -T; «O`zbekiston», 1999 yil, 84-102 bet
5. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8.-T; «O`zbekiston», 2000 yil
6. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8.-T; «O`zbekiston», 462-467 bet
7. Karimov I. A. Hushyorlikka da`vat. T.8.-T; «O`zbekiston», 2000 yil 18-31 bet
8. Karimov I. A. «Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasidagi so`z boshi. T.9.-T; «O`zbekiston», 2001 yil 220-224 bet
9. Karimov I. A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o`z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog`liq. -T; «O`zbekiston», 2004 yil

10. Karimov I. A. el-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish-har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat halq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so`zlagan nutq «Ishonch», 2004 yil 26 may
**11.** Karimov. I. A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezoni bo`lsin. Surxondaryo viloyat halq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so`zlagan nutq. «Xalq so`zi», 2004 yil 2 iyun.
**12.** Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar-T. «Yangi asr avlodi». 2001 yil

## 8-Mavzu: Tafakkur o'zgarishi va ma'naviy yangilanishda milliy g'oyaning roli. Milliy g'oyani rivojlantirishning institutsional tizimi.

**Reja:**

**1. Mafkuraviy tarbiya tushunchasi.**
**2. Milliy istiqlol g`oyasini inson qalbi va ongiga singdirish yo`nalishlari.**
3. **Milliy o'zlikni anglash va ma'naviy yuksalishning strategik va taktik vazifalari.**

Istiqlol yillari bunday meroslarimizni har tomonlama o`rganib, yangi bosqichlarda rivojlantirish va ulardan jamiyatimiz ehtiyojlari yo`lida keng foydalanish eng muhim vazifalardan bo`lib qoldi. Xususan, o`tmish ma`naviy merosimiz ichida alohida o`rin tutuvchi xalq dostonlari bugungi kunda g`oyaviy-mafkuraviy tarbiyada juda katta ahamiyatga ega.

Kishilar ongi va qalbini makon tutgan g`oya va mafkuralar ta`lim hamda tarbiyasiz shakllanmaydi, jamiyat ravnaqiga, millat va xalqni kelajagiga xizmat qiluvchi qudratli botiniy kuchga aylana olmaydi. Zero, jamiyat mafkurasi, o`tmish bilan xozirgi davr va kelajakni, kechagi kun bilan ertangi kunni bog`lab, tutashtirib, aloqadorligini mustahkamlab turish uchun xizmat qilishga qodir ijtimoiy g`oyalar majmui bo`lib, ularning mohiyatini belgilovchi ustuvor tamoyil, bu jamiyatimiz tabiatiga, millatimiz mentalitetiga xos bo`lgan insonparvarlik tub negizi hisoblanadi. Binobarin, yoshlarimiz ruhiyatiga insonga mehr-muhabbat tuyg`ullarini singdirish jarayonida milliy g`oyaning ana shu tamoyilini ta`lim-tarbiya tizimini bosh maqsadiga aylantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta`kidlaganidek, «erkin fuqaro ma`naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardandir. Boshqacha aytganda, biz o`z xaq-huquqlarini taniydigan, o`z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo`layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg`un holda ko`radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak» (Ислом Каримов. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда Ташкент. 1999й. 17-18 бетлар.).

Yoshlarni imon-e`tiqodli, milliy g`oyaga sadoqat, bir-birlariga mehr oqibatni, o`z Vataniga, millati, dini, tili, tarixi, madaniyati urf-odatlariga hurmat ruhida

tarbiyalash bugungi kun talabidir. Zero, fuqarolarni yangicha tafakkur asosida tarbiyalash orqali milliy g`oya va mafkuraning hayotbaxsh insonparvarlik tomoyillariga, umumbashariy qadriyatlarga mos keladigan xulq-atvorni shakllantirish va kamolga etkazish, ya`ni jamiyatda mehr-muruvvat madaniyatini qaror toptirish mumkin.

Mafkuraviy tarbiya talabaning ma`naviy, ma`rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarini oddiygina qabul qilib olishinigina emas, balki ularni ongli ravishda tushunib etishini, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy hodisalarga mafkuraviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko`nikmalarini shakllantirishga o`rgatishni ko`zda tutadi. Bu ko`nikmalar talaba dunyoqarashini, bilimlarini milliy istiqlol g`oyasi – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag`rikenglik (tolerantlik) nuqtai nazaridan sekin-asta boyitib borish bilan ta`minlanadi. Shuning uchun yosh avlodni tarbiyalashda uning dunyoqarashi, bilim darajasi, madaniy va siyosiy saviyasi, xulq-atvori umuminsoniy qadriyatlarga va qonun-qoidalarga mos kelishi eng muhim ahamiyatga ega. Chunki, inson mavqei jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog`liq bo`lib, shaxs kamolining asosiy manbai jamiyatda, uning faoliyati bilan bog`liq ijtimoiy va oilaviy-maishiy munosabatlar tuzumida ekanligini tarix tajribasi tasdiqlab bergan.

Inson mohiyati masalasini, uning jamiyatda tutgan o`rnini, shaxsning dunyosini ifodalovchi o`zaro uzviy bog`langan e`tiqod (iymon), huquq, burch, diyonat (vijdon), adolat, halollik kabi qadriyatlar orqali to`g`ri idrok qilishi mumkin. Aslida har bir fuqaro hayotdagi o`rnini, mavqeini o`z jamiyati, vatani, tevarak-atrofidagi muhim (oila, mehnat jamoasi, mahalla va h.k.) oldidagi burchi va mas`uliyatini ichki his-tuyg`ulari, vijdoni orqali chuqur tushunib olsa, mustaqil fikri bo`lsa ijtimoiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi. Shunday qilib, ***mustaqil fikrlash*** - shaxsning bevosita o`ziga bog`liq bo`lgan, uni tashqi muhitning turli ta`sirlariga nisbatan fikr-o`ylari vositasida munosabatda bo`lib, kerak bo`lsa, unga qarshilik ko`rsatish qobiliyatidir.

Mustaqil fikrning yo`qligi, afsuski, ayrim toifalar, xususan oliy va o`rta maxsus ta`lim tizimiga tortilmagan yoshlar, ayollar o`rtasida uchrab turadi. Bunday holatda odamlarning buzg`unchi g`oyalar ta`siriga, yot mafkuralar girdobiga tushib qolish xavfi ortib boradi. Shaxsning fikrga qarshi fikr bilan, g`oyaga qarshi g`oya bilan, jaholatga qarshi ma`rifat bilan qarshilik ko`rsata olish imkoniyati torayadi. Bu, aytish mumkinki, yoshlarni mafkuraviy nuqtai nazardan tarbiyalashdagi eng katta muammolardan biridir.

Milliy g`oyani yoshlar qalbi va ongiga singdirishning muayyan tizimi va ustivor yo`nalishlari xaqida talabalarga tushuncha berishda ta`lim-tarbiya va targ`ibot-tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish kerak.

Milliy g`oyani inson qalbi va ongiga singdirish yo`nalishlari:

Birinchisi - ta`lim sohasida:

maktabgacha tarbiya;

umumiy o`rta ta`lim;

o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi;

oliy ta`lim.
Ikkinchisi - ta`lim sohasida:
tarbiya;
oila;
mahalla;
ijtimoiy- ommaviy institutlar;
ma`muriy-siyosiy tashkilotlar;
mehnat jamoasi.

Milliy istiqlol g`oyasi, avvalo, oilada, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o`giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Mafkuraviy ta`lim jarayonida quyidagi omillar ustivor ahamiyatga ega bo`ladi. Bular:

Vatan tuyg`usini shakllantirish;
Ona tilimizga muhabbat uyg`otish;
milliy kadryatlarga hurmatni kuchaytirish;
ezgulik timsoli bo`lgan ayolni ulug`lash;
oilaning vatanparvarlik hissini tarbiyalashdagi o`rnini ko`rsatish;
mahallaning demokratiya darsxonasi va o`z-o`zini boshqarish maktabi ekanini tushuntirish va hokazo.

1. Mamlakatimizda bozor munosabatlariga o`tib borilmoqda. U talab va taklif qonunining bir-biriga mos kelishida, ya`ni talabga qarab ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning taklifning miqdori, sifatini belgilash ustivorligi ta'minlanish jarayoni yuzaga kelmoqda, samara bermayotgan korxonalarning bekilishi, jamiyatning tabaqalanishi davlatning ishlab chiqarish ustidan hukmronligi, tugashi, aholi o`rtasida ishsizlikni yuzaga kelishi, mulkchilikning turli shakllarini etakchilik qilishi kabi jarayonlar amalga oshirmoqda. Ammo, ularni hal qilishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlar tadbirkorlikni rivojlanishi, mulkiy munosabatlarning rivojlanishi ommaning moddiy ishlab chiqarishidagi faolligining oshuvi, demokratik jarayonlar rivojlanishi va jamiyat hayotini yangi kelgan sharoitga mos ravishda ma`naviy-ma`rifiy yangilash, odamlarni ana shu jarayonlarga moslashuvi bozor munosabatlar shakllanishidan orqada qolmoqda.

2. Qabul qilinayotgan qonunlar, me`yoriy hujjatlar va Prezident farmonlari bilan uning real amalga oshish o`rtasida nomunosiblik mavjud.

Mamlakatimiz taraqqiyoti, uning bozor munosabatlariga o`tishga, halqimiz moddiy farovonligini ta`minlashga qaratilgan juda ko`plab qonunlar, me`yoriy hujjatlar, Prezident farmonlari qabul qilingan. Ammo ularning real amalga oshuvi ehtiyojdan orqada qolmoqda.

3. Boshqaruvning sobiq sovet davridagi ma`muriy buyruqbozlik shaklining tugatilishi bilan bozor munosabatlariga mos ravishda boshqarishga asoslanadigan boshqaruv shaklining yuzaga kelishi o`rtasida nomutonosiblik mavjud. Mamlakatimiz bozor munosabatlariga tez o`tib bormoqda. Ammo, boshqaruvning ma`muriy buyruqbozlik shakli xamon ustivorlik qilmoqda. Hamon yuqoridan buyruq berish va pastda esa uni kutish, u bilan faoliyat ko`rsatish davom etmoqda.

4. Jamiyatning demokratiyalashuvi uchun yaratilgan imkoniyatlar, xuquqiy bazalar bilan ularni real hayotga aylanishi o`rtasida nomutanosiblik mavjud. Mamlakatimizda jamiyatni demakratiyalashuvi uchun xuquqiy baza va

imkoniyatlar yaratilgan. Ammo, ularning real amalga oshuvchi mavjud ehtiyoj darajasidan orqada qolmoqda.

5. Yaratuvchilik jarayonida zarur bo`layotgan fidoyilik bilan unga beparvolik ruhiyati o`rtasidagi salbiy holat mavjudligi. Bugun har bir fuqaroning o`z moddiy farovonligini o`zi ta'minlashi mumkinligi, bu yo`lda o`zi fidoyilik ko`rsatishi zarurligini to`la tushunib etmayotganligini, yana davlat menga turmush farovonligini yaxshilaydi-degan qarashlarning mavjudligi va yuzaga kelgan bozor munosabatlari vaziyatini tushunib etmaslik unga beparvo bo`lish ruhiyati mavjudligi.

6. Milliy-ma`naviy tiklanish jarayoni bilan millatimiz ruxiyatiga mos kelmaydigan individalizm, boylik va mansabni xar narsadan ustun qo`yish, manmanlik, o`zgalarni nazar-pisand qilmaslik kabi illatlarning shakllanayotganlik jarayoni o`rtasida nomunosiblik kuchayib bormoqda.

7. Millatimiz tarixida ulkan ma`naviy qadriyatlar darajasiga ko`tarilgan ota-onaga mehr-muruvvat, qarindosh urug`chilikka sadoqat, mexr-shavqatlik bo`lish, munosabatlarda samimiylik bo`lish kabi qadriyatlar bilan bugun tobora kuchayayotgan poraxo`rlik, o`z mansabini suistemol qilish, o`zgalar xaqqiga xiyonat qilish kabi jirkanch harakatlarning kuchayishi ota-ona, qarindosh urug`chilik kabi munosabatlaridagi salbiy holatlar o`rtasida nomunosiblik vujudga kelmoqda.

8. Sobiq sho`rolar davrida dunyoqarash qoldiklari bilan shakllanayotgan yangi mustaqillik, milliy manfaat, milliy taraqqiyot kabi dunyoqarash o`rtasida ham nomutonosiblik mavjud. Hamon, eski tuzumni qo`msayotgan uni tashviqot qilayotgan, uning manfaatlarini anglayotgan insonlar mavjud. Bu ham nomutonosiblikning bir ko`rinishi hisoblandi.

Ana shu nomutonosibliklarni tugatishning kuyidagi omillari ham mavjuddir.

Birinchidan. Mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotini erkinlashtirish;

Ikkinchidan. Qonunning har qanday manfaatlardan ustivorligini ta'minlash;

Uchinchidan. Bozor munosabatlari talablariga javob beradigan islohotlar, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, mulkchilikning turli shakllari kabilarni rivojlanishini jadallashtirish;

Turtinchidan. Davlat xokimiyati faoliyati ustidan xalq nazoratini ta'minlash, uning boshqaruvini o`z qo`liga olishiga erishish, demokratik jarayonlar rivojlanishi uchun keng imkoniyatni vujudga keltirish;

Beshinchidan. Milliy tiklanish jarayonlarini chuqurlashtirish, milliy-ma`naviy salohiyatini o`z zaminlarimiz asosida rivojlantirish, yoshlar ongi va qalbida Vatanparvarlik, millatparvarlik va umuminsoniylik qadriyatlarini mustaxkamlash kabilardir.

Ana shu vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish millatimiz va mamlakatimizni yuksak taraqqiyotga olib boruvchi o`zbek «modeli»ning reallik to`la aylanishi imkonini beradi.

Prezidentimiz ta`kidlaganidek, «Biz yangi hayot» yangi jamiyat barpo etish yo`lidagi islohotlarimizni, o`zgartirishlarni kimlargadir yaxshi ko`rinish, kimlardandir sadaqa undirish uchun emas, balki bu ishlarni avvalo xalqimiz

manfaatlariga to`la javob bergani uchun amalga oshirmoqdamiz va kelajakda ham bunday qarash va intilishlardan qaytmaymiz.

Prezidentimiz bu kontseptual g`oyasi, milliy istiqlolimizni mustahkamlash, mamlakatimizni taraqqiy qildirishning, uning jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga ko`tarilishining nazariy va amaliy asosi bo`lib qoladi va halqimizning yaratuvchilikdagi faolligining oshishiga o`zining ta`sirini o`tkazib boraveradi.

Mustaqil O`zbekiston huquqiy demokratik davlat qurilishining o`ziga xos yo`lini, ya`ni jahonda e`tirof etilgan «o`zbek modeli»ni tanlagan. O`tgan yillar ichida har jihatdan qo`lga kiritgan yutuqlarimiz bilan fahrlansak arziydi. Ana shu muvaffaqiyatlarda mustaqil taraqqiyotimizning tub manfaat va maqsadlarini ifodalovchi g`oyalar tizimi - milliy mafkura ham muhim rol’ o`ynamoqda.

Zero, har bir davlat, jamiyat o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan vazifani amalga oshirish, barcha ijtimoiy sinflar, tabaqalar, millatlar, turli diniy e`tiqod vakillarini birlashtirish uchun ma`lum bir mafkurani tanlaydi. Insonparvar, demokratik jamiyat va huquqiy davlat o`z faoliyatida jamiyatdagi barcha ijtimoiy kuchlarning umumiy manfaatlarini ko`zda tutib ish ko`radi, oqibatda muxolif ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar o`zaro kurashmaydilar. Negaki, ular jamiyat umummafkurasi asosida ish yuritadilar va demokratiya qoidalariga rioya qilib, har bir masalani o`zaro bahs-munozara, fikrlashuv asosida hal etadilar. Chunki, har qanday davlat va jamiyatda demokratik tartib-qoidalar buzilsa, huquqiy normalar paymol etilsa, u albatta inqirozga yuz tutishini tarix isbotlagan. Jumladan, fashistlar Germaniyasi, Italiya, Sobiq SSSR, Afg`oniston, Iroq bunga yorqin misoldir.

Demokratik huquqiy davlat qurilishida mafkuraning ahamiyati kattadir. Prezidentimiz I.Karimovning asarlarida asoslab berilgan nuqtai nazar va g`oyalar milliy mafkuraning asosi sifatida e`tirof etilmoqda. Ya`ni, bu mafkura xalqimizning tarixini, axloqini, turmush tarzini, qadriyatlarini, falsafasini, badiiy didini, diniy ta`limotlarini o`ziga chuqur singdirgan.

Huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish milliy mafkuradagi asosiy maqsad bo`lib, unga Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag`rikenglik g`oyalarini insonlar ongiga singdirish bilan erishish mumkin. Buning uchun, avvalo, har bir fuqaroning jamiyatdagi o`z o`rni, huquq va burchlarini chuqur anglashi g`oyat muhim ahamiyatga ega.

Umuman insoniyat tarixiy taraqqiyoti tajribasi, xususan mustaqil O`zbekiston rivojlanishining «o`zbek modeli» teran ilmiy-falsafiy tafakkur natijasidir. Darhaqiqat, ijtimoiy-siyosiy fikrlar tarixida qiyosi bo`lmagan «besh tamoyil»ning ishlab chiqilishi va izchil amalga oshirilishi umuminsoniyat tsivilizatsiyasi taraqqiyotini muhim nazariy xulosalar va amaliy tajribalar bilan boyitishga olib keldi.

Biz bu tamoyillarning yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasi bilan bog`liqlik jihatlarini ko`rib chiqadigan bo`lsak, ularning mavjudligi va rivojlanishidagi ob`ektiv-sub`ektiv omillar hamda shart-sharoitlari birligi yaqqol namoyon bo`ladi.

***Birinchidan,*** iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi tamoyili, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq faravonligini ta`minlaydigan ijtimoiy-siyosiy omillar tarkibidagi iqtisodiy determinizm g`oyalaridan tubdan farq qiladi. Zero, mustaqillikka erishgandan keyin mamlakat oldida turgan vazifalar tizimi va ularni hal qilish ketma-ketligi nuqtai nazaridan iqtisodiyotni rivojlantirish, birinchi navbatda kun tartibiga qo`yildi. Chunki, iqtisodiyotni mustabid tuzumdan meros qolgan totalitarizm, volyuntarizm, sub`ektivizmga asoslangan hukmron kommunistik g`oya va mafkuraning, siyosiy tizimning iskanjasidan xalos qilmasdan, Vatan ravnaqini, yurt tinchligini, xalq farovonligini ta`minlaydigan demokratik islohotlarni amalga oshirish mumkin emas edi.

Islohotlarning birinchi bosqichida O`zbekistonning milliy tarixiy taraqqiyot xususiyatlarini, demografik-etnografik, madaniy sturukturasini, ishlab chiqarishning mustabid tuzum sharoitida shakllangan tarkibiy tuzilishini hap tomonlama e`tiborga olib, iqtisodiyotni erkinlashtirishdan iborat islohotlar — ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni jamiyatning ob`ektiv qonuniyatlari asosida tashkil qilishi, unda inson omilining rolini oshirish - barqaror rivojlanishning zaruriy sharti edi. Bunda «eng muhim ustuvor masala - bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo`llab-quvvatlash, shu asosda aholi bandligini va farovonligini oshirish muammolarini hal etishdan ibortdir». (Каримов И. А. Демократик ҳуқуқий давлат, эркин иқтисодиёт талабларини тўлиқ жорий этиш, фуқаролик жамияти асосларини қуриш-фаровон ҳаётимиз гаровидир. Жаиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. –Т.: Ўзбекистон, 2007. – Б.199.)

Bu sohada qo`lga kiritilgan muvaffaqiyatlar keyingi yillarning rejalarini tuzish, ularni amalga oshirishning real imkoniyatlarini qidirib topishni taqozo qilmoqda. 2008 yilda «kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushini 48 foizga, 2010 yilga borib esa, 50-52 foizga, xizmat ko`rsatish sohasining salmog`ini tegishli ravishda 45 va 49 foizga etkazish uchun bugun bizda barcha asoslarimiz bor. 2010 yilda yangi tashkil etilayotgan ish o`rinlarini kasanachilik asosida 250 mingtaga etkazish» (Каримов И.А. Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш – барча ислоҳот ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг 2007 йилда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2008 йилда иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузасидан: «Халқ сўзи», 2008 йил 9 феврал.) ko`zda tutilmoqda.

Umumlashtirib aytganimizda, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tadrijiy-evolyutsion yo`l bilan o`tish jarayonida, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g`oyasini amalga oshirish quyidagi xulosalarga asos bo`ladi: 1) O`zbekistonda jamiyat taraqqiyotining mahalliy shart-sharoitlarini, millat mentaliteti xususiyatlarni e`tiborga olib, bosqichma-bosqich, tadrijiy amalga oshirilishi millat va umuminsoniyat manfaatlariga mos keladi; 2) ijtimoiy-

iqtisodiy, siyosiy-ma`naviy sohalar islohotidagi tadrijiylik sustkashlik, inertlik emas, balki yangi jamiyat qurilishining strategik maqsadlaridan kelib chiqqan taktikadir; 3) O`zbekiston tanlagan taraqqiyot yo`li istiqboliga xalqimizning chuqur ishonchi, e`tiqodi va uni amalga oshirishdagi fidoiyligi Vatan hamda millat ravnaqining asosiy kafolatidir; 4) O`zbekistonning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich, tadrijiy yo`l bilan o`tishdagi yutuqlari, tajribalari jahon jamoatchiligining diqqat-e`tiboriga sazavor bo`lmoqda.

G`oyaviy ta`sirlarga qarshi profilaktik ishlarning mazmunini, shakl va uslublarini, muhitning yoshlarga ta`sirini tadqiq qilish zaruriyati quyidagilarni talab qilmoqda:

- g`oyaviy ta`sirlarga qarshi dasturlarni yaratish va amalga oshirishda umumiy tamoyillarga e`tiborga qaratishni;
- g`oyaviy tarbiya jarayonida tizimli va differentsial yondoshuvni;
- barcha jarayonlarni uzviy bog`lovchi monitoring tizimini yaratishni;
-yangi texnologiyalarni jadal qo`llash va tezkorlikda aprobatsiyadan o`tkazishni talab qilmokda.

## Nazorat savollari:

1. Milliy g`oyani inson qalbi va ongiga singdirish yo`nalishlari.
2. O`zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish imkoniyatlari va muammolari.
3. O`zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqeini oshirish omillari.
4. Strategik vazifalarni amalga oshirishni g`oyaviy-mafkuraviy ta`minlash zaruriyati nimada?

## ADABIYOTLAR:


1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: 2008.
2. Karimov I. A. Jaiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma`naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. –T.: O`zbekiston, 2007. –B.199.
3. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta`minlash – barcha islohot va o`zgarishlarimizning bosh maqsadidir. O`zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasidan: «Xalq so`zi», 2008 yil 9 fevral.
4. Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. –T.:“Ma`naviyat”, 2008. –B. 108.
5. Berdyaev N. Duxovniy krizis intelligentsii. SPb., 1909. –S.92.
6. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. T.7. –T.: 1999 – B.373, 374, 379, 381,
7. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuacha va tamoyillar. — T.: O`zbekiston, 2001. –B. 51-52.

8. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g`oya targ`iboti va ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish to`g`risida”gi Qarori.-«Xalq so`zi». 2006 yil, 26 avgust.
9. Karimov I. A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.T. 8. –T. : O`zbekiston, 2000.
10.Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug`at) -Toshkent, 2002.

## 9-mavzu: Milliy g‘oyani rivojlantirishning institutsional tizimi.

**Reja:**

**1. Milliy g‘oyani rivojlantirishning istiqbollari.**
**2. Ta’lim-tarbiya tizimida milliy g‘oyani rivojlantirish imkoniyatlari.**
**3. Demokratik huquqiy davlat qurilishida mafkuraning ahamiyati. Taraqqiyotning “O`zbek modeli”.**

Ma`lumki, mamlakatimiz fuqarolarining milliy taraqqiyot yo`lidagi bosh g`oyasi-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Shuningdek, bu g`oya halqimizning azaliy orzu-umidlari-yu, intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining mazmun-mohiyatini ham belgilab beradi. Ana shu ezgu g`oyalarni fuqarolar ongi, shuuriga singdirish, ularning e`tiqodiga aylantirishdan ham muhimroq ish yo`q.

Milliy istiqlol g`oyasi va milliy mafkura kontseptsiyasida ham bu masalaga e`tibor qaratilgan. Chunonchi, ushbu qadriyatlarni xalqimiz qalbi va ongiga singdirishning 12 vositasi ko`rsatiladi. Bular: ta`lim va tarbiya; fan va ilmiy muassasalar; madaniyat va madaniy-ma`rifiy muassasalar; adabiyot va san`at; din; jismoniy tarbiya va sport; urf-odat; marosim va bayramlar; oila; mahalla; mehnat jamoalari; siyosiy partiyalar; nodavlat tashkilotlari; ommaviy axborot vositalari;

Mazkur vositalar orqali milliy istiqlol g`oyasi va milliy mafkurani xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongiga singdirishda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta`lim tizimida, adabiyot va san`atga, ommaviy axborot vositalarida bu borada qator ishlar qilinmoqda. Maxsus darslar tashkil etilmoqda, milliy istiqlol g`oyasi, milliy mafkurani targ`ib etish bo`yicha alohida ruknlar tashkil etilmoqda.

Ammo, ularning samaradorlik va foydalik darajasi qay ahvolda? Nima uchun o`tkazilayotgan tadbirlar ko`zlangan maqsadga erishishga imkon bermayati? Ayrim fuqarolarda jamiyatda sodir bo`layotgan o`zgarishlarga nisbatan ijtimoiy qiziqishning sustligi sabablari nimada? Albatta, bu savollarga lo`nda, mantiqan to`g`ri javobni aytish juda qiyin. qolaversa, fikrlar xilma-xilligi mavjud bo`lgan hozirgi davrda, fuqaroda tafakkur erkinligi uchun shart-sharoit yaratilgan bir paytda u yoki bu masala bo`yicha barchaning fikri bir xil bo`lishi mumkin emas.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, hozirgi paytda milliy istiqlol g`oyasi va milliy mafkurani fuqarolar, ayniqsa yoshlar ijtimoiy ongiga singdirishga halaqit qilayotgan omillar to`g`risida ayrim sube`tiv fikrlarni bayon etishni maqsadga muvofiqdir. Buning ayrim sabablari bor va asosiylari quyidagilardan iborat.

*Birinchidan,* fuqarolarda, xususan ayrim yoshlarimizda ijtimoiy faollik etishmayapti. Xo`sh, ijtimoiy faollikning o`zi nima? Ijtimoiy faollik-jamiyat fuqarolarining mamlakat va millat oldida turgan strategik maqsadni anglab etishi, uni o`zining individual muddaolari bilan uyg`unlashtirish orqali erishishi lozim bo`lgan etuklik darajasi hamda bu yo`ldagi amaliy harakatni faollashtirish yo`lidagi intilishdir.

Umuman, ijtimoiy taraqqiyotda shaxslarning o`z manfaatlarini qondirish yo`lidagi xatti-harakatlarning ahamiyati bor. Ammo, bunday harakat faqatgina umum davlat va umum milliy manfaatlar bilangina mushtarak bo`lgandagina ko`zlangan maqsadga etishi mumkin. Bu borada hozirgi O`zbekiston jamiyatidagi holatni qoniqarli hisoblangan holda ancha muammolar mavjudligini ham esdan chiqarmaslik kerak.

Ayniqsa, ijtimoiy faollikning etishmaslik holati qator muammolari keltirib chiqarmoqda. Bir narsa ma`lum: Jamiyatning barcha fuqarolari bir darajada ijtimoiy faol bo`lishi mumkin emas. qolaversa, davlatlar o`rtasida ham bu bir xil emas. (masalan, hozir AQSh, Frantsiya, Italiyada aholining 10 foizi ijtimoiy faol hisoblansa, Xitoy va Rossiyada bu raqam 4 foizga tengdir.

O`zbekiston fuqarolarining necha foizi ijtiomiy faol ekanligi xususida qat`iy tarzda bir narsa aytish qiyin. Ammo, aholining ijtimoiy faol qismi asosan yoshlardan iborat ekanligi ma`lum. Agar, biz O`zbekiston aholisining 70 foizga yaqinini 35 yoshgacha bo`lganlar tashkil eitishini e`tiborga olsak, unda mamlakatimizda jiddiy rivojlanish uchun shart-0sharoitlar etarli ekanligini ko`rishimiz mumkin. Ammo, afsuski, yoshlarimizning barchasini aholining ijtimoiy faol qismiga taaluqli, deyishga jiddiy asoslarimiz yo`q.

*Ikkinchidan,* milliy istiqlol g`oyasi va milliy mafkurani aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirishga halaqit qilayotgan sabablardan yana biri-barcha teng ravishda bu jarayonga tortilmayapti. Jumladan, agar hozir mamlakatimizda 500 mingdan ortiq o`g`il-qizlar maktab, kasb-hunar kollejlari, litseylarni bitirib chiqayotgan va ularning taxminan 10 foizigina oliy o`quv yurtlarida ta`lim olayotgan bo`lsalar, unda yoshlarning katta qismi milliy istiqlol g`oyasini o`z ongiga tizimli ravishda va maqsadli tarzda singdirish huquqidan mahrum bo`lib qolmoqda. Bu juda muhim muammo. Ta`lim tizimiga jalb etilganlar, odatda, yoshlarning eng ijtimoiy faol qismi hisoblanadi.

Yoshlarning qolgan katta qismiga milliy istiqlol g`oyasi va milliy mafkuraning mazmun-mohiyatini tushuntirish, ularda ushub qadriyatlarga nisbatan kuchli ishonch-e`tiqodni shakllantirishdan ham muhim muammo yo`qdir.

*Uchinchidan,* o`zbek xalqiga xos bo`lgan ayrim kamchiliklar, milliy xarakterimiz, mentalitetimizga mos muammolar ham milliy istiqlol g`oyasini keng jamoatchilik o`rtasida ishonch-e`tiqod darajasiga ko`tarishga imkon bermayapti. Romen Rollenning ta`kidlashicha «Haqiqat hamma halqlar uchun yagonadir. Ammo har bir halqning o`z yolg`onlari bor va ularni milliy mentalitet, deb ataydilar», deganida ma`lum haqiqat aholida, ayniqsa yoshlarda tashabbusni va faollikni oshirishga, o`zining individual qobiliyatlarini namoyon etishga qaratilgan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz borki, ularning mazmun-mohiyatini qaytadan taxlil etish payti keldi. Axir, qadriyatlar va urf-odatlar o`zgarmas emasku! Ular

yangilanishi, yangi sifatlar bilan boyishi, boshqa davlat va xalqlarning ilg`or tajribasini ijodiy ravishda o`zlashtirilishi mumkinligini ham esdan chiqarmaslik muhimdir.

*To`rtinchidan,* milliy istiqlol g`oyasi va milliy mafkurani aholi ongiga mustahkamroq singdirishga sog`lom ehtiyojlarning etishmayotganligi ham ta`sir etmoqda. Sog`lom ehtiyojning yo`qligi esa fuqaroda erishilgan darajadan va mavjud holatdan qoniqish xissini paydo qiladi. Mavjud holatdan qoniqish esa shaxsda o`zini-o`zi rivojlantirish, o`zini-o`zi namoyon etishga rag`bat bermaydi.

Faqat sog`lom ehtiyojgina insonni fikrlashga, moddiy va ma`naviy holatida yangi sifat o`zgarishiga erishishga undaydi. Ayni paytda, sog`lom ehtiyoj insonda tafakkur islohotlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi. Shu nuqtai nazardan olganda milliy istiqlol g`oyasining real kuchga aylanishi uchun sog`lom ehtiyojlarni shakllantirishga harakat qilish lozim.

*Beshinchidan,* biz yuqorida milliy istiqlol g`oyasi va mafkurani aholi ongiga singdirishga safarbar etilgag 12 vositasini sanab o`tdik. qayd etish lozimki, ularning har biri o`ziga xos usul va yo`l bilan tanlangan vazifani bajarishga haqlidir. Ammo, adolat yuzasidan aytish kerakki, ushub vositalar o`rtasida o`zaro muvofiqlikda ishlash mexanizmi yo`q. Masalan, milliy istiqlol g`oyasini targ`ib etish va uni aholi e`tiqodiga aylantirishda siyosiy partiyalarning o`rni va roli kattadir. Ammo, mavjud besh partiyaning birortasida bu borada tizimli, maqsadli ish olib borilmayapti. Mehnat jamoalarida esa bu masala kun tartibiga jiddiy muammo sifatida qo`yilmagan ham.

Sanoat korxonalari, jamoa xo`jaliklari, ayniqsa nodavlat tashkilotlarida bu narsaga qo`l uchida qaralmoqda.

Albatta, yuqorida bildirilgan fikrlar milliy istiqlol g`oyasini aholi ongiga singdirish yo`lidagi ayrim sub`ektiv mulohazalar xolos.

Erishilgan ayrim yutuqlar, ma`lum siljishlarga qaramasdan bu borada bajarilishi lozim bo`lgan ishlar xajmi va ko`lami kattadir. Xo`sh, milliy istiqlol g`oyasini, milliy mafkurani fuqarolar, ayniqsa yoshlar ongiga kengroq va mustahkamroq singdirish uchun nima qilish qanday ishlarni bajarish lozim?

Hech shubha yo`qki, bu savolga aniq-lo`nda qilib javob beradigan, milliy istiqlol g`oyasini yoshlar ongiga singdirishni to`liq ta`minlaydigan mexanizm, afsuski hozircha yo`q.

Milliy istiqlol g`oyasini fuqarolar ongiga chuqur va mustahkam singdirish va uni e`tiqod darajasiga ko`tarish uchun milliy xarakterimizdagi moslashuvchanlik, ko`r-ko`rona ergashuvchanlik kayfiyatini bartaraf etish muhim deb o`ylaymiz. Bu o`ta muhim masala. Mazkur holat tafakkurdagi islohotlar va uzgarishlar bilan bog`liqdir. Tafakkur qulligi avvalo ma`naviy boqimandalikning natijasi hisoblanadi.

Boqimandalik aslida yaratuvchanlik, tashabbuskorlik sifatlarini rad etadi. *Shu o`rinda I. Karimovning quyidagi fikrlari juda o`rinlidir. «Ota-bobolarimiz shuhratining soyasiga mahliyo bo`lib yuradigan davrlar endi o`tdi. Bugun jahon bizdan o`z so`zimizni talab qilmoqda, boshqa xalqlar, boshqa millatlar bizga yotsirab, bepisand qaramasligi, balki bizni e`tirof etishi, bizni ehtirom etishi*

*kerak» (I.Karimov jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq millatni-millat qilishga xizmat etsin)- Toshkent, 1998 yil 25-bet*

Tafakkurdagi o`zgarishning yo`qligi, ma`naviy boqimandalik, hech shubhasiz moslashuvchanlik va murosasizlikka olib keladi. Deylik, bir sinfda 25 ta bola o`qiydi, shundan 20 tasi o`rtacha, 5 tasi esa a`lo o`qiydi. O`qituvchi 5 ta yaxshi o`qiydiganni hurmat qiladi, qolganlariga doimo tanbeh beradi. O`rtacha o`qiydigan 20 ta bola esa yaxshi o`qiydigan 5 taga nisbatan munosabati ijobiy emas. Xo`sh, sababi nimada? Nazarimizda uning sababi-20 tagacha o`qiydigan bolaning bir xil tarzda tafakkur qilish-yu, mavjud sharoitga moslashuvida. Agar biz shu tafakkurni o`zgartirmas ekanmiz, ishda unum bo`lmaydi.

Milliy istiqlol g`oyasi eng avvalo-amaliy harakat. Sharq tafakkuriyotidagi qoida-yomon odamni yaxshi odamga aylantirish, yaxshi odamni esa go`zal insonga aylantirish vazifasi bajarilmas ekan, unda bizning sa`iy-harakatlarimiz samarasiz bo`lib qolaveradi.

O`qilgan kitob, olingan bilim, eshitilgan pand-nasihat va o`git, ko`rilgan yaxshi va ijobiy amallar insonning individual amaliyotga aylanmas ekan, u besamar holatdan boshqa narsa emas deb, tushunish kerak. Darhaqiqat shunday. erkin fikr, ruhiy ozodlik pirovard natijada amaliyot va harakatga aylanishi kerak.

Ammo, afsuski, ayrim hollarda buning aksini ko`ramiz. Masalan, yolg`on gapning gunohligini, o`g`irlikni jinoyat ekanligini, ota-onani hurmat qilish, Vatanni sevish muqaddas burch ekanligini, mehnat intizomiga amal qilish shartligini hamma-bog`cha bolasidan to katta lavozim egalarigacha biladi. Biroq uning natijasi? Albatta, milliy istiqlol g`oyasini kishilar ongiga sngdirish o`ta qiyin vazifa. Agar o`rganilgan narsa e`tiqod darajasiga ko`tarilmas ekan uning ta`sir kuchi bo`lmaydi. e*`tiqod-arabchada ishonmoq, amin bo`lmoqni anglatadi. Ya`ni, inson faoliyati uchun ma`naviy asos, yo`l-yo`riq va mo`ljal bo`lib xizmat qiluvchi, aql, iroda vositasida anglangan bilimlar, g`oya va tasavvur ifodasi e`tiqod hisoblanadi. e`tiqod his-tuyg`u. Ya`ni emotsional holat tufayli emas, aksincha, u aql-tafakkur tufayligina sodir bo`ladi.*

E`tiqod insonni tarbiyalaydi, unda qat`iyatni yuzaga keltiradi, sobitqadamlikni shakllantiradi, mavjud holatga munosabatdagi jur`atsizlik, e`tiborsizlik, befarqlik, real holatni o`rganishdagi taxlil etish aql bilan ishlash ko`nikmasining yo`qligi esa e`tiqodsizlikni yuzaga keltiradi.

Eng yomoni, e`tiqodsizlik ikki yuzlamachilikni paydo qiladi. Mustaqillik, millat, Vatan to`g`risida rasmiy idora-yu yig`ilishlarda bir gapirib, norasmiy holatda uning teskarisini ifoda etish-ikki yuzlamachilik va e`tiqodsizlikning o`zidir.

**“Muxtasar qilib aytganda, yoshlarimizning ma`naviy olamida bo`shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog`lom hayot tarzi, milliy va umummilliy kddriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg`usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur”. Islom Karimov.** (“*Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asaridan*).

**Tayanch tushunchalar**: milliy taraqqiyot strategiyasi, strategik imkoniyat, strategik vazifalar, taktika, istiqbol strategiyasi, jahon hamjamiyati, integratsiya,

globallashuv, g`oyaviy-mafkuraviy kurash, dunyoning mafkuraviy manzarasi, g`oyaviy tahdid, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy profilaktika, g`oyaviy ta`sir, g`oyaviy-mafkuraviy manipulyatsiya, mafkuraviy e`tiqod.

**Nazorat savollari:**

5. Strategik vazifalarni belgilovchi mezonlar.
6. "O`zbek modeli"ning strategik ahamiyati nimada?
7. O`zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish imkoniyatlari va muammolari.
8. O`zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqeini oshirish omillari.
9. Strategik vazifalarni amalga oshirishni g`oyaviy-mafkuraviy ta`minlash zaruriyati nimada?
10. Strategik vazifalarni amalga oshirishning taktik usullari va vositalarini ko`rsating.

**ADABIYOTLAR:**

11. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: 2008.
12. Karimov I. A. Jaiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma`naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. –T.: O`zbekiston, 2007. –B.199.
13. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta`minlash – barcha islohot va o`zgarishlarimizning bosh maqsadidir. O`zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasidan: «Xalq so`zi», 2008 yil 9 fevral.
14. Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. –T.:"Ma`naviyat", 2008. –B. 108.
15. Berdyaev N. Duxovniy krizis intelligentsii. SPb., 1909. –S.92.
16. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. T.7. –T.: 1999 – B.373, 374, 379, 381,
17. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuacha va tamoyillar. — T.: O`zbekiston, 2001. –B. 51-52.
18. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g`oya targ`iboti va ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish to`g`risida"gi Qarori.-«Xalq so`zi». 2006 yil, 26 avgust.
19. Karimov I. A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.T. 8. –T. : O`zbekiston, 2000.
20. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug`at) -Toshkent, 2002.

## “MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANIDAN

# KURS ISHI MAVZULARI

### “MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANIDAN
## KURS ISHI MAVZULARI

1. Milliy g‘oya tushunchasi, uning tuzilishi va namoyon bo‘lish xususiyatlari.
2. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish” -milliy mafkuraning bosh g‘oyasi
3. Prezident Islom Karimov asarlari-milliy g‘oya va mafkuraning ilmiy-uslubiy asosi.
4. Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanish jarayoniga mafkuraviy ta’sir. Muayyan g‘oyalarning dominantlashuvi va ularning oqibatlari.
5. Prezident Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat -engilmas kuch” kitobida g‘oyalar tarixi va falsafasi, milliy g‘oyaning mazmun-mohiyati, shakllanishi va namoyon bo‘lishi haqida.
6. G‘oya, mafkura va milliy g‘oya tushunchalarining ijtimoiy-siyosiy mohiyati, ularning umumiyligi va farqlari
7. G‘arb mamlakatlarida ilk g‘oyaviy qarashlar va ularning takomil bosqichlari.
8. Sharq va Markaziy Osiyoda g‘oyalarning namoyon bo‘lishi, ularning gumanistik mohiyati.
9. XIX asr oxiri va XX asrning 90-yillarida shakllangan g‘oyalar tizimi.
10. Milliy g‘oya va mafkurani rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, huquqiy omillari
11. Tarixiy xotira g‘oya va mafkuraning rivojlanishidagi ijtimoiy ma’naviy omil. Mafkuraviy jarayonlarning ijtimoiy ong shakllaridagi in’ikosi.
12. Milliy va umuminsoniy g‘oyalarning individualligi va umumiyligi, integratsiyasi va differensiatsiyasi
13. Mafkuraviy tajovuz va unga qarshi milliy xavfsizlikni ta’minlash zarurati.
14. Mafkuraviy tahdidning oshkora va yopiq xarakteri. Axborot xavfsizligi va biologik xavfsizlikning mutanosibligi.
15. Mafkuraviy faoliyatni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari.
16. Prezident Islom Karimov “Mafkuraviy maydon” tushunchasining shakllanish va namoyon bo‘lish xususiyatlari
17. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari
18. O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi va siyosiy mavqei mustahkamlanishida millatlararo va dinlararo tolerantlikni

mustahkamlash tajribalarining demokratik xarakteri va xalqaro ahamiyati

19. Taraqqiyotning milliy modellari va ularning mazmuni. “O‘zbek modeli”-evolutsion taraqqiyot g‘oyasining gumanistik xarakteri.
20. “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili, uning barcha sohalardagi ma’naviy yangilanish va tafakkur o‘zgarishidagi o‘rni va ahamiyati.

# “MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANIDAN

# ANNOTATSIYA

## “MILLIY G`OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANI ANNOTATSIYA

“Milliy g`oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani mustaqillik yillarida shakllandi. U g`oyaviy jamiyat rivojlanishining g`oyaviy asoslarini o`zida mujassam etgan yaxlit ta`limotdir. Bu ta`limot, bu g`oyani keng xalq ommasi, avvalo, o`sib kelayotgan yosh avlod qalbi va ongiga eng ta`sirchan yo`llar va samarali usullar bilan singdirish muhim vazifa hisoblanadi. Chunki, XXI asr yoshlari turli-tuman mafkuralar tojavuzi kuchayib borayotgan sharoitda yashamoqdalar. Insoniyat endilikda yadroviy qurollanish poygasidan o`tdi. Dunyodagi turli kuchlarning o`zaro jangu jadallari urush maydonlarini bo`sh qoldirib, internet tarmoqlariga, turli xil san`at asarlariga, axborot maydonlariga ko`chib o`tayotgani buning yaqqol dalilidir.

Shu ma`noda, yurtboshimiz Islom Karimovning «Mafkura» poligonlari yadro poligonlaridan kuchlidir» degan ogohlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Chunki yadro poligonlarida sinovdan o`tgan qurollarni uzluksiz ravishda har kuni, har soat va har daqiqada insoniyat boshiga yog`dirib turish imkoni yo`q. Lekin mafkura poligonlarida tayyorlanayotgan, uncha-muncha ko`zga tashlanavermaydigan, ta`siri birdaniga sezilmaydigan «g`oyaviy bomba» lar dunyoni o`rgimchak to`ridek o`rab olgan. Ular insonni na uyda, na ko`chada, na ishda, na uyquda tinch qo`yadi. Misli ko`rilmagan globallashuv jarayoni natijasida yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik, erkaklik bilan ayollik o`rtasidagi chegaralarning, bir so`z bilan aytganda, hayotga, tirikka xos xilma-xillik, rango-ranglikning tobora kengayib borayotgani, turmushning taranglashib ketayotgani-barcha-barchasi insoniyatning eng kuchli, eng qudratli qurol-turli shaklu shamoyil kasb etayotgan g`oya va mafkuralardan ta`sirlanayotgani oqibati ekani tobora oydinlashib bormoqda. Ana shu sababli ham Milliy g`oya fanining ta`lim tizimiga joriy etilishi mamlakatimiz ma`naviy hayotida muhim voqea bo`ldi. U Respublika Prezidenti Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan g`oya-yurtimizda ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan yaxlit va izchil ta`limotni yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish vazifasini bajaradi.

Bu fan milliy istiqlol g`oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari, tarixiy negizlari, ilmiy, falsafiy, dunyoviy ildizlari, o`ziga xos namoyon bo`lish qonunlari va xususiyatlari to`g`risida bilim beradi. Bu sohadagi amaliyotni o`rganish mazkur fanni o`qitishning samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi asosiy talablarga amal qilish shart ekanligini ko`rsatadi:

Yoshlar ongida «G`oya», «Mafkura», «Milliy g`oya», «Milliy istiqlol g`oyasi», «Milliy rivojlanish g`oyasi», «Milliy istiqlol mafkurasi;

«Milliy g`oyaning bosh g`oyasi», «Milliy g`oyaning asosiy g`oyalari», «Vatan ravnaqi», «Yurt tinchligi», «Xalq farovonligi», «Millatlararo totuvlik», «Diniy bag`rikenglik», «Ijtimoiy hamkorlik», «Komil inson» haqida to`liq tasavvurni shakllantirish;

- Milliy g`oyaning insonparvarlik mohiyati asosida mustaqillikning muqaddas qadriyatligi, uni asrab avaylash har bir kishining muqaddas burchi ekanini o`quvchi va talabalar qalbi va ongiga singdirish;
- Yoshlar orasida millatchilikning har qanday ko`rinishlari paydo bo`lishga yo`l qo`ymaslik, ta`lim-tarbiya jarayonida umum insoniylikning ustivorligi tamoyillariga og`ishmay amal qilishga alohida e`tibor berish

Mustaqillik yillarida milliy istiqlol g`oyasi mavzuini o`rganish uchun foydalanish mumkin bo`lgan kitoblar, risola va maqolalar nashr etildi. «Milliy g`oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» nomli maxsus darslik, o`quv qo`llanma, qisqacha izohli tajribaviy lug`at chop etildi.

Shuningdek, milliy g`oya fani yuzasidan faylasuf, tarixchi, xuquqshunos, siyosatshunoslar jumladan: I. ergashev, N. Komilov, A. Begmatov, N. Umarova, A. Xolbekov, M. Jakbarov, S. Mamashokirov, S. Otamurodov, M. Bekmurodov, M. Ortiqov, I. Xo`jamurodov, X. Mavrulov, U. Obilov, T. Norboev, Q. Nazarov, M. Quronov, D. Norqulov, B. To`raev, Z, Xusniddinov, K. Yunusov kabi olimlar milliy istiqlol g`oyasi faniga doir qo`llanma, risolalar, ko`plab ilmiy maqolalar yozganlar. Muallif ushbu o`quv-uslubiy qo`llanmani yozishda yuqoridagi olim va mutaxassislarning risolalaridan keng foydalangan.

Ushbu o`quv-uslubiy qo`llanma O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida «Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanini o`qitish bo`yicha tashkil etilgan (2003 yil 22-26 dekabr) maxsus kursda ishtirok etgan mutaxassislar tomonidan ma`qullangan hamda namunaviy dastur sifatida chop etilgan dastur asosida yozildi. Milliy g`oya fani bo`yicha dasturda bakalavr bosqichi uchun 56 soat, shundan amaliy mashg`ulotlarga 28 soat ajratilgan.

Ma`lumki, amaliy mashg`ulotlar olingan ilmiy va nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish va mustahkamlashning asosini tashkil etadi. SHuning uchun har bir talaba amaliy mashg`ulotlarga jiddiy va ma`suliyat bilan, puxta va har tomonlama tayyorgarlik ko`rgandagina ko`zlangan maqsadga erishadi.

O`quv-uslubiy qo`llanmani tayyorlashda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida tashkil etilgan maxsus kursda mutaxassislar tomonidan ma`qullangan Namunaviy o`quv dasturiga asoslanildi.

Qo`lingizdagi mazkur fandan tuzilgan o`quv-uslubiy qo`llanma 14 ta mavzudan iborat. Har bir mavzu bo`yicha amaliy mashg`ulotlarning asosiy masalalari milliy istiqlol g`oyasi fanining yangi Dasturiga tayangan holda yozildi. qo`llanmada mavzular bo`yicha tuzilgan reja asosida qisqacha ma`ruzalar matni, tayanch so`z va iboralar, munozara uchun savollar. Adabiyotlar ro`yxati, o`quv fani bo`yicha referatlar mavzulari berildi.

Shuningdek, mustaqillik yillarida chop etilgan milliy istiqlol g`oyasi va mafkurasiga oid adabiyotlar ro`yxati joy olgan. Unga mazkur mavzuga doir

asarlar, mamlakatimiz olim va mutaxassislari qalamiga mansub kitob, risola, dissertatsiya, maqolalar haqidagi bibliografik ma`lumotlar kiritilgan.

Muallif mazkur o`quv-uslubiy qo`llanma yuzasidan o`z fikr-mulohazalari va taklif-istaklarini bildirgan, hurmatli hamkasblarga, zukko talabalarga hamda ushbu fan bilan qiziquvchi keng kitobxonlarga oldindan o`z minnatdorchiligini bildiradi.

# MUALLIFLAR HAQIDA MA‘LUMOT

## MUALLIFLAR HAQIDA MA’LUMOT

**Haydarov Rahmatullo Ergashevich**

2012 yil 3 sentabrdan
**Andijon davlat universiteti assistenti**

| | |
|---|---|
| *Tug‘ilgan yili:*<br>***06.05.1986 yil*** | *Tug‘ilgan joyi:*<br>***Andijon viloyati, Andijon shahri*** |
| **Millati:**<br>o‘zbek | **Partiyaviyligi:**<br>yo‘q |
| *Ma’lumoti:*<br>***oliy*** | *Tamomlagan:*<br>***2010 y. Andijon davlat universiteti (bakalavr)***<br>2012 y. Andijon davlat universiteti (magistr) |
| **Ma’lumoti bo‘yicha mutaxassisligi:** | Milliy g‘oyaning falsafiy masalalari |
| **Ilmiy darajasi:**<br>yo‘q | **Ilmiy unvoni:**<br>yo‘q |
| **Chop etgan maqola va qo‘llanmalari:** | **Viloyat nashrlari va ilmiy jurnallarda bir qator maqolalari chop etilgan.**<br><br>**2013 yil“SHARQ MUTAFAKKIRLARI-NING ILM-FAN TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN XISSASI VA ULARNING MILLIY MA’NAVIYATIMIZ RIVOJIDAGI O‘RNI” nomli o‘quv qo‘llanmasi chop etilgan.** |

**Qaysi chet tillarini biladi:**
rus tili, ingliz tili (lug‘at bilan)
**Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganmi (qanaqa):**
yo‘q
**Xalq deputatlari, respublika, viloyat, shahar va tuman kengashi deputatimi yoki boshqa saylanadigan organlarning a’zosimi (to‘liq ko‘rsatilishi lozim):**
yo‘q

## MEHNAT FAOLIYATI

2006 – 2010 yy.- Andijon davlat universitetida talaba
2010 –2012 yy.- Andijon davlat universitetida magistr

2012 - h.v. – Andijon davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida assistent

## MUALLIFLAR HAQIDA MA’LUMOT

**Amirxo‘jayev Shukurjon Qurbonovich**

2012 yil 3 sentabrdan
**Andijon davlat universiteti assistenti**

*Tug‘ilgan yili:*
***05.11.1981 yil***

*Tug‘ilgan joyi:*
***Farg‘ona viloyati, Uchko‘prik tumani***

**Millati:**
o‘zbek

**Partiyaviyligi:**
yo‘q

*Ma’lumoti:*
***oliy***

*Tamomlagan:*
***2010 y. Andijon davlat universiteti (bakalavr)***
2012 y. Andijon davlat universiteti (magistr)

**Ma’lumoti bo‘yicha mutaxassisligi:**
Milliy g‘oyaning falsafiy masalalari

**Ilmiy darajasi:**
yo‘q

**Ilmiy unvoni:**
yo‘q

**Chop etgan maqola va qo‘llanmalari:**
**Viloyat nashrlari va ilmiy jurnallarda bir qator maqolalari chop etilgan.**

**2013 yil “Milliy g‘oyaning shakllanishida jadidlarning falsafiy- axloqiy qarashlarining ta’siri ” nomli o‘quv qo‘llanmasi chop etilgan.**

**Qaysi chet tillarini biladi:**
rus tili, ingliz tili (lug‘at bilan)
**Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganmi (qanaqa):**
yo‘q
**Xalq deputatlari, respublika, viloyat, shahar va tuman kengashi deputatimi yoki boshqa saylanadigan organlarning a’zosimi (to‘liq ko‘rsatilishi lozim):**
yo‘q

## MEHNAT FAOLIYATI

2006 – 2010 yy.- Andijon davlat universitetida talaba
2010 –2012 yy.- Andijon davlat universitetida magistr

2012 -  h.v. – Andijon davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida assistent

# “MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANIDAN

# FOYDALI MASLAHATLAR

**“MILLIY G`OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANI BO`YICHA FOYDALI MASLAHATLAR**

Yurtboshimiz Islom Karimov milliy istiqlol g`oyasi va mafkurasining maqsadi haqida fikr yuritib, uni shunday ta`riflagan: «Xalqni buyuk kelajak va ulug`vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat`iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo ma`suliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an`analarimizga munosib bo`lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da`vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir. ».

«Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» T. «O`zbekiston», 2000 yil. 7 bet.

Yurtboshimiz Islom Karimov milliy istiqlol g`oyasi va mafkurasining maqsadi haqida fikr yuritib, uni shunday ta`riflagan: «Xalqni buyuk kelajak va ulug`vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat`iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo ma`suliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an`analarimizga munosib bo`lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da`vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir. ». «Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» T. «O`zbekiston», 2000 yil. 7 bet

«Milliy g`oya: asosiy tushuncha va tamoyillar » fanining asosiy vazifasi esa o`z tizimidagi bilim va tushunchalarning barchasini pedagogik tamoyillar asosida, ma`rifiy yo`llar bilan talabalar ongiga singdirish. Shu asosda ularda yangicha

dunyoqarash va mafkuraviy immunitet asoslarini, mustaqil fikrlash ko`nikmalarini shakllantirish, yosh avlod ongida g`oviy bo`shliq vujudga kelishiga yo`l qo`ymaslikdan iboratdir.

Mustaqillik yillarida to`plangan tajriba va ijtimoiy hayot rivoji aslida inson, jamiyat g`oya va mafkurasiz yashay olmasligini ko`rsatdi. Zotan, odamzot o`zining ruhi va shuuridagi ko`pdan-ko`p savollarga javob bo`ladigan, uni doimiy faoliyatiga undab turadigan hayotbaxsh g`oyaga hamisha ehtiyoj sezib yashaydi. Chunki tabiatda, jamiyatda bo`shliq bo`lmagani kabi inson qalbi va ongida ham bo`shliq bo`lmaydi. Jamiyat hayotida sog`lom g`oya ustivor bo`lib turmasa, odamlarning qalbi va ongini yot, zararli g`oyalar egallab, halqning turmush tarzini izdan chiqaradi. Xuddi dunyoning boyligi turli kuchlar o`rtasida talash bo`lganidek, insonlarning qalbi va ongini egallab, ularni o`z qo`lidagi qurolga aylantirish maqsadi ham jahonda har xil tajovuzkor oqim va ta`limotlarni o`zaro kurashga undashi, ayniqsa, bugungi kunda yaqqol namoyon bo`lmoqda. Prezidentimiz milliy istiqlol g`oyasining vazifasi haqida to`xtalib shunday degan edi: «Men milliy istiqlol g`oyasi bugun tez sur`atlar bilan o`zgarayotgan dunyoda o`zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o`sib kelayotgan avlodga etkazishga xizmat qilmog`i zarur, deb bilaman» (o`sha kitob, o`sha bet)

Bu orzu-umidlar va intilishlarni amalga oshirish  ushbu fanni o`qitishda bir qator talablarga ahamiyat berishni zaruratga aylantiradi.

Mazkur tavsiyalarga amal qilish ushbu fanning mohiyati, tushunchalari, tamoyil va xususiyatlarini atroflicha ochib berishga xizmat qiladi. Bu fan o`qituvchisi amaliy mashg`ulotlar olib borishda o`ta ma`suliyat, alohida kuyinchaklik bilan yondoshib, har bir mashg`ulotni yuqori saviyada olib boradilar.

## “MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANIGA OID

# NORMATIV HUJJATLAR

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HAMDA VAZIRLAR MAHKAMASINING QAROR VA FARMONLARI

### O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

**25.08.2006 y.**
**N Pq-451**

### MILLIY G‘OYA TARG‘IBOTI VA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHTO‘G‘RISIDA

Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada tegishli idora va tashkilotlar, jumladan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi hamda uning joylardagi bo‘limlari tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilayotganini qayd etish lozim. Shu bilan birga, xalqaro maydonda mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma’naviy- ma’rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi ushbu sohadagi ishlarni, jumladan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining faoliyati va tarkibiy tuzilishini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini, ularning hayotiyligi va ta’sirchanligini yanada oshirish maqsadida hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining navbatdagi yig‘ilishida bildirilgan takliflarni inobatga olgan holda:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashiga raislik qilish, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, viloyatlar, shahar va tumanlar hokimlariga esa hududiy kengashlarga rahbarlik qilish vazifasi yuklatilsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari shtatlar jadvaliga qo‘shimcha ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha yordamchisi shtati (jami 14 ta shtat birligi) kiritilsin.

3. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining tarkibiy tuzilishi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi huzuridagi Milliy mafkura ilmiy targ‘ibot markazi o‘rniga Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining ilmiy-amaliy yo‘nalishda faoliyat olib boradigan, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan Milliy g‘oya va mafkura ilmiy- amaliy markazi tashkil etilsin.

Quyidagilar Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazining asosiy vazifasi etib belgilansin:

milliy g‘oya va mafkura masalasi bilan bog‘liq dolzarb muammolarni, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, ularning aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish;

xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviyati va milliy qadriyatlari, diniy qarashlari va hayotiy udumlariga, yoshlarimizning ongini zaharlab, ma’naviy jihatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borish bo‘yicha ilmiy-amaliy dasturlarni ishlab chiqish;

fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularni ongli yashashga, o‘z fikriga ega bo‘lishga, turli ma’naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo‘lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalar tayyorlash. Bu borada ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining ta’sirchanligini ta’minlaydigan zamonaviy axborot texnologiyalari va mexanizmlarini, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va takliflar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratish;

o‘z faoliyati doirasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalarini, tahliliy materiallarning xulosalarini ommaviy axborot vositalari, jumladan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining nashr organlari - "Tafakkur" va "Jahon adabiyoti" jurnallari, "Ma’naviyat" nashriyoti orqali muntazam ravishda chop etib, keng jamoatchilikka yetkazish.

5. Respublika "Ma’naviyat va ma’rifat" markazi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining amaliy targ‘ibot yo‘nalishida faoliyat olib boradigan, Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markaziga aylantirilsin.

Quyidagilar Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazining asosiy vazifalari etib belgilansin:

ma’naviyatning ma’no-mohiyati, milliy ma’naviyatimizning qadimiy ildizlari, noyob va betakror namunalari, bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan targ‘ibot ishlarini muntazam ravishda olib borish;

aholining keng qatlamlari, avvalambor yoshlar o‘rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo‘naltirilgan suhbat va uchrashuvlar, ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish;

bugungi kunda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, keng ko‘lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini atroflicha sharhlash va tushuntirish, yurtimizga qarshi qaratilgan g‘oyaviy va informatsion xurujlar, ularning ortida turgan kuchlarning g‘arazli maqsadlarini fosh qilish, odamlarni hushyorlik va ogohlikka da’vat etish, olimlar, siyosatchi va mutaxassislar, ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ‘ibot tizimini yo‘lga qo‘yish;

ota-ona, oila va mahalla, tarixiy xotira, milliy g‘urur, komil inson tarbiyasi bilan bog‘liq tuyg‘u va tushunchalarni yosh avlod qalbi va ongiga ta’sirchan usul-uslublar orqali singdirish, ajdodlarimizning bu boradagi merosini bugungi taraqqiyot talablari bilan uzviy holda rivojlantirish, targ‘ibot ishlarini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi asosida tashkil etish;

yurtdoshlarimizni muqaddas islom dini va falsafasi, aziz- avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug‘ qadamjolariga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzi, millatlararo totuvlik, o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy dasturlarni amalga oshirish.

6. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi 15 kun muddatda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi hamda Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazining dastur va nizomlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

7. Toshkent shahar hokimligi Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi hamda "Tafakkur" jurnali tahririyatini Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uyga joylashtirsin.

8. O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazini xizmat telefonlari, jumladan, hukumat telefoni, internet, boshqa aloqa va axborot vositalari bilan belgilangan tartibda ta’minlasin.

9. Moliya vazirligi:

Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi faoliyatini moliyalashtirish, uni zarur idoraviy jihozlar, kompyuter texnikasi va boshqa asbob-uskunalar bilan ta’minlash, markazning ilmiy-tadqiqot natijalari, dolzarb ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi kitob, risola, dastur, qo‘llanma va boshqa matbaa mahsulotlarini nashr etish bilan bog‘liq xarajatlar uchun 2007 yildan boshlab davlat byudjetidan mablag‘ ajratilishini ko‘zda tutsin;

Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi uchun bitta yengil avtomobilga limit ajratsin.

10. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda, bir oy muddatda amaldagi qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.Mirziyoev zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI**

**09.09.1996 y.**
**PF-1559**

## "MA’NAVIYaT VA MA’RIFAT" JAMOATChILIK MARKAZI FAOLIYaTINI YaNADA TAKOMILLAShTIRISh VA SAMARADORLIGINI OShIRISh TO‘G‘RISIDA

Jamiyatda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Odamlarning o‘zliklarini chuqur anglashini, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishini, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvini, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg‘onishini ta’minlash ma’naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Ammo hanuz joylarda ma’naviyatning mohiyatini, uning olg‘a siljishimiz, farovon jamiyatga tezroq yetishimizdagi qimmatini chuqur idrok etmaslik hollari mavjud. Ayrim katta-kichik rahbarlar eski mustabidlik, zo‘ravonlik mafkurasining sarqitlaridan haligacha qutula olmay, bu borada kechirib bo‘lmaydigan oqsoqlik qilib, ma’naviyatning asl mohiyatini tushunib yetmaslik tufayli unga ikkinchi darajali ish sifatida qaramoqdalar. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarga bo‘lgan bunday e’tiborsizlik kelajagi buyuk demokratik, ozod davlat qurishdek ezgu maqsadimiz ro‘yobi uchun mutlaqo ziddir.

Ma’naviyat sohasida olib borayotgan ishlarimizni yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida:

1. Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo‘nalishi deb hisoblansin. Joylarda ma’naviyat bilan bog‘liq ishlarning amalga oshirilishi uchun butun mas’uliyat shaxsan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyat, shahar va tuman hokimlari, respublikamizdagi barcha vazirliklar, idoralar, tashkilotlar birinchi rahbarlarining zimmasiga yuklansin.

Respublika "Ma’naviyat va ma’rifat" jamoatchilik markazining joylardagi bo‘limlari ishini yanada yaxshilash maqsadida hokimliklar ularni ikki oy muddat ichida tegishli bino, zamonaviy jihozlar, transport va texnika vositalari bilan ta’minlasinlar.

2. Yoshlarimiz ongiga ona-Vatanga, buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi misli ko‘rilmagan bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg‘ularini singdirish maqsadida ularni dunyoni hayratga solgan qadimiy yodgorliklar va mustaqillik davrida bunyod etilgan ulkan inshootlar, ma’rifat maskanlari, yurtimizning go‘zal tabiati bilan muntazam tanishtirib borish uchun mahsus tanishtiruv sayohatlari tashkil etish barcha hokimlar zimmasiga yuklatilsin.

Bu maqsadda hokimliklar va "Ma’naviyat va ma’rifat" markazi, Madaniyat ishlari vazirligi, "O‘zbekturizm" milliy kompaniyasi, "Kamolot" yoshlar jamg‘armasi tegishli tavsiyalarni 2 oy muddat ichida ishlab chiqsin va amalga oshirishga kirishsin.

3. Respublika "Ma’naviyat va ma’rifat" markazi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlarini istiqlol g‘oyalarini, milliy qadriyatlarni teran anglaydigan, fidoyi, tashkilotchi, tashabbuskor xodimlar bilan mustahkamlash uchun ularning rahbarlari shu yilning oxiriga qadar qayta sinovdan o‘tkazilsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki, hududiy bo‘limlar rahbarlari tegishli hokimliklar tavsiyasiga binoan "Ma’naviyat va ma’rifat" markazi tomonidan tayinlanadi.

5. Yosh avlodni buyuk an’analarimizga, yuksak ma’naviy qadriyatlarimizga sodiqlik va porloq kelajak egalari ekanliklariga qat’iy ishonch ruhida tarbiyalash maqsadida 1997 yildan boshlab 1 oktabr "O‘qituvchilar va murabbiylar" kuni deb e’lon qilinsin hamda dam olish kuni hisoblansin. Bu bayramda o‘tkaziladigan barcha tadbirlar o‘qituvchilar, murabbiylar, tarbiyachilar, umuman, bolalar bilan ishlashga, ularning sog‘ligini himoyalashga, jismonan va ruhan sog‘lom kamol toptirishga o‘z hayotini bahshida etgan insonlarni ulug‘lashga bag‘ishlansin.

Vazirlar Mahkamasi bu borada tegishli taklifni Oliy Majlisga kiritsin.

6. Respublika "Ma’naviyat va ma’rifat" markazi nashri - "Tafakkur" jurnalini joylarda keng yoyish uchun mahalliy hokimliklar uning obunasiga har tomonlama yordam ko‘rsatsinlar.

7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat matbuot qo‘mitasi markazning "Ma’naviyat" nashriyotini tashkil etish, bu nashriyotning va "Tafakkur" jurnalining mualliflik qalam haqi miqdorlarini amaldagidan oshirish masalasini ko‘rib chiqsin va hal etsin.

8. Respublika "Ma’naviyat va ma’rifat" jamoatchilik markazi, uning joylardagi bo‘limlari, xo‘jalik hisobidagi korxonalari hamda "Tafakkur" jurnali nizomida ko‘rsatilgan maqsadlar va vazifalarga qat’iy mos keladigan faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha barcha turdagi soliqlardan besh yil
muddatga ozod etilsin.

9. Toshkent shahar hokimi zimmasiga ikki oy muddatda markazning asosiy binosini milliy uslubda ta’mirlash va zamonaviy jihozlash yuklatilsin.

10. Moliya vazirligi markazga mahsus audio, video, foto va boshqa zarur texnik uskunalar xarid qilish uchun kerakli miqdorda mablag‘ ajratsin.

11. Respublika "Ma’naviyat va ma’rifat" jamoatchilik markazi oshida "Oltin meros" xalqaro hayriya jamg‘armasi tuzilganligi e’tiborga olinsin.

Ushbu Farmonda markazga berilayotgan imtiyozlar uning "Oltin meros" jamg‘armasiga ham taalluqli ekanligi belgilab qo‘yilsin.

Vazirlar Mahkamasi jamg‘armani qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida tegishli qaror qabul qilsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bir hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga zarur o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflarni ishlab chiqsin.

13. Ommaviy axborot vositalariga "Ma’naviyat va ma’rifat" jamoatchilik markazi, uning "Oltin meros" jamg‘armasi faoliyatini keng yoritish, doimiy mahsus ruknlar ochish tavsiya etilsin.

O‘zbekiston teleradiokompaniyasi markaz bilan hamkorlikda mahsus "Ma’naviyat va ma’rifat" ijodiy guruhini tashkil qilsin, muntazam ko‘rsatuvlar va eshittirishlarni yo‘lga qo‘ysin.

14. Mazkur masalalarni amalga oshirish uchun tegishli idoralar vakillaridan iborat mahsus ishchi guruhi tashkil etilganligi e’tiborga olinsin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov**

# “MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” FANIDAN

# BAHOLASH MEZONLARI

## “MILLIY G’OYA ASOSIY TUSHUNCHA VATAMOYILLAR” FANIDAN TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONI

<table>
<tr><td rowspan="4">Umumiy soat</td><td rowspan="4">ma’ruza</td><td rowspan="4">seminar</td><td rowspan="4">Mustaqil ta`lim</td><td colspan="12">70 ball</td><td>30 bal</td></tr>
<tr><td colspan="6">Joriy baholash</td><td colspan="6">Oraliq baholash</td><td>Ya.b.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Seminar</td><td colspan="3">Mustaqil ta`lim</td><td colspan="3">Ma’ruza</td><td colspan="3">Mustaqil ta`lim</td><td rowspan="2">Turi</td></tr>
<tr><td>Soni</td><td>Ball</td><td>Jami</td><td>Soni</td><td>Ball</td><td>Jami</td><td>Soni</td><td>Ball</td><td>Jami</td><td>Soni</td><td>Ball</td><td>Jami</td></tr>
<tr><td>60</td><td>16</td><td>18</td><td>26</td><td>1</td><td>25</td><td>25</td><td>1</td><td>10</td><td>10</td><td>1</td><td>25</td><td>25</td><td>1</td><td>10</td><td>10</td><td>yozma ish</td></tr>
</table>

## NAZORAT TURLARINI O`TKAZISH TARTIBI

**1. Joriy nazoratni o`tkazish tartibi**:

Ushbu nazorat turi auditoriyada akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida quyidagi shakllarda o`tkaziladi:

- uy vazifalarini tekshirish;
- amaliy mashg`ulotlarni tekshirish;
- test sinovlari o`tkazish;
- nazorat ishlarini o`tkazish;
- og`zaki so`rov;

**2. Oraliq nazoratni o`tkazish tartibi:**

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhdagi barcha talabalar ishtirokida quyidagi shakllarda o`tkaziladi:

- kollokvium;
- og`zaki so`rov;
- test sinovlari o`tkazish;
- yozma ish.

**3. Yakuniy nazoratni o`tkazish tartibi:**

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida “Yozma ish” tartibida o`tkaziladi. Jami variantlar soni 50 ta. Har bir variant 3 ta savoldan iborat.

**“Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni**

“Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

**joriy nazorat (JN)** – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat 1 marta o’tkaziladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;

**oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat shakli (yozma, og‘zaki, kollokvium, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilandi;

**yakuniy nazorat (YaN)** – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o‘tkaziladi.

**ON** o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o‘tkaziladi.

Universitet rektorining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o‘tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

“Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo‘yicha talabalarning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi maksimal 100 ballik tizimda baholanadi.

YaN-30 ball, qolgan 70 ball esa JN-35 ball va ON-35 ball qilib taqsimlanadi

**Talabaning “Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichi quyidagi mezonlar asosida baholanadi**

| Ball | Baho | Talabalarning bilim darajasi |
|---|---|---|
| 86-100 ball uchun talabaning bilim | A’lo | • xulosa va qaror qabul qila olish;<br>• ijodiy fikrlay olish; |

| | | |
|---|---|---|
| darajasi quyidagilarga javob berishi kerak | | • mustaqil mushohada yurita bilish;<br>• olgan bilimlarini amalda qo`llay olish ko`nikmalariga ega bo`lish;<br>• mavzular mohiyatini to`la bilish va aytib bera olish;<br>• boy uslubiy tasavvur va fikrlashga ega bo`lish;<br>• “Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish; |
| 71-85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi kerak | Yaxshi | • mustaqil mushohada yurita olish;<br>• auditoriyada olgan bilimlarini amalda qo`llay ola bilish;<br>• mavzular mohiyatini bilish, aytib berish;<br>• “Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish; |
| 55-70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi kerak | Qoniqarli | • uslubiy xolatlar mohiyatini tushunish;<br>• mavzular mohiyatini bilish, aytib berish;<br>• “Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish; |
| 0-54 ball bilan talabaning bilim darajasi quyidagi holatlarda baholanadi | Qoniqarsiz | • uslubiy xolatlar mohiyatini tushunib yetmaslik;<br>• “Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo’yicha aniq tasavvurga ega bo`lmaslik;<br>• “Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” faniga oid termin va tushunchalarni izohlay bilmaslik; |

Fan bo‘yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo‘yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R = \frac{V \cdot Q}{100}$ bu yerda:

$V$ - semestrda fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklamasi (soatlarda);

$Q$ -fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo‘yicha 55 ball va undan yuqori ballni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.

**ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.

**JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisi 55 baldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

### Talabalar JN dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

| № | Ko‘rsatkichlar | JN ballari | |
|---|---|---|---|
| | | **maks** | **O‘zgarish oralig‘i** |
| 1 | Darslarga qatnashganlik va o‘zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi, amaliy mashg‘ulot daftarlarining yuritilishi va holati | 10 | 0-10 |
| 2 | Mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo‘yicha uy vazifalarini bajarilish va o‘zlashtirishi darajasi. | 10 | 0-10 |
| 3 | Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar | 15 | 0-15 |
| **Jami JN ballari** | | **35** | **0-35** |

**Talabalar ON dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

| № | Ko‘rsatkichlar | ON ballari | |
|---|---|---|---|
| | | maks | O‘zgarish oralig‘i |
| 1 | Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma’ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to‘liqligi. | 10 | 0-10 |
| 2 | Talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarishi va o‘zlashtirish. | 10 | 0-10 |
| 3 | Og‘zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo‘yicha | 15 | 0-15 |
| **Jami ON ballari** | | **35** | **0-35** |

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida o’tkazilishi belgilanganligi uchun u maksimal 30 ballik tizimda o‘tkaziladi.

**Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezoni**

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov 50 variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-10 ball oralig‘ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin.
Yozma sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari qo‘shiladi va yig‘indi talabaning yakuniy nazorat bo‘yicha o‘zlashtirish bali hisoblanadi.

# MUNDARIJA


1. Na’munaviy o‘quv dastur ______________________________ 3-16
2. Ishchi o‘quv dasturi ______________________________ 17-46
3. Ta’lim texnologiyasi ______________________________ 47-92
4. Testlar ______________________________ 93-113
5. Nazorat uchun savollar (JN, ON, YaN) ___________________ 114-117
6. Umumiy savollar ______________________________ 118-120
7. Tarqatma va ko‘rgazma materiallari ___________________ 121-126
8. Glossariy ____________________________________ 127-131
9. Mustaqil ish mavzulari ______________________________ 132-134
10. Adabiyotlar ro‘yxati ______________________________ 135-138
11. Tayanch konspekt ____________________________________ 139-146
12. Ma’ruzalar matni ______________________________ 147-215
13. Kurs ishi mavzulari ____________________________________ 216-217
14. Anotatsiya ______________________________ 218-220
15. Mualliflar haqida ma’lumot ______________________________ 221-223
16. Foydali maslahatlar ____________________________________ 224-226
17. Normativ xujjatlar ____________________________________ 227-232
18. Baholash mezoni ____________________________________ 233-238